

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND
DAVLAT UNIVERSITETI**

**Qo'lyozma huquqida
UDK 891.709**

**XUDOYBERDIYEV ELDOR UKTAMJONOVICH
ERKIN A'ZAM ASARLARIDA SUJET VA KOMPOZITSIYA
YARATISH MAHORATI**

5A120101 – Adabiyotshunoslik(o'zbek adabiyoti)

**Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA**

Ilmiy rahbar:

prof. Sh.Hasanov

Rasmiy taqrizchilar:

prof. A.Xolmurodov

dots. S.Tohirov

**Magistrlik dissertatsiyasi hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasining
26-maydagi majlisida muhokama qilingan va YaDAKga himoya uchun
tavsiya etilgan (12-son bayonnoma).**

Kafedra mudiri:

dots. A.Nosirov

**Magistrlik dissertatsiyasi YaDAKning 2015-yil 27-iyundagi majlisida
himoya qilingan va ____ball bilan baholangan (____-son bayonnoma).**

YaDAK raisi:

prof. N.Turniyozov

A'zolari:

SAMARQAND–2015

M U N D A R I J A

Kirish.....	3
I. Zamonaviy nasr va Erkin A'zam ijodi.....	9
1.1.XX asr 70-80-yillari nasrining o`ziga xos alomatlari.....	9
1.2.Erkin A'zam prozasining g`oyaviy-badiiy xususiyatlari.....	24
II. Erkin A'zam nasrida davr va xarakter talqini.....	41
2.1. Xarakter va sharoit tasviri.....	41
2.2. Makon va zamon kategoriyasi.....	49
III. Erkin A'zamning sujet va kompozitsiya yaratish uslubi.....	57
3.1.Sujet va uning tarkibi.....	57
3.2.Sujet va kompozitsiya birligi.....	70
Xulosa.....	86
Adabiyotlar ro`yxati.....	91

MAGISTRLIK ISHINING UMUMIY TAVSIFI

Mavzuning dolzarbligi. Respublikamizning o'z mustaqilligini qo'lga kiritishi xalqimiz ijtimoiy hayotining hamma sohalarida tub burilishlar davrini boshlab berdi. Bu davrda milliy-ma'naviy qadriyatlar tiklanib, mustaqillik mafkurasini vatandoshlarimiz shuuriga singdirish, yosh avlodni barkamol shaxs qilib tarbiyalash kabi masalalar davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Bu o'z navbatida ilm va fanning boshqa sohaları qatori adabiyotshunosligimiz oldiga ham ulkan va mas'uliyatli vazifalar qo'ymoqda.

Vatanimiz uzoq vaqt mustamlaka davrini boshidan kechirdi. Bu davrda xalqimiz o'zi istagandek yashash huquqidan mahrum edi. Biz uchun qarorni boshqalar qabul qilardi. Bunday hol adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz uchun ham begona emasdi. Nimani yozish, nimani o'rganish kerakligi yuqoridan belgilab qo'yilgandi. Bu davrda adabiyotning vazifasi sotsiolistik g'oyalarni tashishdan iborat bo'lib qolgan edi. Tog'ri, XX asrda o'zbek adabiyotida ham jahon adabiyotidagi kabi bir necha sara asarlar yaratildi. Bular urf-odatlarimizni, milliy mentalitetimizni o'zida aks ettirdi va tariximizdan saboqlar berdi. Ammo bunday asarlarni o'qish va o'rganish taqiqlandi. Bugungi kunda bu hammamizga ayon.

Adabiyot insonga xizmat qilishi lozim va insonni ma'naviy tarbiyalash quroli hisoblanadi. Buning uchun adabiyot milliy va umuminsoniy g'oyalarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Shundagina insoga xizmat qilishi mumkin. Ammo mustamlaka davrida adabiyot yagona g'oya – sotsialistik g'oya uchun xizmat qildirildi. Demak, adabiyot o'z vazifasini to'liq bajarmadi.

Agar bu davrda yaratilgan asarlarga e'tibor beradigan bo'lsak, asosan, ishchilar tabaqasining qahramonliklari ulug'lab ko'rsatilgan. Vaholangki, aslida ishchilar bunday qobiliyatga ega emasdilar. Ular nimani buyursa shuni qiladigan tayyor "ish quroli" edi.

XX asrning 70-80-yillarida o'zbek adabiyotida oddiy turmush sharoitida harakatlanadigan, milliy ruhni o'zida aks ettirgan bugungi kun insonlari qahramon sifatida tasvirlangan asarlar yaratildi. Bu kabi asarlarda insonlar, ularning turmush tarzi qanday bo'lsa, shundayligicha tasvirlandi. Xullas, hayotiy muammolar o'z

holicha, yolgʻon-yashiqsiz, realistik tasvirlar vositasida oʻzining haqqoniy ifodasini topdi. Demak, bu davrda adabiyot maydoniga milliy va mustaqillik ruhini, umuminsoniy gʻoyalarni oʻzida mujassamlashtirgan yangi isteʼdodlar kirib keldi, deyish mumkin. Ular yaratgan asarlar adabiyotimiz uchun katta yangilik boʻldi.

Erkin Aʼzam ana shunday ijodkorlarning biri. Adib oʻsha davrdan to bugungacha katta ijodiy yoʻlni bosib oʻtdi. U yaratgan asarlar adabiyotimizda katta yangilik sifatida kutib olindi. Oʻzbek adabiyotining yangi bosqichga koʻtarilishida muhim ahamiyat kasb etdi. Erkin Aʼzam yaratgan qahramonlar samimiyligi, soddaligi, eʼtiqodi mustahkamligi, vijdonliligi, sobitqadamliligi, or-nomusliligi bilan ajralib turadi.

Bugun biz komil insonni tarbiyalashni maqsad qilgan ekanmiz, buning adabiyotsiz sira iloji yoʻq. Bu yoʻlda adabiyotning xizmatiga tayanishimiz zarur. Erkin Aʼzam asarlarini oʻrganish ana shunday avlodni tarbiyalashda asqotishi shubhasiz. Mavzuning dolzarbligi ham ana shundadir.

Mavzuning oʻrganilish darajisi. Erkin Aʼzam ijodi yuzasidan bugungi kungacha koʻzga koʻrinadigan salmoqli ish amalga oshirilgani yoʻq. Bu degani Erkin Aʼzam ijodi bilan hech kim qiziqmayapti degani emas, albatta. Erkin Aʼzam ijodi judayam qiziqarli. Faqat maʼlum bir katta hajmli tadqiqot qilingani yoʻq, xolos. Bu oldimizda turgan eng muhim masalalardan biri. Ammo Erkin Aʼzam ijodiga adabiyotshunoslarimiz tomonidan turli fikr-mulohazalar bildirilgan, bir qancha ilmiy maqolalar eʼlon qilingan. Bakalavrlik darajasini beruvchi diplom ishlari, magstrlik dissertatsiyalari bajarilgan.

Taniqli munaqqid Rahimjon Otayev oʻzining “Dilrabo qoʻshiqlar aytilaversin” nomli maqolasida (“Sharq yulduzi”jurnali, 1984-yil, 2-son) Erkin Aʼzam ijodi haqida tanqidiy fikrlar bildirib, shunday deydi: “Gap Erkin Aʼzam hikoyalari haqida ketar ekan, ularning ayrimlarida koʻzga tashlanuvchi bir achinarli holni aytib oʻtmasdan iloj yoʻq: bu – muallifning, bilib-bilmaymi oʻzini-oʻzi maʼlum darajada takrorlab qoʻyishidir”. Nuriddin Shukurov, Ilhom Hasan singari adabiyotshunoslar mustaqilligimizning dastlabki yillarida “Izlanishlar fasli”

maqolasida bir guruh iste'dodli ijodkorlar qatori Erkin A'zam ijodi haqida ham o'zlarining qimmatli fikrlarini bildirib o'tishgan.

Bugungi kunga kelib ham Erkin A'zam ijodi doirasida bir qancha maqolalar e'lon qilindi. Shulardan biri filologiya fanlari doktori, professor Abdug'ofur Rasulovning "Sharq yulduzi" jurnalining 2010-yil 5-sonida e'lon qilingan "Erkin A'zam ijodiga nazar" nomli maqolasidir. Bu maqolada adib asarlarining xarakteristikasi, sujeti, qahramonlar ruhiyati, badiiy-g'oyaviy xususiyatlari haqida fikr-mulohaza bildirilgan. Abduhamid Xolmurodov "Qissada badiiy obraz yaratish mahorati"(T.: Fan, 2006) tadqiqotida Erkin A'zam asarlaridan tadqiqot obyekti sifatida foydalangan.

Bundan tashqari Nigora Ashurovaning "Ko'ngil tasviri" nomli maqolasi ham Erkin A'zam ijodiga bag'ishlangan. Bu maqolada adib yaratgan qahramonlarning ko'ngil kechinmalari o'z ifodasini topgan. Mashhura Sheraliyevaning "Nasrda lirizm va kinoya" hamda "Qahramon poeziyasi estetik analogiya sifatida" kabi maqolalarini Erkin A'zam ijodini o'rganishda muhim manbalar qatoriga qo'shish mumkin. "Nasrda lirizm va kinoya" maqolasida yozuvchining qahramon xarakterini ochib berishda lirizmga ya'ni ichki kechinmalar tasviriga ko'proq urg'u berishini ta'kidlab, bu tasvir jarayonida pichinglardan mahorat bilan foydalanishini aytib o'tadi. Ikkinchi maqolasida esa qahramonlarning estetik ta'siri kuchliligi e'tirof etiladi va bu muallifning estetik qarashlarining ifodasi ekanligi ta'kidlanadi.

Dissertatsiyaning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.

Bugungi kunda adabiyotshunoslik sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning istiqbol rejasini hozirgi zamon adabiyotimizning jahon adabiy jarayoni tarixi va taraqqiyotidagi mavzui, zamonaviy asarlarimizning mavzu va g'oyalar ko'lami, badiiy ilmiy-nazariy jihatdan xolisona tadqiq etish belgilab beradi. Shundan kelib chiqqan holda, Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti hozirgi zamon o'zbek adabiyoti kafedrasida bugungi kun zamonaviy o'zbek adabiyoti muammolari mavzusini tanlagan bo'lib, mazkur tadqiqot ushbu keng qamrovli

muammo bilan bog'liq holda Erkin A'zamning sujet va kompozitsiya yaratish mahoratini yoritishga qaratilgan.

Tadqiqotishining yangiligi quyidagilardan iborat:

- ushbu tadqiqot ishida Erkin A'zam asarlarining sujet va kompozitsion xususiyatlari aniq tahlil qilingan va adib asarlarining sujet va kompozitsion tabiati o'ziga xos yetti guruhga ajratib chiqilgan. Bu ishgacha bunday tahlil namunasini uchratmaymiz;
- ushbu ilmiy ishda Erkin A'zam asarlarida sujet va kompozitsiya birligi nomli fasl mavjud bo'lib, adibning sujet va kompozitsiya birligini asarning mazmuni va g'oyasiga xizmat qildirganligi isbotlangan. Bu hodisani boshqa tadqiqot ishlarida va ilmiy maqolalarda uchratmaymiz;
- adibning muhit va xarakter, makon va zamon yaratishdagi o'ziga xosligi aniq faktlar va badiiy matn asosida talqin qilinib, ma'lum xulosalarga kelingan. Agar biz yuqorida keltirilgan maqolalarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda bu xususda so'z yuritilmagan;
- Erkin A'zamning yaqin yillarda yaratilgan asarlari: "Shovqin" romani, "Guli guli" qissalaridan ham tadqiqot obyekti sifatida foydalandik. Bu asarlar hech bir tadqiqot ishi yoki maqola uchun tadqiqot ob'ekti sifatida qo'llanilmagan.

Yuqorida zikr etilgan holatlar tadqiqot mavzusi va ishining yangiligini belgilaydigan va asoslaydigan holatlardir.

Tadqiqotning obyekti va manbalari. Ushbu tadqiqot ishining asosiy obyekti Erkin A'zam qalamiga mansub asarlardir. Bu o'rinda adibning "Shovqin" romani, "Javob", "Bayramdan boshqa kunlar", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Otoyining tug'ilgan yili", "Guli guli", "Qarzdor" qissalari, "Zabarjad", "Suv yoqolab" kinoqissalari, "Jannat o'zi qaydadir" dramasi va "Navoiyni o'qigan bolalar", "Stupka", "Anoyining jaydari olmasi", "Yozuvchi", "Ta'ziya" kabi bir qancha hikoyalarini ta'kidlash joiz.

Tadqiqot ishini yaratishda nazariy ma'lumotlar Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi", Hotam Umurovning "Adabiyot nazariyasi", Dilmuroda Quronovning

“Adabiyotshunoslikka kirish” va boshqa birqancha darslik, qoʻllanmalar hamda monografiyalardan olindi.

Bundan tashqari XX asrning 70-80-yillarda yetishib chiqqan ijodkorlar nasrining oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda adabiyotshunoslar Nuriddin Shukurov va Ilhom Hasanlarning “Izlanishlar fasli” maqolasi asos boʻldi. Shu bilan birga taniqli munaqqid Rahimjon Otayevning “Dilrabo qoʻshiqlar aytilaversin” (“Sharq yulduzi”jurnali, 1984-yil, 2-son), Abdugʻofur Rasulovning “Erkin Aʼzam ijodiga nazar” (“Sharq yulduzi” jurnalining 2010-yil 5-sonida eʼlon qilingan), Nigora Ashurovaning “Koʻngil tasviri” , Mashhura Sheraliyevaning “Nasrda lirizm va kinoya” hamda “Qahramon poeziyasi estetik analogiya sifatida” kabi maqolalaridan ilmiy manbalar sifatida foydalandik.

Tadqiqot ishining metodologiyasi va metodi. Milliy istiqlol mafkurasi hamda yurtboshimizning milliy mafkura va madaniyatga doir dasturiy koʻrsatmalari, gumanitar sohalar va umuman ilmiy tadqiqot ishlarining ustuvor yoʻnalishlariga oid qarashlari ushbu magistrlik ishining metodologik asosini tashkil qiladi.

Mavzuni izchil va atroflicha yoritish maqsadida ilmiy bilishga asoslangan qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, ilmiy tavsif va sharh, tahlil va talqin, kuzatish metodlaridan foydalanildi. Adabiyotshunoslik sohasida fundamental tadqiqotlar yaratgan H.Umurov, N. Shukurov, A. Rasulov, I. Hasan, Sh Hasan, M. Boboxonov kabi olimlarning ilmiy ishlaridagi tadqiqot metodlaridan foydalandik.

Himoyaga olib chiqilayotgan asosiy holatlar. Erkin Aʼzam nasri zamonaviy oʻzbek adabiyotining qiyofasini ochib berishda oʻziga xos xarakterga ega. Adib birinchilardan boʻlib yangi davr adabiyotida badiiy asar bilan kino asarni uygʻunlashtirgan holda yangi janrga asos soldi, desak mubolagʻa qilmagan boʻlamiz. Bu hol adabiyotimiz va adabiyotshunosligimiz uchun katta voqea boʻldi.

Yozuvchi dastlabki hikoya va qissalaridanoq yangi tasvir usullaridan foydalanib sujet va kompozitsiya yaratishda oʻziga xos oʻzgacha uslub yarata oldi. Keyinchalik bu xususiyatlar kinoqissalarida yanada mukammallik kasb etdi.

Erkin A'zam o'z asarlari uchun tanlagan mavzu bugunning odamlarlarini qiynayotgan muammolar haqida bo'lsa, sujetni harakatlantiruvchi konflikt qahramaonlar ruhiyatida yuz beradi. Adib asarlari uchun umumiy g'oya kim bo'lishimizdan qat'iy nazar "Inson" degan oliy maqomga mos tarzda hayot kechirish kerakligidir.

Erkin A'zam nasriga xos yana bir xarakterli xususiyat shundaki, U qahramonlarini o'zi harakatlantirmaydi, balki ularning turli xil muhitlardagi harakatini kuzatib boradi. Shu bilan birga mikromakonga katta bir davrni sig'dira oladi. Yozuvchi asarlari tili piching va kesatidlarga boyligi bilan ham ahamiyatlidir.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Erkin A'zam uslubi adabiyotimiz uchun ma'lum ma'noda yangilik hisoblanadi. Bugungi kunda bu ijodkor ijodiga qiziquvchilar soni ko'paymoqda. Bizning tadqiqotimiz Erkin A'zam ijodini o'rganuvchilar uchun kichik bir dastur vazifasini o'taydi, deb o'ylaymiz. Adib asarlaridagi mazmun va g'oyani anglab olishda ma'lum bir qo'llanma zurrur. Chunki Erkin A'zam asarlarini o'qish jarayonida sujet va kompozitsion qurilishini tushunishda kitobxonlar va yosh adabiyotshunoslarda bir qancha savollar tug'ilishi mumkin. Tadqiqotimizda adib asarlarining sujeti va kompozitsiyasi qay tarzda vujudga kelayotganligini tahlil qilib berdik. Endilikda kitobxon yoki yosh adabiyotshunoslar, talabalar sujet va kompozitsiya yaratishning yangi bir usullari haqida xabar topadi. Bu adabiyotshunosligimizda mavjud bo'lgan bo'shliqlardan birini qisman bo'lsa-da to'ldiradi, deb niyat qilamiz.

Bundan tashqari Erkin A'zam ijodi adabiyotimizda yangi bir ummon sifatida paydo bo'ldi. Bu ummonga sho'ng'ishda ushbu tadqiqot yosh adabiyotshunoslarga asqotadigan kichik bir metodologik va ilmiy manba vazifasini bajarishiga umid qilamiz.

Ishning tuzilishi va hajmi. Magistrlik ishi kirish (ishning umumiy tavsifi), jami oltita faslni o'z ichiga oluvchi uchta asosiy bob, xulosa hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 95 sahifani tashkil etadi.

I.BOB. ZAMONAVIY NASR VA ERKIN A'ZAM IJODI

1.1. XX asr 70-80-yillari nasrining o'ziga xos alomatlari

Adabiyot maydoniga 70-yillarning oxiri va 80-yillarning boshlarida kirib kelgan bir guruh iqtidorli ijodkorlar o'zbek prozasi istiqboliga katta umid bilan qarashga huquq berdi.

Nurali Qobul, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam, Xayriddin Sultonov, Tog'ay Murod, Tohir Malik, Xojakbar Shayxov, Saodat Isaxonovalar bilan izma-iz kelayotgan Dilbar Saidova, Asad Dilmurodov, G'offor Hotamov, Zohir A'lam, Norto'xta Qilichev, Mamatqul Hazratqulov, Olim Otaxonov, Abbos Saidov, Nurali Otaxonov, Sotivoldi Rajabov, Abdulqosim Mamarasulov, Orzuqul Ergashev kabi o'nlab nosirlarning voqealigini o'ziga xos tarzda poetiklashtirish yo'lidagi samarali izlanishlari e'tiborga loyiqdir. Nasrimizning bu avlodi adabiyotga yoshlikning o'zidek beg'ubor, samimiy ta'bir joiz bo'lsa, "yo'nilmagan", biroq, tabiiy ovoz bilan dadil kirib keldi...

Nurali Qobul o'zining dastlabki asari – "Oyqor"ni e'lon qilgach, u o'ziga xos ijodkor sifatida o'quvchilar nazariga tushdi. Yozuvchi uslubining muhim jihatini, eng avvalo, voqea-hodisalarga yuksak mahorat, publisistik mas'uliyat bilan yondashuv tashkil etadi. Polifonik uslub o'sha davr ijodkorlari nasriga xos umumiy xususiyat, ammo Nurali Qobul ijodida bu yanada bo'rtibroq ko'rinadi. Uning asarlari orasida hayajonli liro-romantik ruhda yozilganlari ham ("Oyqor", "Salom, tog'lar"), izchil batafsil analitik tasvir prinsiplari asosida yaratilganlari ham ("Yashash uchun kechikma") uchraydi va ana shularning barchasi birgalikda olingan taqdirdagina adibning ijodiy o'ziga xoslikka intilishi namoyon bo'ladi. Turli asarlarida turlicha mavqeni egallagan bu xususiyatlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, adib ijodida yonma-yon kelib, bir-birini to'ldiradi, muallif qalbining tub-tubidan otilib chiqqan samimiy ovoz ostida bir-biriga omuxta bo'lib ketadi. Bunday qorishuv Nurali Qobul asrlariga o'zgacha joziba baxsh etadi, hatto ortiqchadek, adabiy ezmalikdek ko'ringan tasvirlar, butun-butun sahifalarni ham asarning umumiy ruhiga singdirib yuboradi...

Girigoriy Baklanov “Дружбанародов” jurnali sahifasida Murod Muhammad Do'stga oq yo'l tilab shunday yozgan edi: “U kimlar haqida, nimalar haqida yozayotganligini yaxshi biladi... Albatta, o'zbek adabiyoti yozuvchilardan qisilib qolgan emas, ammo Murod Muhammad Do'st o'z xalqi haqida o'ziga xos tarzda, o'z manerasida yoza oladigan adib bo'lib yetishadi”. Adib ana shu ishonchni oqlab kelmoqda. Uning qator hikoyalari, “Chollardan biri” qissasi, “Galtepaga qaytish” romani bilan yaqindan tanishish shundan dalolat beradiki, Murod Muhammad Do'st o'zigagina xos ovozda gapirish uchun samarali izlanishlar olib borgan.

Adibning qahramonlari mard, tanti, rostgo'y, to'pori, ko'plar nazaridan chetda, ammo durustroq razm solsangiz, olam ichra bir olam bo'lib yuruvchi oddiy qishloq kishilaridir. Ular ba'zi silliq asarlardagidek muallif ko'rsatgich barmog'i bilan qayoqqa yo'naltirsa, o'sha yoqqa qarab harakatlanuvchi qiyofasiz odamlar emas. Ular chinakamiga yashaydilar, kurashadilar, xato qiladilar, bu xatolarini ba'zan anglamay, anglagan taqdirda ham ichki bir xudbinlik bilan haq ekanliklariga o'zlarini ham, o'zgalarni ham ishontirishga urinib yashayveradilar. Eng muhimi, ular voqealikka katta-kichik barcha komponentlarda o'z izini qoldirgan.

Murod Muhammad Do'st – nazari o'tkir adib. U insonlarni bir-biriga bog'lab turgan iplar orasidan eng nozik, ko'z ilg'amaslarini ham ko'rib turadi, uning boshqa iplar bilan aloqasini chuqur his etadi. Uning qahramonlari hamsuhbatlarining oddiy harakatlari, ko'z urishtirishlari, gapirishmaneralaridan ham aytilmagan (balki hech qachon aytilmas) fikrlarni uqa oladilar. Mana, G'aybarovning mulla Chori harakatlaridan uqqan ma'nilari:

“Sukutni mulla Chorining hayqirig'i buzdi:

– Mo'minlar, Rayim G'aybar o'g'li qanday odam edi?

Hamma birdan javob qildi:

– Yaxshi odam edi! Yaxshi odam edi! Xudo rahmat qilsin!

Mulla Chori ortga, go'r tarafga o'g'rincha qarab oldi.

...Nahotki u xudoga ishonsa? Ya'nikim, marhumni yerga qo'yib, mardum uzoqlashsa bas, Munkar bilan Nakir lahadga kiradi va so'roq boshlaydi: kimsan? Rabbing kim? Rasuling kim?

– Jannatidan joy ato qilsin, - deya so'zlandi mulla Chori.

...otamdan qarzini uzmoqchi. Otamni jinidan battar yomon ko'radi, endi u raqibsiz yolg'iz qoldi, go'ringga boradigan joyi yo'q. Endi o'zicha uyalyapti, afsus qilyapti”.

Yozuvchi uslubidagi muhim qirra – ikki qatlamli tasvir (yuqoridagi parchada bu ochiq ko'rinadi) uning qahramonlariga tabiiylik va o'ziga xoslik bag'ishlaydi. Ikkala qatlam parallel holda, bir-birini to'ldirib davom etar ekan, kurash ko'pincha “ichki” qatlamda kechadi, faqat o'zining eng keskin fursatlaridagina “tashqi” qatlamga yorib chiqadi. Bu jihatdan Murod Muhammad Do'st prozasi yuzasi sokin, beozor, tubi shiddat bilan oquvchi daryoni eslatadi. E'tibor bering-a: “G'aybarov zavqlandi, chollarning erinmay o'tirishidan allaqanday sharqona xosiyat topganday bo'ladi, lekin mullaga tuzukroq razm solib, uning suhbatdoshidan bezor bo'lib, o'zini qo'yarga joy topolmay turganini ko'rdi. Ko'ngli g'ashlandi”. Ana shu g'ashlik otasi va mulla suhbatida, otasining yosh boladek sodda, beozor, maqtanchoqligiga, mullaning ichiqora, g'ayrligiga guvoh bo'lgan sari kuchayib boradi. Mulla chiqib ketayotganida esa chidab turolmaydi, ko'nglidagi (“ichki” qatlamdagi) alamlari yuzaga tepadi: “Biznikiga kamroq kelsangiz”.

Muhimi shundaki, G'aybarovning dabdurustdan ters muomalasi mullani ajablantirmaydi. U hamlani bamaylixotir kutib oladi, chunki u Rayim oqsoqol, Toshpo'latga butkul yot, bo'lak bir olamdan ekanligini yaxshi tushunadi, buni biror lahza bo'lsin unutilmaydi. Boya ham suhbat chog'ida Toshpo'latning izza bo'lib o'tirganini, xayolidan nelar kechganligini durustgina sezib turgan, seza turib uning ko'z o'ngida oqsoqolni ko'proq kalaka qilgandi. U maqsadiga erishdi, hasad, adovat, kin to'la qalbi buguncha orom olgandek bo'ldi, endihar qanaqa hujumni u bamaylixotir kuta oladi:

“ – Biz endi, keksa odam, Toshpo'latboy, - dedi mulla Chori.

Kelmay qo`ysak oqsoqolning o`ziyam yolg`izlikdan zerikadi.

– Otam kimligingizni biladimi?

– Biladi, - deya kiprik qoqmay javob qaytaradi mulla Chori.

G`aybarov o`zini behuzur sezadi.

– Loaqal men borligimda kelmang!

– Xo`p-xo`p o`g`lim. Lekin basharti kelsak, undanima bo`ladi?

– G`aybarov chidab turolmadi.

– Itga talataman!..”

Adibning til ustidagi zahmatli izlanishlari e`tiborlidir. Bu izlanishlar bir tomondan badiiy asar tilini xalq jonli nutqiga yaqinlashtirishga intilish bilan, ikkinchi tomondan, klassik tajribasidan ijodiy foydalanishga urinish bilan xarakterlanadi. Quyidagi parchaga e`tibor bering-a, klassiklar tilidagi ichki dinamikada xalq tiliga xos tozalik, aniqlik, jonlilik, tozalikka, jonlilikka intilish qanchalar ochiq ko`rinadi unda: “U ayolni dast ko`tarib oldi. Xadichaning bilaklari bo`yniga chirmashgan hamon majoli qochdi, gandarab ketdi, lekin sal o`tib bilaklarning kuydurguvchi taftiga ko`nikdi, charchog`-u og`riq unitildi, go`yoki tan ham unut bo`ldi-yu, uning o`zi bo`yniga chirmashgan bilaklarga aylandi... Faqat yuraklarning olatasir urgani seziladi, go`yo butun dasht-u dalalaruning dukuriga to`lgan... seni shunchalar sog`inib edimmi, Hadicha? Ko`ngildagi kin-u g`azabim qani? Nega yig`laysan, Xatcha? Biror narsa de, shubhalaring bekor de, Xatcha. Ko`nglimni qabartma, belimni bukma, gavharni toshga urmaylik, Xatcha...”

Xalqona fikrlash tarzi tasvirdagi milliy ohang, yengil yumorga boylik jihatidan Tog`ay Murod ijodi Murod Muhammad Do`st ijodiga yaqin turadi. Biroq Tog`ay Murod ijodidagi bu xususiyatlarga boshqacha usul va vositalar orqali erishadi.

“Prozadagi baxshi... Tog`ay Murod asarlarini har safar qo`lga olarkansiz, tasvirlar, sahifalar osha shu iborani qayta-qayta takrorlamay o`tolmaysiz. Biz xalq og`zaki ijodining yozma adabiyotga kuchli ta`siri to`g`risida juda ko`p gapiramiz (ayniqsa, so`ngi yillarda), istalgan adib ijodi misolida bu ta`sirning xilma-xilma ko`rinishlari mavjudligini ko`rsatamiz. Biroq Tog`ay Murod ijodida bu ta`sir

adabiyotimizdagi mavjud ko`rinishlardan bo`lak bir tarzda, sifat ham mohiyat jihatidan yangicha bir darajada namoyon bo`lgan. Xalq og`zaki ijodi an`analari uning uchun maqsadga erishish, stilizatsiya yo`lidagi shunchaki “ermak” emas, balki yurakdan anglangan, e`tiqodga aylangan adabiy namunadir. Shu bois adibning biz hayotda deyarli har kun uchratadigan (ammo e`tibor bermaydigan) qahramonlari folklorning hayotbaxsh an`analari ruhidan bahramand bo`lib qad rostlar ekan, ularni xalq ertak, dostonlaridagi obrazlar kabi sevib qolasiz”¹. Xalqning azaliy urf-odatlarini, marosimlari, (kurash, poyga, to`y) muhabbat bilan tasvirlangan sahifalarni o`qiyotganda yiroq-yiroqlardan do`mbira sadosi, baxshi ovozi elas-elas eshitilgandek bo`ladi: “Otlar pishqirdi, kishnadi. Sag`rilariga qamchilar tarsillab tushdi. Chavondozlar hayqirib, otlarini uloqqa chorladi. Nihoyat uloq yerdan ko`tarildi. To`dada jonlanish bo`ldi... Dupur-dupur-dupur... Otlar pishqirdi, otlar kishnadi. Suvliqlarini shaqirlatib chaynadi. Yollari selkilladi. Dumlari tovu pati misol yoyildi. Tuyoqlar ostidan samoga chang o`rladi. Dupur, dupur, dupur...” Shu sado ostida asarning umumiy ko`rinishi vujudingizga oqib o`tadi, qalbingizda ezgulik urug`larini qadar ekan, adolatsizlikning katta-kichik har qanday ko`rinishiga qarshi beayov kurashga yo`llaydi.

Xayriddin Sultonov – o`z qat`iy so`zi, baquvvat ovoziga ega bo`lish uchun samarali izlangan ijodkorlardan. Uning izlanishlari nisbatdan kengroq. Shu bois uning ijodida mavzusi, kompozitsion qurilishi, poetikasi jihatidan bir-biridan farq etib turuvchi asarlar uchraydi. Shunga qaramay, uning uslubida rang-baranglikni ko`rishimiz mumkin.

Lirik tasvir Xayriddin Sultonovning katta-kichik barcha asarlarini yagona uslub doirasida o`rganishga imkon beruvchi muhim jihatlardan. Bunday tasvir ayrim o`rinlarda, masalan, uning tarixiy mavzulardagi asarlarida liro-romantik xarakter kasb etadi. Xayriddin Sultonov uslubidagi lirik, liro-romantik ruh uning ulug` adib Oybek prozasidan ijodiy bahramand bo`lganligini ko`rsatadi. Biroq Oybek uslubidagi bu qirralar ko`proq ko`tarinki pardalarga mos tushuvchi hayot materialining kuchli ta`siri ostida maydonga keladi. “Navoiy”, “Qutlug` qon”

¹Хасанов И. Бири кам дунё. Сайланма. – Б.: Бухоро нашриёти, 2004. 24-б.

romanlarida shunday holni ko`ramiz. Xayriddin Sultonovda esa aksariyat hollarda kundalik, ko`plar nazaridan chetda qolgan voqea-hodisalar, oddiy, kamtarin, kamsuqum kishilar obrazi tasvir obyekti sifatida jonlanadi. Bu Vasiliy Shushkin kabi adiblar rivojlantirgan an`analarning o`zbek nosirlari ijodida davom etganligidan dalolat beradi. Xayriddin Sultonov kundalik voqea-hodisalar, holatlar zamiridagi goh o`ychan, goh ma'yus, goh g'amgin, goh quvnoq lirikani topib o`quvchini uning bag`riga olib kira oldi.

Xayriddin Sultonov o`zini qiziqtirgan mavzuga, u xoh tarixiy, xoh zamonaviy bo`lsin muayyan ehtiyoj asosida yondashadi va u haqida iliq, sof bir muhabbat bilan, butun yurak haroratini berib yozadi. "Hayot ertagi" hikoyasidan olingan quyidagi personaj nutqini o`qir ekansiz, muallif izohisiz ham bu nutqning kimga tegishli ekanligini, uning kasbi, yoshi, madaniy darajasi, boshqa personajlarga nisbatan tutgan o`rnini aniq his etib turasiz: "Endi-chi bolalar, ilonlarni ko`ramiz! Jim! Shovqinlamanglar! Qani, Dilfuza, buyoqqa kel-chi? Chaqqon-chaqqon! Sevar qani? Bolalar! Ilonlar cho`llarda, sahrolarda, suvsiz joylarda asosan sudralib yashaydiganlardan hisoblanadi. Tohir qafasga yaqinlashma! Qayt! Hoy, kimga aytyapman?"

Xayriddin Sultonovda Vatanparvarlik tuyg`usi sezilib turadi. Unda har qanday voqea-hodisa, obrazni tarixiy aspektda ko`rish, yoritish mayli kuchli. Uning tarixiy mavzudagi asarlari ham sujet asosida yotuvchi voqealarning hayotiyligi, tilining ravonligi va samimiyligi bilan e`tiborni tortadi. Adib asarlarida qahramonlar tarixiy fakt quliga aylanib qolmaydilar.

Asad Dilmurodov o`zi tug`ilib o`sgan Urgut tog`larining so`lim tabiati, ko`hna Samarqandning afsonaviy obidalari, bu ma`muriy vohaning mehnatsevar tanti odamlari to`g`risida yozishni yoqtiradi. Uning asarlari kamalaksifat bezaklardan, feruza gumbazlardan rang olganga o`xshaydi: "Peshtoq umrovidan o`sib chiqqan ikki gumbaz va ikki minora havoda muallaq qotgan. Minoralarining qo`ziqorin sellasini eslatuvchi guldastalari kamalakday yonadi. Peshtoq sahnalari ham kohinlar tili bilan so`zlaydi. Katta ravoqning islamiy gullari, morpech burama bezaklari sokin nurlanadi".

Adibning voqea-hodisani ijtimoiy-tarixiy jarayonda ko`rishga intilishi, insonni rangin tabiatning bir bo`lagi sifatida tasavvur etishi uning asarlari poetikasida sezilarli iz qoldirmoqda. Adib ko`pincha qahramonlar ruhiy olamidagi o`zgarishlarga muvofiq keluvchi hodisa yoki tarixiy obida tasviridan fon sifatida foydalanadi. “Sirli zina” qissasida Shohizindaning g`aroyib qirq zinasi, “Sherdor” hikoyasida go`zal yodgorlik peshtoqidagi “ikki adad sher, ikki adad kiyik” tasviri qahramonlarni tarix zanjirining zarur bir xalqasi sifatida his etishga, ijtimoiy-tarixiy sharoitni, obrazlar qalbidagi nozik tebranishlar muallif maqsadi va niyatini tushunishga yordam beradi. Adib bu ikki tasvirni illyustirativ tarzda taqdim etmaydi, balki xarakterlar mantig`ini voqealar rivojidan tabiiy ravishta o`stirib chiqaradi. Sher, ohular tasviri “Sherdor”ga qahramonlar nisbatan sokin faoliyat doirasida bo`lganlarida olib kiriladi va voqealarning keyingi riivoji “start chizig`i” vazifasini o`taydi. To`qnashuvlar keskinlasha borgan sari bu tasvir ham, yangi-yangi g`oyalar bilan boyiydi. Mana, Muhammad Avazning ne-ne umidlar bilan yo`llagan sovchilari quvildi, o`zi Yalanto`shbiy Bahodirga qarshi fitna uyushtirishda ayblandi, suyangan do`stlari hibsga olindi. Muhammadning bu voqealardan keyingi ruhiy kechinmalarini, voqealikka munosabatini aks ettirishda yana o`sha tasvir qo`l keladi: “Ganj naqshlar, zarrin ham koshinkoriy bezaklar. Ganjxok qotgan qo`llarini tomoshabin ko`zlar ta`qib etadi. Bu ko`zlar panoh va najot istaydi, qorachiqlarda hadik yashiringan... Yo falak! Malika falakka o`z ko`zlarini chizgon ekan-da!”

Shu o`rinda este`dodli avlod vakili Erkin A`zam nasri adabiy jarayonda o`ziga xos hodisa sifatida ko`zga tashlanadi. Bu prozani bir so`z bilan aytganda “isyon” deb atash mumkin. Ha, bu – asarga mavzu tanlash asar sujeti, kompozitsion qurilishida ko`zga tashlanadigan isyon; bu – ko`z o`ngimizdagi ba`zi kimsalar xarakterida xudbinlik, badbinlik, mansabparastlik kabi g`ayri insoniy xislatlarga qarshi, bu xislarlar urchituvchi xonakilik va qabihlikka isyon; bu – o`z-o`zimizdagi loqaydlik, beparvolik, ma`naviy va ruhiy g`ariblikka qarshi isyon; bu – insonni komillikka, o`zaro mehr-muhabbat va shavqatga chorlovchi isyon! Erkin A`zam dunyoni har xil qora ishlardan xoli, odamlarni har qanday mayda ikir-

chikirlardan yuqoriroq ko`rmoq istaydi, shunga intiladi. Bu yo`ldagi har qanday aks ta'sir uning qalbini junbushga keltiradi. Erkin A'zam uslubining o'ziga xosligini birinchi shaxs tilidan berilgan bayondagi bafurjalik, analitik tasvir, psixologik tahlil belgilaydi. Bunday bayon tasvir obyektini o`quvchiga yaqinlashtiradi, ikki o`rtada samimiy bir vaziyat vujudga keltiradi. Adib dastlab ahamiyatsiz ko`ringan detal-tafsilot, detal-predmet hamda detal-xarakteristikalarini qalashtirib tashlaydi: "Anoyining jaydari olmasi" hikoyasidagi detallarni ko`z oldingizga keltirib ko`ring: bir yog`i qirmizi, bir yog`i xol-xol, bandining tubi qizil qumga to`lgan olmalar; dunyodagi hech bir tilga to`gri kelmaydigan "Chantrimore", "Kalamakatore" so`zlari, qorniga "Banaul" yozig`liq pachoq chamadon, "unga hamma yoq o`ziniki, ko`rgan odami amnavachchasidek sinashta" ekanligi; bezori Tosh; anoyining yoqimsiz tovushda hirgoyi qiladigan ashulasi... Hikoyada bu detallarning birortasi ham ortiqcha yuk bo`lib qolmaydi, tabiiyligini, sharoit tipikligini vujudga keltirish uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, voqealarning keying rivoji uchun poydevor bo`lib qoladi, yoki o`rni-o`rni bilan chaqmoqdek bir-ikki chaqnaib, qahramonlar xarakterining ochilmagan qirralarini, ularni o`rab olgan muhitni yoritib yuboradi. Ramazonning keying xatti-harakatlarini anglash uchun "chamadon", "olma" hamda detal-xarakteristika qanchalik muhim. Bir paytlar shunchaki ermak uchun aytilga "Xush qolendi, Zuhraxonim, Ayro tushsa bu jon sendan..." misralarining Ramazon qamalgandan so`ng eslanishi-chi? Boyagina ahamiyatsizday tuyulgan detal birdan "jonlanadi", qahramon holatini tushunishga yordam beradi, uning ortidan mung, ichki bir xo`rsinish bilan termilib qolishga undaydi.

"O`zim ko`rgan, o`zim bilgan narsalarni yozishga harakat qilaman", adib uslubining o'ziga xosligini ta'minlovchi eng muhim omil, dastlabki asarlari muvaffaqiyatining siri uning bu e'tirofida lo`ndagina bayon etilgan.

"Erkin A'zamning voqealikka faol munosabati xolis, ortiqcha kuchanishlarsiz boshlangan tasvir oxirlagan sayin bo`y ko`rsata borib, asar so`ngida kuchli publisistik hayqiriq yoki samimiy qalbning hayajonli so`rog`i tarzida maydonga chiqadi: "Kecha kechasi birovning yo`talishidan uyg`onib

ketdim. Qattiq yoʻtalardi, beton devorga qoziq qoqqandek boʻgʻiq yoʻtal. “Qizimmi?” uyqum qochdi. Xotinimni uygʻotib, “Turib qarasang-chi!” – dedim. “E, qoʻshning bolasi-ku!” – dedi. Oʻsha zahoti xotirjamgina uyquga ketibman.

Nega bunday Ramazon!”²

“Qor bosgan davon” hikoyasida voqea eng mayda tafsilotlargacha erinmay keltiriladi. Unchalik murakkab ham boʻlmagan, qahramonning oʻz eʼtirofiga koʻra, kundalik mayda-chuydalar ostiga koʻmilib, xotiradan koʻtarilib ketishi mumkin boʻlgan voqea: Yangi yilni uyda kutib olish ilinjida yoʻlga chiqqan, duch kelgan birinchi yuk mashinasiga ilashib, “mashinaning haqiqiy xoʻjayini” Safarovdan minnaddor boʻlib ketayotgan, yupun kiyimdagi student. Izgʻirin, sovuq... Yoʻlda boʻron chatoq degan choʻpon ularni mashinadan tushirib qoladi. Bor gap shu. Faqat hikoya oxiridagi ritorik murojat ana shu oddiygina “gap”ga oʻzgacha bir mazmun yuklaydi: “...Shunda beixtiyor oliyjanob Safarov esimga tushadi. Boʻron chatoqni esa negadir eslamayman. Sizlar eslaysizlarmi uni? Kimedi u? Qanaqa odam edi? Nega u bizni yoʻldan olib qolgan edi, Malik bilasanmi?” Sen-chi, Nishon lanati Durdara yoʻlidagi himoyasiz hamrohim?..” Endi voqeadanham koʻra uning asl mohiyati oʻquvchi oʻyini, qalbini, vujudini qamrab oladi.

XX asrning 70-80-yillarida oʻzbek adabiyotida oʻziga xos tasvir, gʻoyaviy-badiiy usullarga ega ijodkorlarning yoʻlchi yulduz misoli porlab chiqishi adabiyotimizning kelajagi Vatanimiz kelajagi kabi buyuk ekanligini koʻrsatib berdi. Ularning ijodini kuzatish orqali nasrimiz chuqur, keng qamrovli uslubiy izlanishlar faslini boshidan kechirganligining guvohi boʻlamiz. Ularning muayyan mavzudagi asarlarini yonma-yon qoʻyib, qiyosiy aspektda oʻrganish orqali bunga qatʼiyroq ishonch hosil qilish mumkin. Murod Muhammad Doʻstning “Dasht-u dalalarda”, Erkin Aʼzamning “Turmush”, Xayriddin Sultonovning “Bir yigitning baxti”, Asad Dilmurodovning “Mergan” hikoyalari deyarli bir vaqtda yaratiladi. Insonning oilaviy baxti, uning manbalari va masʼuliyati – toʻrtala hikoya ham oilaviy – maishiy hayotning ana shu muammolaridan bahs ochadi.

²Хасанов И. Бири кам дунё. Сайланма. – Б.: Бухоро нашриёти, 2004. 26-б.

Qahramonlar egallagan o`rni, sujet liniyasi, asar arxitektonikasi jihatidan ham ular bir-biriga yaqin. To`rtala hikoya ham voqealikni haqqoniy aks ettirgan. Qahramonlarning ma`naviy qiyofasi, ularni o`zaro o`rab turgan muhit tarixan aniq, ularning barchasida hissiyotga boy, faylasufnamo zamondoshlarimiz harakat qilishadi. Voqealar taraqqiyotda, o`sish, o`zgarishda. Ichki ham tashqi jihatdan ana shunday mushtarak xususiyatlarga ega bo`lishga qaramay, bu hikoyalar also bir-birining takrori emas, o`quvchilar ularning har birini ma`lum g`oyaviy-estetik ahamiyatga molik betakror asar sifatida qabul qiladi, ma`naviy zavq oladi. Chunki to`rtala adib tasvir uchun yagona obyektни tanlagan bo`lsalar-da, uni o`z ko`zlari bilan ko`radilar, o`z qalblari bilan qabul qiladilar, o`z tillari bilan hikoya etadilar. Murod Muhammad Do`st uslubidagi “qatlamdorlik”, xalqona fikrlash va tabiiy tasvirlash tarzi, Erkin A`zamning “Qaytmasvoy” laqabini olgan qiziqqon, sarkash qahramoni-yu, psixologik tahlilga urg`u berishi, Xayriddin Sultonovning tasvir rakursini tez-tez o`zgartirib, personajni sertashvish hayot bag`rida, shu hayotning e`tiborga loyiq bir zarrasi sifatida mayin lirik ohanglarga yo`g`irib ko`rsatishi, Asad Dilmurodovning qahramon ruhiy istiroblarini turli –tuman vositalar, bu o`rinda tabiat hodisasini berish orqali bo`rttirish hikoyalarga o`ziga xoslik baxsh etgan.

Bu adiblar uslubiy izlanishlarida real voqealikni tasvirlash yetakchi mavqeni egallab kelmoqda. Albatta, bu quvonchli hodisa, zero, adabiyot rivojlanishi ana shunday adiblar ijodi bilan belgilanadi. Ular yaratgan asarlar o`zbek adabiyotida yangi uslubiy yo`nalishlar paydo bo`lganligini ko`ratib berdi.

Bu yo`nalishning eng muhim xususiyati shundaki, unda aytilmoqchi bo`lgan fikr, g`oya hamisha asarda batafsil, haqqoniy tasvirlangan hayot bo`lagiga qaraganda kengroq, murakkabroq bo`ladi. Bunday asarlarni shosha-pisha o`qib chiqishning o`zigina yetarli emas, o`quvchining faol munosabati, o`z hayotiy tajribasiga ko`ra nimanidir qo`shib, nimanidir faraz qilishi, muayyan xulosalarni o`zi chiqarib olishi ham talab qilinadi.

Biroq bu uslubiy yo`nalish bilan bog`liq ba`zi muammolar ham maydonga chiqib kelmoqda. Nazarimizda, realistik ulubiy yo`nalishda qalam tebratayotgan bu

adiblar ijodida izchillik, yovsizlik yetishmaganga o`xshaydi. Ba`zan esa ular voqealikni o`z holicha, ortiqcha bo`yoqlarsiz tasvirlayman deb, badiiylikdan yiroq, hayotning rangsiz, jonsiz nusxasidek taassurot qoldiruvchi, ortiqcha tavsilotlar bilan semirtirilgan asarlar yaratib qo`ygandek tuyuladi. To`g`ri, hayotning istalgan qirrasini, istalgan vaziyatini badiiy asarga kiritilishi mumkin. Ammo tevarak-atrofdan olingan son-sanoqsiz xabarotlarni to`xtovsiz, loqayd qayd etaverib, ularni “badiiy asar” tamg`asi ostida taqdim etib bo`lmaydi-ku, axir!

Shu kabi qator istilohlar adiblar prozasidagi romantik ruh, romantik yo`nalish haqida jiddiyroq o`ylab ko`rishga undaydi. To`g`ri, ular prozasi bu jihatdan ham g`arib emas. Qolaversa, realistik yo`nalishdagi ko`pgina asarlarning bosh qahramonlari ham jo`shqin romantik qalbli kurashchan yoshlardir. Shunga qaramay voqealikning romantikaga to`la jihatlarini yoritishda ba`zan mahorat, dadillik yetishmayotganga o`xshaydi. Ba`zan bu ijodkorlar hisobida barcha imkoniyatlar – hayotning ko`tarinki pardalariga mos tushuvchi jihatlari, romantik kayfiyat, sharoit, qahramon mavjud bo`ladi-yu, ana shularni o`zaro munosabatga kiritishda yoki romantik mazmunni real asosda o`stirib chiqarishda, ular o`rtasidagi hayotiy aloqani ta`minlashda muallif muvozanatni, me`yorni saqlay olmay qoladi. Natijada realistik yo`nalishda duristgina mashqlar qilib yurgan ijodkor buyo`nalishga murojat qilishi bilanoq muvaffaqqiyatsizlikka uchraydi-yu, butun aybni yo`nalishning tabiatiga to`nkaydi.

Mana, Abbos Saidovning “Oq kabutar qo`shig`i”da ko`zlari yonuvchan, o`tkir”, qalbi romantik orzu intilishlariga to`la Ibrohim odamlarini halokatdan qutqarish yo`lida o`z jonini o`lim xavfi ostida qoldiradi: Halokatga uchragan samolyotdan yo`lovchilarni tushuradi-yu, o`zi yong`in ichida qoladi. Mazmun o`ziga mos ifoda tarzini – romantik tasvirni talab etmoqda. Adib buni yaxshi tushunadi va shunday yo`l tutadi ham. Biroq natija muallif kutgan darajada emas. O`quvchi qahramonlarga, ularning xatti-harakatlariga ishonchsizlik bilan qaraydi. Nega? Gap shundaki, bu o`rinda o`zaro romantik ruhni tashishi kerak bo`lgan detallar (kaptarlar, kaftlarida yer sharini ko`targan bolakay rasmi), butun-butun kartinalar, Ibrohimning kaptarlar o`yinini tomosha qilishdagi tabiiylikdan,

hayotiylikdan mahrum: “U gohida meni ham esidan chiqarib, xayollar dunyosiga g`arq bo`lardi. Kaptarlar haqida qo`shiq aytardi”, “Qani endi kaptar bo`lib qolsak ikkimiz”, - kabi quruq ta`kid, asossiz orzu-niyatlar asarga zo`rma-zo`rakilik bilan tiqishtirilgan, effektga sun`iy tarzda erishishga harakat qilingani romantik ruhni majruh, g`arib holga tushurib qo`ygan.

80-yillar prozasida kompozitsion qurilishdagi izlanishlar ham o`ziga xos tarzda ko`zga tashlanadi. Tasvirda psixologik tahlilning kuchayishi, ichki monologga, xotira epizodlarga, lirik, falsafiy, mifologik ko`rinishlarga keng o`rin ajratish kompozitsion o`zgarishlar manbai bo`lib qolmoqda. Adiblarning bu boradagi dadil izlanishlarida mozaika san`atining go`zal tasvir usullarini ko`rish mumkin. Geografik jihatdan, vaqt tushunchasi nuqtai-nazaridan bir-biridan yiroq, yuzaki, qaraganda o`zaro aloqasi borligi ham bilinmaydigan voqealar muallifning g`oyaviy-estetik maqsadi, anglangan konsepsiyasi, qahramonlarning chuqur ruhiy kechinmalari, biografiyalarining ma`lum bir davri fonida ola-quroq voqealar tiniq bir tasvir holiga kelib, qahramonlar qiyofasi ravshanlashadi. Sujet bo`laklarini, joylashtirishdagi an`anaviy andoza va sxemalardan keskin farq qiluvchi murakkab kompozitsiyali asarlar ular prozasida ko`proq uchraydi. Bu hol ularning kompozitsiya va sujet yaratish uslubining kelajagi porloq ekanligidan dalolat berardi.

Xuddi shu nuqtai nazar bilan Erkin A`zam ijodini kuzatar ekanmiz sujet va kompozitsiya qurilishini qahramon xarakteri va ruhiy holatidan kelib chiqib, asarlari g`oyasi va mazmuniy tomonlarini inobatga olib ishlab chiqqanligiga guvoh bo`lamiz. XX asrning 80-90-yillarida yaratilgan asarlari o`zining ana shunday xarakteri bilan ajralib turadi. Adib asarlarida haqiqatni tap tortmasdan, yuzing-ko`zing demay aytish holatlari ko`zga yaqqol tashlanadi. Shu bilan birgalikda sodda, jo`n yozilganday tuyulgan asar bir qarasangiz murakkab tasvirlar bilan ziynatlanganjavohirdek namoyon bo`ladi. Yana shunisi ajablanarliki, yozuvchining ko`plab asarlarida sujet unsurlarini topolmay qolasiz. Kulminatsiya qayerda-yu, konflikt qayerda degan savollar kitobxonni o`ylantirib qo`yadi. Bularni biz qahramonlar ruhiy holatida kuzatamiz. Bunday o`ziga xosliklar o`zbek adabiyoti

maydonida Erkin A`zam qalami bilan yangi badiiy uslub yaratilganligidan guvohlik beradi. Biz uni bugun Erkin A`zam uslubi (yo`li, yo`nalishi) deb atamoqdamiz.

Bu ijodkor romantik ruhni realistik tasvirga singdirib yuborgan. Ba`zi asarlarida romantik kayfiyatdagi qahramonlar realistik tasvir soyasida qolib ketadi. “Pakananing oshiq ko`ngli” qissasi bosh qahramoni Pakana o`zi pakana bo`lsa ham romantik kayfiyatga moyil obraz, sevilib, sevib yashashni orzu qiladi. Go`zallarning o`zidan ham chandon latofatliroq, ishvakor sur`atlarini chizishning ustasi, rassom. Bu san`atiga ko`pchilik qoyil qoladi, hatto dilbarlarning o`zlari ham. Rassom inson, albatta, romantik bo`lmasdan iloji yo`q. Romantik bo`lmay turib rassom bo`lish qiyin. Ammo atrof-chetdagi insonlarning gap-so`zlari, e`tiborsizligi, o`zing tashqi ko`rinishidan noroziligi uni tajang, maydakash insonga aylantirib qo`yadi. Aslida Pakananing ichida yaxshi va yomon Pakana joylashib olgan. Biri romantik inson, mehribon ota, jafokash oila boshlig`i, muruvvatli turmush o`rtoq, baxtli inson (buni faqat o`zi his qilmaydi). Ikkinchisi o`ziga munosib baho bermasdan, o`zini ko`p narsaga noloyiq hisoblab sevgan insonidan ayriladi. Boshqa qiz-juvonlardan kamsitilgan his qilib, bo`y va mo`y o`stirish taraddudida tajang, badfe`l odamga aylanib qolgan baxtsiz inson. Aynan shu konflikt asosida asar sujeti harakatlanadi. Demak, asar g`oyasi o`zi ko`pgina insonlardan baxtli bo`laturib, baxtliligini anglamagan inson hayoti haqida. Qahramonimizning mehnatkash, vafodor, mehribon, ko`rimsizgina bo`lasa-da, farosatli turmush o`rtog`i, aqlli farzandi bor. Oilasi, vatani bor. Bu uning baxti emasmi?

Bu qahramon o`tish davrining odami, shuning uchun uning ruhiyatida ham turli xil o`zgarishlar sodir bo`lmoqda, qarama- qarshiliklar yuzaga kelmoqda. Qissa 1991-yilda yozilgan bo`lib, Vatanimiz mustaqilligining ilk kunlariga to`g`ri keladi. Bu davrda odamlar ruhiyatida bo`shliqlar mavjud edi. Ana shunday xalqimizning vakillaridan biri Pakana hisoblanadi. U ham baxtli yurtning baxli fuqorosi bo`lishga haqli. Oxir-oqibat u o`zing haqiqiy baxti oilasi ekanligini tushunib

yetadi. Atrofidagi go`zallar o`tkinchi dunyoning hoy-u havaslari ekanliklarini anglaydi.

Adibning “Ta’ziya” hikoyasi ham istiqlolimizning ilk kunlaridan kitobxonlar e’tiboriga havola qilindi. Bu hikoyaning nomi dastlab “Do`ppi” bo`ladi. Hikoyani muallif Muhammad Yusufga bag`ishlamoqchi edi. Asarning sarlavhasi “Ta’ziya”ga o`zgargach, bu nom shoir nomi bilan yonma-yon turishi xunikroq tuyilib, muallif fikridan qaytadi. Ammo 2001-yilda nashr qilingan “Pakananing oshiq ko`ngli” deb nomlangan qissa va hikoyalar to`plamidan o`rin olgan ushbu hikoyani Muhammad Yusuf xotirasiga bag`ishlaganligini ta’kidlab o`tadi. Chunki bu paytda xalqimizning buyuk shoiri oramizda yo`q edi.

Hikoyada shahardan qishlog`iga borgan qahramonimiz (muallifning o`zi) otasi bilan qishlog`idagi ta’ziya bo`lgan xonadonlarga duoi fotixa qilish maqsadida yo`lga chiqadi. Otasi eng uzoq joy Safarovdan boshlaymiz deb aytadi va yo`l-yo`lakay Safarov ya’ni bir paytlar Salim Qaror nomi bilan tanilgan kishini eslashadi. U markist, sho`ro hukumatining sodiq xizmatkori, tumandagii dafn marosimlarini o`tkazishga tish-tirnog`i bilan qarshilik ko`rsatgan obraz. Qahramonimiz o`qishdan o`zi yashayotgan tumanga amaliyotga kelganida shu markistning qo`lida ishlaydi. Ana shu kunlarni ota –bola yo`l-yo`lakay eslashadi:

“...Tuman markazidan o`tib olmozorga qayrilayotganimizda otam gapirib qoldilar:

– “Shoirimiz bizni boplab bir qo`lga tushurgan-da” deb yurardi rahmatli. Nimaligini aytmasdi.

O`sha voqeani g`ira-shira xotirlab so`rayman:

– Ota, enasini jonzasiz ko`mdirgan u, dedingiz boya. Shu odam nomoz-pomoz o`qirdimi o`zi?

– O`qigan bo`lsa o`qigandir, birov ko`rgan emas. Dafn-marakalarga qatnashardi-yu, janoza payti chetga chiqib turardi. Nima bo`lgan edi o`shanda?

–E, esda yo`q...

Esda bor. Salim Qaror kechki navbatchilikka qolganida qarashib yurgan kunlarim edi. Bosmaxona oxirgi saxifasini tayyorlab bergunicha bir pas hovlini

aylanay deb chiqib, qaytib kelsam – eshik berk. Qattiqroq siltab itargan edim, zanjiri omonat ekanmi, sharaqlab ochilib ketdi. Qarasam... birov yerga muk tushib yotibdi. Ustozim, Salim Qaror! Sharpani sezib, u apil-tapil yerdan nimanidir yig'ishtirib olib, stoli tagiga urib yubordi. Joynomozmi? Keyin belini ushlaganicha inqillab o'rnidan turdi-da, hadaha stol ustida yotgan allanimani kafti bilan bosdi va sath bo'ylab surib yuborib, bilintirmaygina cho'ntagiga solib qo'ydi. Qizil narsa, xujjatga o'xshaydi..."³

Dinni tan olmaydigan o'zbek markistining ahvolini ko'ring: Eshikni berkitib olib nomoz o'qiyapti. Demak, u xudoni tan oladi, undan qo'rqadi. Ammo o'zi ruju qo'ygan sho'ro hukumati xudoni tan olmaydi. Salim Qaror esa arosatda ikkisidan ham kech olmaydi. Biri sut bilan, qon bilan o'tgan e'tiqod bo'lsa, biri zo'rovonlik bilan miyasiga quyilgan sotsiolizm g'oyasi. Ikkisini ham rad qilishdan qo'rqadi. Xudodan ham, sho'ro hukumatidan ham qo'rqadi. Ammo Xudodan qo'rqish ruhiga yengillik, qalbiga osudalik bag'shlasa, ikkinchi qo'rquv dahshatga soladi. Ana shu arosatda yashab o'tgan insonlar xalqimiz orasida juda ko'pchilikni tashkil qilardi. Ana shu fojiani Erkin A'zam bir qancha asarlarida mahorat bilan tasvirlaydi.

Yozuvchining shu davrda yaratilgan asarlariga diqqat bilan e'tibor beradigan bo'lsak, kompozitsiya va sujet qurilishidan tortib, g'oyaviy va mavzu ko'lamigagacha XX asr o'rtalarida yaratilgan badiiy asarlardan tubdan farq qiladigan ijod namunalari paydo bo'ldi. Kompozitsiya va sujet qurilishi an'anaviy tartibdan yiroq. Yechim ochiq qoldirilib, xulosa chiqarish kitobxonning o'ziga qoladi. Sujet elementlarining boshqa shakllari ham asar mazmunidan kelib chiqqan holda joylashtirilgan. Birining sujeti boshqasinikiga o'xshamaydi. Erkin A'zam asarlariga davr, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan mavzularni tanlagan. Chunki bu yozuvchi va kitobxonni bir-biri bilan bog'lovchi asosiy rishta hisoblanadi.

³Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. 200-б.

1.2. Erkin A'zam prozasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari

Badiiy adabiyot buyuk va isbotini topgan tarbiya quroli. Bu quoldanoqilona foydalanish bugungi kunda oldimizda turgan eng muhim vazifalardan biridir. Badiiy adabiyot o'quvchining hissiyoti va shuuriga kuchli ta'sir ko'rsata oladi. Asar qahramonlariga taqlid qilish yoki ulardan nafratlanish hissini uyg'otadi. Hayotni obrazli qilib aks ettirishda san'at asarlari o'rtasida umumiy mushtaraklik bo'lsa-da, adabiyot so'z vositasida obraz yaratganligi sababli san'atning boshqa turlarga nisbatan hayotni va insonni mumkin qadar to'laroq ifodalashga imkon beradi. Shuning uchun ham adabiyot inson ma'naviyatiga, dunyoqarashiga va didiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Badiiy adabiyotda inson orzu-umidlari maqsadlari, o'y-fikrlari, qarashlari, muammolari tasvirlanadi. Adabiyotda sujet va kompozitsiya, tasviriy vositalar, til imkoniyatlaridan foydalanib badiiy obrazlar yaratiladi. Har bir asarning yaratilishida quyidagilar asosiy ro'l o'ynaydi: a) hayot; b) hayotni mushohada va muhokama qilish natijasida yozuvchi ongida tug'ilgan fikr; v) shu fikr (g'oya)ni ifoda etish uchun yozuvchi tomonidan yozilgan asar. Bular yozuvchi tafakkurida pishib yetilib badiiy asarga aylanadi.

Shunday ekan adabiyotimizni sara, inson ko'ngliga yo'l topa oladigan asarlar bilan boyitishimiz lozim. Bunday asarlarni hayotiy tajribaga ega, Alloh tomonidan in'omqilingan iste'dod sohiblari va dunyoqarashi keng, o'z ustida doimo ishlaydigan, izlanadigan adiblarga yarata oladi. Shunday adiblardan biri Erkin A'zamdur. U adabiyotni sevadi, usiz yashay olmaydi. Shu o'rinda adibning quyidagi fikrlarini yodga olamiz: "Adabiyot... o'zim yaxshi ko'rgan, hayotimni bag'ishlamoqqa ahd qilgan soha. Taqdir boshqa bir yo'lga solib yuborganida ham men baribir usiz yashayolmas edim chog'i". Erkin A'zam yaratgan asarlar bugungi kun kitobxonlarining estetik, ma'naviy, g'oyaviy ehtiyojlarini qondirib kelmoqda. Hatto adibning asarlari dunyo tillariga ham tarjima qilindi. Bu bejiz emas, chunki uning asarlari mavzu jihatdan bugungi kunda insonlar orasida yuz berayotgan oddiy muammolarni ham o'zida aks ettira olgan. Yozuvchi asarlaridagi katta-kichik g'oyalar o'quvchini hayot murakkabliklaridan tushkunlikka tushmasdan chiqib ketish mumkinligiga ishontiradi.

Har qanday asar g'oyasini ochib berishda asarga tanlangan mavzu ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli asarning mohiyatini ochishda g'oya bilan mavzu bir-biriga ehtiyoj sezadi. Yozuvchi esa bu ikkisini bir-biri bilan oziqlantirishi zarur. Mavzu badiiy asarda falsafiy, ijtimoiy, axloqiy, madaniy, ma'naviy muammolarni qo'yish hamdayoritishga xizmat qiladigan, shu asarning hayotiy asosini tashkil qiladigan voqea-hodisalar doirasidir. Jadid adabiyoting yetuk siymolaridan biri Abdurauf Fitrat mavzu haqidagi tubandagi fikrlarni bayon qiladi: "Adabiyotning mavzui butun tabiat, borliq dunyosi, insonning o'z ichki va tashqi dunyosida sezib anglaganlaridir. Bir tomchi suvdan dengizgacha, yaproqdan buyuk o'rmonlargacha nima bor bo'lsa hammasi adib – yozg'uvchi uchun mavzu bo'larlik narsalardir"⁴.

Mavzu sujet orqali ochiladi, mavzu sujetni chuqur va konkret ochishga xizmat qiladi. Mavzuning yana bir ahamiyati shundaki, u asar qismlarini yaxlit bir butun holga keltiradi.

Erkin A'zamning "Shoirning to'yi" qissasi mavzusi "Xalq dushmani" sifatida nomiga qora chaplangan Otashqalb shoirning zamon o'zgargach, oqlanib yubileyi o'tkazilishi munosabati bilan uyushtirilgan kechadagi voqealarni qamrab oladi. Bizga ma'lumki, Stalin vafotidan so'ng ko'plab ziyolilarimiz qatori shoir va adiblarimizning ham nomi oqlandi. O'sha tahlikali zamonlarda o'z soyasidan ham qo'rqish odatiy holga aylanib qolgan edi. Odamlar yonida doim o'zi bilan birga yurganlarga ham ishonishmasdi. Bunga haqlari ham bor edi. Qanchadan-qancha shoirlarimiz-u adiblarimiz hamkasblari, birodarlari "xizmati" evaziga bekordan-bekorga juvonmarg bo'lib ketishdi. Bu bor haqiqat. Zamon o'zgarib, oltin zanglamas deganlaridek, ularning nomlari oqlangach, o'zlarini otashqalblarning yubileylari-yu tadbirlarida eng yaqin insonlaridek tutishlari ham, ularning nomiga bisotlaridagi eng yaxshi so'zlarni yog'dirishlari ham ayni haqiqat. Adib ana shunday haqiqatni badiiy haqiqatga aylantirdi, xolos.

Otashqalb shoirning yubileyida taklifsiz so'zga chiqqan adolatgo'y yosh shoir shunday deydi: "...urush yillari Otashqalb asirlik surgunidan ozod qilib, lozim bo'lsa, jangga yuborishini so'rab, Stalinga ariza yozadi. "Mazkur ish boshqatdan ko'rib chiqilsin!" degan farmoyish... yozuvchilar tashkilotiga kelib tushadi. O'sha so'rovnoma tashkilot rahbari nima deb javob qilgan, eshitganmisizlar? "Otashqalbni surgundan qaytarish mumkin emas. U qaytarilsa,

⁴www.kh-davron.uz

uni ayblagan kishilarni jazolash lozim bo'ladi. Buning esa ma'lum sabablarga ko'ra iloji yo'q". Xo'sh uni ayblagan kishilar kim edi? "Ma'lum sabablar" degani nima? O'sha yillar kim tashkilotning rahbari edi? Mana shu bir to'p savollarga siz javob bersangiz, hurmatli Oqsoqol!"⁵ Aslida bu gap-so'zlarning boshida tadbir boshlovchisi, Otashqalb shoirning do'sti Oqoqol turgan. Bu savollarga javob berishga esa ojizlik qiladi.

Bu asar mustaqilligimizning dastlabki yillarida yozilgan bo'lib, xalqimizga tuproqqa qorishib yotgan haqiqatni ochib berdi. Bu mavzu haqida so'z yuritish mustaqilligimizdan oldingi davrlarda juda xatarli edi. Shu haqda Erkin A'zam quyidagi fikrlarni aytadi: "Bu asarning qo'lyozmasini o'qigan ehtiyotkorroq bir do'stim "O'zini bilgan-bilmagan birortasi g'alva qo'zg'ab yurmasmikan?" degandek ishtiboh bildirgan edi. Shu gap sababmi, qo'lyozmani talay yil tashlab qo'ydim... Albatta, asardagi voqealar osmondan olib yozilmagan, ul-bul turtki bo'lgan. Albatta, o'sha davr adabiyotiga xos janggariroq bir ruh bor unda. Lekin badiiy asar kimnidir ranjitish yoki fosh etish maqsadida yozilmasligi ma'lum. Shunday deb o'ylagan odam esa – yo adabiyotdan yiroq, yo... o'zidan ko'rsin. Qolaversa, yaqinda bu qo'lyozma bilan tanishgan yana bir do'stimning gapi menga nash'a qildi ham dalda bo'ldi. "Nega shu choqqacha chiqarmay yuribsiz? – dedi u. – Badiiy asar-ku bu!"

Asar o'z vaqtida kitobxonga havola qilindi va o'z vazifasini bugungacha bajarib kelmoqda, bundan keyin ham bajarishda davom etadi. Bu qissa mavzu jihatidan aytilishi kerak bo'lgan sovet hukumatining jirkanch kirdikorlarini hayot haqiqati asosida qamrab olgan bo'lsa, g'oyaviy tomondan odam bolasi aql-shuurini ishlatib, vijdoniga quloq solib ish qilish kerakligi uqtiriladi. Birovga qaram bo'lib, o'z haq-huquqini bilmaslik, tanasiga o'ylab ko'rmasdan "buyuk og'a"sining aytganini qilaverish, o'ziningni o'ldir desa, undan ham tap tortmaslik kabi fojiali holatlarga tushub qolgan xalqimizning qiyofasini ochib beradi. "O'zingni o'ldir" deganda aynan o'zini o'ldirmasa-da, do'stini, aka-ukasini, yor-birodarlarini ham tuhmat bilan qamatib yuborgan vatandoshlarimiz kammidi? Bu insonning o'zini o'zi o'ldirish bilan barobar emasmi? Qissa g'oyaviy jihatdan o'zligimizni anglashga yo'lchiroq vazifasini o'taydi. Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimovning "Kecha kim edik, bugun kim bo'ldik" kabi xitoblariga hamohang tarzda sergaklantiruvchi qo'ng'iroq yanglig' jaranglaydi.

⁵Аъзам Э. Пақананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. 96-б.

XX asr so`ngi choragida o`zbek nasri taraqqiyoti silliq kechdi, deb bo`lmaydi. Bu davrga kelib o`zbek nasridagi g`oyaviy-badiiy izlanishlar, milliy adabiyotning o`ziga xosligi, ayniqsa, qissalarda o`zining aksini topa boshladi. Bu o`rinda Erkin A`zamning kinoqissalari ham alohida ahamiyatga ega. “Zabarjad”, “Suv yoqalab”, “Chantrimore”, “Piyoda”, “Pakana”, “Dilxiroj”, “Erkak” kabi kinoqissalari o`zining g`oyaviy-badiiy xususiyati bilan o`zbek adabiyotida yangi hodisa sifatida tilga olinib boshlandi. Bundan tashqari “Chiroqlar o`chmagan kecha”, “Javob”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Otoyining tug`ilgan yili”, “Pakananing oshiq ko`ngli”, “Guli guli” kabi ko`plab qissalari o`zbek qissachiligida yangi qirra hosil qildi. Shu o`rinda adibning o`nlab hikoyalari o`zbek hikoyachiligi rivojiga o`z hissasini qo`shib kelmoqda. Bir qancha adabiyotshunoslar tomonidan Erkin A`zam nega shu paytgacha roman yozmagan qabilidagi savollar mavjud edi. Bu savolga adib o`zining “Shovqin” romani bilan javob berdi deyish mumkin. Ushbu asarlarning mavzu ko`lami ham g`oyaviy-badiiy xususiyati inson ruhiyatini tozalaydi, undagi og`riqli nuqtalarga malham bo`ladi. Qahramonlar psixologiyasi ham murakkab. Ularni tushunish uchun atrof-chetimizdagi odamlarga diqqat bilan nazar solishimiz kerak. Chunki Erkin A`zam qahramonlari bugunning odamlari, siz-u bizning do`stimiz, akamiz yoki ukamiz, tanishimiz, tanishimizning tanishi va hakoza.

Fan-texnika yutuqlari, zamon taraqqiyoti natijasida hayot tezlashdi. Buning oqibatida insonlar psixologiyasida ham turli xil salbiy va ijobiy o`zgarishlar sodir bo`lmoqda. Aslida inson ruhiyatini tushunish juda qiyin masala. Hattoki inson o`z ruhiy holatini ham ba`zan tushunolmay qoladi va juda ko`plab savollar tug`iladi. Bu savollarga javobni Erkin A`zam asarlaridan topish mumkin.

“Shu o`rinda, turli janrlarning bir xil bo`lmagan psixologik o`tkazuvchanlik xususiyatiga egaligiga to`xtalish lozim. Zotan, psixologizm qissada romandagi kabi keng ko`lam kasb etmasa-da, janr imkoniyatlari doirasida o`ziga xos tarzda bo`y ko`rsatadi. Holbuki, inson ichki dunyosini tasvirlash, - psixologizm – bu obrazni qurish, tasvirlash, u yoki bu hayotiy xarakterni tushunib yetish va baholash usuli ekan, qissa janri ham shunday tahlil uchun munosib maydon bo`la oladi”⁶.

Psixologizm, ijod mahsuli qaysi janrda yozilganidan qat`iy nazar, badiiy asar strukturasida ham, uning g`oyaviy-obrazli mazmundorligida ham o`zini namoyon qilish orqali matnni badiiy jihatdan uyushtirishning barcha qatlamlari ich – ichiga

⁶Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадий психологизм. Фил. фанлари номзоди дисс. – Т.: Bayoz, 2014. 60-б.

singib ketadi. Bu esa, psixologizm – badiiy asar poetikasining konstruktiv komponenti ekanligidan dalolat beradi.

Istiqlol arafsida yozilgan qator asarlarda inson kechinmalari va o'y-fikrlari o'ziga xos "quyqa" (Boboxonov M. 61-bet) sifatida bo'y ko'rsatdi. Bu asarlar zamonaviy milliy realistik nasrimizning yetakchi epik asarlari sifatida namoyon bo'ldi. 80-90-yillarning eng yaxshi asarlarida hayotiy hodisalar qamrovi kengaydi, konfliktning chuqurlashuvi, shaxs muammosiga, uning jamiyat bilan o'zaro munosabatiga qiziqish, ma'naviy-ruhiy tahlilga moyillik kuchaydi. Bu tendensiya o'zbek nasrining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ldi. Bu hodisalarni Tohir Malik, Tog'ay Murod, Murod Muhammad Dos't, Xayriddin Sultonov, Zohir A'lam, Erkin A'zam kabi bir qancha adiblarimiz ijodida kuzatishimiz mumkin.

Bu davr o'zbek yozuvchilarining asarlarini zamonaviy hayotga monand yangi qahramonni topish masalasi birlashtirib turadi. Qahramonning yangi konsepsiyasi faol ravishta o'zligini, o'z mavqeini aniqlab olishga intilayotgan, sho'ro zamonining sarqit va taassublariga qarshi kurasha oladigan ruhan kuchli xarakterni nazarda tutadi. Shuningdek, o'zbek nasri uchun xos bo'lgan umumiy jihat badiiy konfliktning kengayganligi bilan izohlanadi: yozuvchilar diqqat e'tiborini qahramonning faqat ijtimoiy mohiyati emas, balki kundalik hayotda uchraydigan oddiy hodisalar ham jalb eta boshladiki, ular vositasida badiiy asarlarda muhim ijtimoiy, falsafiy, ma'naviy-ruhiy, g'oyaviy muammolar tahlil qilina boshlandi.

Bunday muammolar, albatta, bugungi kun kitobxonining diqqat markazida turadi. Chunki bugungi kun odamlarida bunga ehtiyoj seziladi. Adabiyotning vazifasi esa ana shunday ehtiyojlarni qondirishdir. Mustaqillik arafasida va istiqlolimizning dastlabki yillarida xalqimiz ongida g'oyaviy bo'shliqlar mavjud edi. G'oyaviy bo'shliq esa insonning o'z manerasini anglab yetishga to'sqinlik qiladi. Hammamizga ma'lumki, o'sha yillarda yurtimizga yovuz kuchlar ko'z tikib turgan murakkab sharoitda edik. G'oyaviy jihatdan bo'sh insonlarni shunday kuchlar o'ziga og'dirib olish xafi katta edi. Shunday vaziyatda prezidentimiz tomonidan milliy g'oya, milliy mafkura, milliy ong, o'zlikni anglash kabi tushunchalar ilgari surildi. Bu tushunchalarni xalqimizga yetkazish zamonaviy milliy adabiyotimizning oldidagi dolzarb masala hisoblanardi. Buni adiblarimiz o'zlari yaratgan qahramonlar zimmasiga yukladi. Shu tariqa adabiyotimizda

o`zligini anglagan, komillik sari intilayotgan, milliy g`ururga ega bo`lgan obrazlar paydo bo`ldi.

“Shoirning to`yi” qissasida epizodik obraz bo`lsa-da hammamizning diqqatimizni tortadigan bir qahramon bor. Bu yosh shoir. U xalqimizning eng oldi ijodkorlarining qatog`onga uchrashida, sovuq o`lkalarga surgun qilinishida sho`ro hukumati tomonidan turib o`z safdoshlarini tuxmat va bo`xtonlar bilan ne ko`ylarga solgan insonlar o`zimizning ichimizdan chiqqanligini anglagan holda, shunday insonlarga o`zlari qarshisida haqiqatni ochib tashlaydi. “Bayramdan boshqa” kunlar qissasi qahramoni Bakir milliy urf-odatlarimizning na qadar muqaddas ekanligini ko`rsatib beradi. U ommaviy madaniyat ta`sida yashayotgan oilaga kuyov bo`ladi. Ularning yurish-turishi, o`zlarini tutushi Bakirning g`ashini keltiradi.

Erkin A`zam yaratgan qahramonlarning ko`pchiligi ruhiyatida voqealar rivoji davomida o`zgarishlar sodir bo`ladi. Bu o`zgarishlar qahramonning irodasiga qarab har xil bo`lishi mumkin. Masalan, Bakirning hayotdagi turli xil qiyinchiliklar va o`ziga mos bo`lmagan muhitga tushib qolishi uning hayotga nisbatan keskin xulosalarga kelishiga sabab bo`ladi. Vaziyatdan chiqib ketishga harakat qiladi, ammo ruhan eziladi. Bugungi tezkor zamonda bunday odamlar qiynalib qolishi tabiiy hol. Muallif o`quvchilarni bu holdan to`g`ri xulosa chiqarishga undaydi. Yosh shoir singari intiluvchan, hayot ziddiyatlariga tik boqish kerakligini uqtiradi. Shundagina oldimizga qo`ygan ezgu maqsadlarimizga erisha olamiz.

Buning uchun inson psixologiyasini adabiyotda aks ettirish lozim. “Asosini psixologizm tashkil qiladigan adabiyot – qiyshiq ko`zgular saltanatidir. Ulardagi akslar esa reallikka mengzab ketadi” (Boboxonov M. 62-bet). Ayni paytda Erkin A`zamning inson ichki olamini ifodalashdagi yangicha usullari, asosan, emotsionallik, irratsionallik, xudojo`ylik, andishalilik, neagentivlik kabi o`zbek xarakterining o`ziga xos noyob xususiyatlarini ochishga qaratilganligi bilan muhimdir. Neagentivlik – odamlarning shaxsiy hayoti o`zlarining izmida emasligi, turmush hodisalarini nazorat qilishning cheklanganligi; kishilarning taqdirga ishonuvchanligi (futilizmga moyilligi) yuvosh va itoatkorligi; individning maqsad sari intilishga va hodisalarning “nazoratchisi” bo`lishga intilishdagi bo`shangligidir.

“Pakananing oshiq ko`ngli” qissasida Pakana o`zining pakanaligi omadsizligining sababchisi deb biladi va bu illatdan qutilish maqsadida

qanchadan-qancha muolajalarni qiladi, ammo foydasi bo'lmaydi. U hayot uchun kurashning noto'g'ri yo'lini tanlaydi. Bo'y o'stirishga urinishlari najasida yillarni boy beradi. Bu vaqtda ichida juda ko'p yaxshi ishlarni qilishga ulgurishi mumkin edi. Ammo u bunday qilmadi. Yaxshigina rassom edi. Mashhur rassom bo'lishi, chizgan rasmlari bilan xalqning hurmatiga sazovor bo'lishi mumkin edi. U bo'lsa, hayotning ikir-chikirlariga o'ralashib qoladi va o'tkinchi havaslarni deb ko'plab suluvlarning ortidan yugurib umrini o'tkazadi. Aslida Pakanani jondan ortiq yaxshi ko'radigan turmush o'rtog'i, qizi Hilola bor. Ular bir butun oila. Xullas, Pakana o'z hayotini nazorat qilolmay yashayotgan insonlar obrazi.

Keyingi yillarda o'zbek adabiyotining taraqqiyotida, ayniqsa, unda kinoqisa janrining yuksalishida Erkin A'zamning xizmati katta bo'ldi. Uning "kinoqissalarida ranglar garmoniyasi, tovushlar simfoniyasi, detallarning tiniq va seroblighi, hayotdagi yangi qirralar yaqqol ko'zga tashlanadi. Odamlar ruhidagi o'zgarishlar aniq seziladi. Yangi zamonga xos savdo-sotiq, tadbirkorlik, ishbilarmonlik, maqsad sari intilishni ko'rish mumkin"⁷.

Erkin A'zam "Piyoda" hikoyasini shu nomdagi kinoqissaga, "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasini "Pakana" kinoqissasiga aylantirdi. Bu, albatta, yozuvchidan yangilikni talab qiladi. Kinoqissada Pakana Shamshodbek nomini olgan. Asarga yana bir pakana Dadilbek kiritilgan. Birining bo'yi 151sm, ikkinchisidiki 149 sm. Dadilbek pakanalikni xudo tomonidan berilgan bir ne'mat deb biladi. Bu obraz asarni kinokomediyaqa aylantirib yubora yozgan. Dadilbek zamonaviy obraz. Yangi davr odami.

"Suv yoqalab" kinoqissasida ham zamon o'zgarishlari tasvirlangan ersa-da, eski davr odami Bolta Mardon ana shu o'zgarishlar silsilasida tasvirlanadi. Bolta Mardon ancha vaqt elning boshi bo'lgan, hamma uning hurmatini joyiga qo'ygan. Qariganida ham uni odamlar hurmat qilishadi-yu, ammo orqasidan endi bu odamning davri o'tti-da, deb qo'yishadi. Bu bilan asrda dunyoning o'tkinchiligi, hech kim unga ustun bo'lolmasligi o'z isbotini topgan. Shu bilan bir qatorda muallif o'z qahramonini o'tgan umrini sarhiob qilishga undaydi. Buning uchun asarga tush tasviri kiritiladi. Tushuda otasini va katta tut daraxtini ko'radi. Bu tut asardaramziy detal vazifasini bajargan. Asarning oxirida Bolta Mardon yoshligida yaxshi ko'rgan insonining hovlisida o'sha tutni ko'rib qoladi. Demak, tut uning armoni ramzi. Hayotda shunday insonlar borki, bizga ular hech qachon zavol

⁷Расулов А. Эркин Аъзам ижодига назар. Шарқ юлдузи, 2010. №5. 6-б.

topmaydigan qoyadek ko`rinadi. Aslida esa ularning ham bu bir kam dunyoda kattami kichik armoni bor. Bunga atrofimizga diqqat bilan qarasak guvoh bo`lamiz. Xuddi shunday Bolta Mardon ham elning nazarida, hattoki yoshlik armoni bo`lgan inson Sharofat nazdida ham u bu dunyoda bekamu ko`st yashagan. Sharofat o`z armoni va hasratlari haqida gapirar ekan o`zi Bolta Mardonga armon bo`lib o`tayotganligini o`yladimikin?

“ – Jonazasiga keldi deb eshitib edim-ku?

– Kelganman, kelganman. Darvozaxonadan qaytib ketib edim.

– Buning ustiga, xudoyim bizni tinoqdan ham qisdi deng. El-ulusga bunday to`y-maraka ham qilolmadik... – Hasratlari eskirib bitganmi, ayol birdan chehrasi yorishib, orzumandlik bilan so`raydi: – Kenjangizni uylantirdingizmi, aka? Boya ko`rib edim, suv yoqalab yurgan ekan. Bir yigit bo`ptiki!..

– Shu bola seniki bo`lardi, Sharofat...

Ayol titragudek bo`lib o`rnidan turadi.

– Gapirmang, aka, gapirmang!

– Tuzinga rozi bo`l, Sharofat. Mana, endi armonim qolmadi.

– Eski savdolarni qo`zg`ab nima qilasiz, aka! Taqdir-u peshona deng. Sizda qanday armon bo`lsin? Sherday-sherday o`g`illaringiz bor, qizingiz bor. O`zingiz shuncha yil elning boshida yurdingiz. Hozir ham birovdan kamchilik joyingiz yo`q...

– To`g`ri aytasan, Sharofat, shunday o`ziga shukr!”⁸

Guvohi bo`lganimizdek, Erkin A`zam qahramonlari tashvishlar-u armonlari bo`lgani holda Bolta Mardonga o`xshab shukr qilishni ham bilishadi. Bu qahramon xarakterida o`zbeklarga xos mardlik, tantilik, quvlik, oriyatlilik, mehribonlik kabi ko`plab insoniy fazilarlar jamlangan. Uning mehribonligiga Bolta Mardonning qizi Zulfiyaning uyiga kelgandagi lavhada guvohi bo`lamiz.

Biz o`zbeklarda “qiz bola otasiga mehribon bo`ladi”, degan gap bor. Suv yoqalab” kinoqissasida otaning ham o`gillaridan ko`ra qiziga mehri bo`lakcha bo`lishini ko`ramiz. Bolta Mardon suv yoqalab yurib qizi Zulfidan xabar olgani uning hovlisiga kiradi (Zulfiyaning eri qamalib ketgan). Otasini ko`rgan qiz yugurib kelib quchoqlab oladi, erkanib yuzlaridan silaydi va dorixonadan dori olgani chiqqanligini aytadi. Bolta Mardon qizidan hol-ahvol so`raganida hech qanday kamchiligim yo`q, deb javob beradi. Aslida dori olishga ham puli

⁸ Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир.– Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007.-86-87-б.

bo'lmaydi. Bu o'zbek ayolining sabr-bardoshli, andishaliligidan bir nishona emasmi? Bolta Mardon qiznikidan chiqib dorixonaga boradi va sotuvchi qizdan puli yetmaganligi uchun Zulfiya o't og'rig'ini qoldiradigan dorini olmay ketganligini eshitadi. Shu doridan to'rt-bestasini qog'ozga o'rab berishini so'raydi va dorini olib qiznikiga qaytib boradi.

“Bolta Mardon Zulfiyaning darvozasi oldida otining jilovidan ushlab turibdi.

– Ha dadajon, tinchlikmi? – deydi hovlidan yugurib chiqqan Zulfiya.

Negadir uning ko'zlari qizargan.

– Yig'lagan ko'rinasan, qizim? Nima bo'ldi?

– Barmog'imni ari chaqib oldi!

– Shungami? Kap-katta ayol-a! Qani ko'rsat-chi.

Zulfiya qo'qqisidan otasining bo'yniga osilib yig'lab yuboradi.

– Sizni sog'indim... Sog'inib ketdim, dadajon!

Beixtiyor Bolta Mardonning ham o'pkasi to'lib keladi.

Ota-bola bir-biriga yopishib yig'lamoqqa tushadi.

Qog'ozga o'ralga dori oyoq ostida...”⁹

Erkin A'zam asarlarida milliy ruh shu taxlit yuzaga chiqadi. Milliy ruhning shakllanishi natijasida o'zlikni anglash konsepsiyasi vujudga keladi. O'zlikni anglash komillikning belgilaridan biri. Komil inson g'oyasi esa bugun jamiyatimizning asosiy g'oyalardan biri hisoblanadi. Komil inon bo'lish uchun o'zimizdagi kamchiliklarni bartaraf qilishimiz zarur. Insondagi kamchilik-u yutuqlar obyektiv tarzda Erkin A'zam nasrida o'z ifodasini topgan.

Erkin A'zamning har bir asari badiiy go'zalligi bilan kitobxonni maftun qiladigan, sujet va kompoziysiyasining pishiqligi bilan xayratlantiradigan, tilining oddiyligi, piching va qochirimlarga boyligi bilan o'ziga esh qilib oladigan ijod namunalariga aylandi.

Tasvirning ixcham iboralardan tashkil topganligi o'quvchini matnda uchraydigan realistik tasvirlardan bezdirmaydi. Adib qahramonlar ruhiyatini ochishda oddiy bir hayotiy detallardan foydalanadi. Ularni ma'lum bir muhitda harakatlantirib o'sha muhitga bo'lgan munosabati orqali psixologiyasini ochib beradi. Misol uchun “Bayramdan boshqa” kunlardagi Bakirni olaylik, o'ziga yod muhitga tushib qolgach bu muhitga ko'nikolmaydi. Bunga o'ziga xos dunyoqarashi e'tiqodi sabab. Bakirning shu muhitda harakatlanishi natijasida

⁹Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир.– Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 82- б.

xarakteri oydinlashib boraveradi. Bu bilan yozuvchi inson suvark kabi har qanday sharoitga moslashib ketolmasligini ta'kidlamochi. Aslida insonning insonligi ham shunda emasmi?

O'zbek qissachiligi rivojiga o'zining xalqona qissalari bilan hissa qo'shib kelayotgan adib Tog'ay Murod Erkin A'zam bilan bir davrda adabiyot sahnasiga kirib keldi. Bu ikki ijodkor asarlari o'zbek prozasida yangi bosqichning boshlanishiga birdek hissa qo'shdi. Ularning bir-biridan farqi shundaki, Erkin A'zam hayot hodisalarini bo'rttirib ham, kamaytirib ham tasvirlamaydi. Uning qahramonlari shartaki, betgajopar, faqat haqiqatni gapiradi, o'z e'tiqodidan qaytmaydigan qaysar insonlardir. Tog'ay Murod asarlarida ham voqealar real tasvirga ega, ammo qahramonlari o'z suhbatdoshiga betgachoparlik qilmaydi, haqiqatni achchiq tarzda aytmaydi, balki muloyimlik bilan tushuntiradi. Bundan tashqari asarlari matnidagi takrorlar o'quvchini bezdirmaydi. Akincha, takror personajlar yo'rig'ini, tutumini, ahvol-ruhiyatini ochib yuboradigan mazmun kasb etadi. Natijada asar tanasidagi birorta so'zning ortiqchaligi sezilmaydi.

Tog'ay Murod tili samimiy, xalqona bo'lsa, Erkin A'zam tili oddiy, kinoya va qochirimlarga boy. Bu ikki ijodkor uslubi o'zbek adabiyotida o'ziga xos xarakterga ega. Ularni birlashtirib turadigan xususiyat asarlarining g'oyaviy jihatdan bir butunligidadir. Har ikki ijodkor asarlaridagi g'oya insonlarni komillika undaydi. Hayot o'zining tashvish-u armonlari bilan qiziqqligini, busiz hayotning mazmuni yo'qolishini ta'kidlaydi. Inson dunyoga bir marta keladi va shu hayoti davomida yaxshi ishlar qilib, o'zidan yaxshi nom qoldirishi kerakligiga urg'u beriladi. Yana shunday g'oyaviy xususiyat ularni birlashtirib turadiki, o'zbek xalqining sovet hukumati tomonigan kamsitilganli, xo'rlanganligi, aslida birovga ziyoni tegmaydigan, kamsuqum, kamtar, shu bilan birga mehnatkash, tog'riso'z, g'ururli, or-nomusli xalq ekanligini ularning asarlarida o'zining badiiy isbotini topgan.

Shu o'rinda Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom" qissasiga diqqat qilamiz. Qissada shunday epizod bor: aholidan otlarni go'shtga terib yurgan Kal kattaga bo'ysunmagan Ziyodullaning ishi militsiyaga tushadi. Rayon militsiyasi eshigi oldida qornidan musht yeb, bir muddat xushdan ketadi. Shundan keyin uni boshliq oldiga kiritishadi. Ziyodulla bor gapni qo'shib-chatmay so'zlab beradi, ya'ni Kal kattani urmaganligini, aksincha, u Ziyodullani uraman deb, supadan chuqurga yiqilganligini, eshik oldida esa nohaq qornidan musht yeganligini aytadi.

Ammo uning birotga gapiga ishonishmaydi. To'rdagi katta Ziyodullani urgan melisaning "sof leytenantlik so'zi" hamda Kal kattaning "biz rahbarlarga ishonasizmi, yo, mana shunga o'xshash podachiga" degan gapiga bilan shunday deydi: "Biz urmaymiz! Sovet melisasi urmaydi!.." iborasi bilan davrning aynanchli manzarasini, Ziyodullaning ruhiyatini, yana qancha aytilmagaman mazmunni ifodalaydi. Adib tasvirlamasa ham, kitobxon Ziyodullaning rosa o'n kunga badbo'y hujraga mahkum etilganini, oddiy odamning haq-huquqi "kattalar" uchun arziyas narsa bo'lganligini anglab yetadi.

Odamning katta-kichigi bo'lmasligi, hammasi odamligi, inson eng ulug'zotligi g'oyasi qissa matniga bot-botsingdirilgan¹⁰. Erkin A'zam asarlarida ham inson qadri, insonning jamiyatdagi o'rni kabi masalar katta o'rin egallaydi. Yozuvchining qahramonlari asosan, jamiyatning o'rta qatlamiga mansub insonlar. Ular juda katta qahramonliklarga qodir emas, lekin o'zining dunyoqarashiga, fe'l-atvoriga, kasb-koriga ega. Ya'ni jamiyatda ma'lum bir o'ringa ega kishilar. Ular kimgadir kerak, kim uchundir qadrli, kim uchundir suyuqli. Bunday qahramonlar jamiyat va muhit ta'sirida ijobiy yoki salbiy tomonga qarab haraktlanadi. Atrofchetedagi insonlarga, hayotga bo'lgan munosabati ham shu taqlid turlicha bo'ladi. Buni biz qahramonlarning ruhiyatida bo'layotgan o'zgarishlardan bilib olishimiz mumkin. Erkin A'zam asarlarining g'oyasini tushunish uchun qahramonlar psixologiyasini tushunishimiz kerak.

Inson ruhiyatini ochishda san'atkor mahoratining, mas'uliyatining o'rni to'g'risida Abdulla Qahhor shunday yozgan edi: "Psixologizm – kishilarning ichki dunyosiga, ularning latif-zarif tomonlariga va go'zalligiga yaxshi e'tibor qilish to'g'risida jiddiy o'ylab ko'rish fursati yetdi. Bu yozuvchilik mahoratining eng muhim jihati"dir"¹¹.

Erkin A'zam psixopoetikasining ajralib turadigan o'ziga xosligi qahramonning avvalboshdanoq ekzistensial kayfiyatda ekanligida ko'rinadi. Qahramon hayoti davomida ko'rgan kechirganlaridan xulosa chiqara-chiqara, odamlardan "begonalashib" boradi. Asrlar mobaynida yechimini topmagan masalalardan charchagan paytlari "o'ziga qamalib" olgisi keladi. Xuddi shu yerda tasvirlanayotgan barcha voqea-hodisalarruhiylashadi va ruhiy tahlil foydasiga ishlaydi. Personajlar ichki dunyosi ziddiyatlar, tangliklar, azob-o'g'riqlardan iborat ruhiy holatlar, og'ir kechinmalar orqali tasvirlanadi. Shu orqali qahramonlar

¹⁰ Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Фил. фанлари номзоди дисс.–Т.: Bayoz, 2014. 63-б.

¹¹ Қахҳор А. Танланган асарлар. 6-том, – Т.: 1971. 227-б.

g'oyaviy-ma'naviy izlanishlarining intensivligi va inson tabiati bitmas-tuganmas sinoatlar makoni ekanligi ochiladi.

“Javob” qissasi qahramoni Nuriddin Elchiyev xushchaqchaq, shinavanda inson. Ammo asta-sekinlik bilan uydagi, ishdagi, ko'chadagi turli xil ziddiyatlar natijasida o'z qobig'iga o'ralib oladi. Qattiq ruhiy tushkunlikka tushib qoladi va o'z joniga qasd qiladi. O'z joniga qasd qilishidan oldingi ruhiy holatiga diqqat qilamiz.

“O'tgan umr – o'tdi, qaytarib bo'lmas... Umr, umr... qaytarib, qaytarib... bo'lmas, bo'lmas...”

Kosa allaqachon to'lgan edi, birgina tomchi mahtal – limillab turardi, bu o'y ana shu qaltis tomchi bo'ldi...

...Alam! Alam! Sharmandalik, sharmandalik! Bo'ldi, tur! Endi kech! Endi yagona chorasi shu! Tur!

Kimdir uning bo'ynidan mahkam changallab vannaxonaga olib kirdi, chap qo'lini vannaning qirrasiga qo'yib... Qani, bo'l, bo'l! Tezroq! Imillama! Yana, yana, yana!.. Bu ish zavqli edi shu tobda, o', qandayin lazzatbaxsh edi!.. Ha, balli ana endi bo'ldi! Ana endi qutilding! Hammasidan qutilding!...”¹²

Ammo tirik qolib, kasalxonada ancha vaqt yotadi. Shu vaqt ichida hech kim bilan gaplashgisi, hech kimni ko'rgisi kelmaydi. Xonasidan chiqmasdan boshini devorga qaratib olib, hech kimning yuziga qaragisi kelmaydi. Ana shu kasalxonada yotgan vaqtida o'tgan umrini sarhisob qilib chiqadi va shunday xulosaga keladi: “hayot deganlari savollardan iborat ekan; odamzodning burchi, a'moli – ana shu savollarga munosib javob qaytarmoq, har biriga o'z vaqtida, baqadri imkon munosabat bildirmoqdir. Zero, ertangi kuni, taqdiri shunga bog'liq. Aks holda, Elchiyevning vaziyatiga tushib qolishi hech gap emas. U tutgan yo'l esa oson, eng nochor yo'l... javob bo'lolmas ekan!”(153-bet)

Haqiqatdan ham Elchiyev tutgan yo'l xato yo'l. Bu ojizlik, kurashuvchanlikning yengilishi. Buni Elchiyevning o'zi ham tushunib yetadi. Adib bu asari bilan insonlarning oddiy hayot zarbalariga dosh berolmay qolayotganligini qoralaydi. Bu tezkor zamonda insonlar doim ziddiyatli vaziyatlarga tayyor turishi kerak, balki bunday vaziyatlarga tushub qolmaslikning yo'llarini qidirib topish zarur. Ayni shu holat bugungi kun odamining katta muammolaridan biri. Chunki insonlar ruhiyatida turli xil konfliktlar yuzaga kelmoqda. Asarning g'oyaviy

¹²Аъзам Э. Кечикаётган одам.– Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 147-148-б.

ahamiyati ham shunda. Zamonaviy kitobxon asarni o`qib o`ziga tegishli xulosa chiqaradi. Eng muhimi ham shu.

Erkin A`zamning g`oyaviy-badiiy jihatdan alohida ahamiyatga ega asarlaridan biri “Jannat o`zi qaydadir” dramasidir. Bu asarda mustaqillikka erishganimizdan keyingi dastlabki o`n yillikdagi xalqimiz hayotida yuz bergan o`zgarishlar, ularning o`y-xayollari, dunyoqarashi mahorat bilan ochib berilgan. Darhaqiqat, 90-yillarning boshida O`zbekiston deya atala boshlagan yosh mustaqil davlat jahon sahnasida paydo bo`ldi. Bu paytda ommaviy madaniyat har bir eshikka so`roqsiz kirib kela boshladi. Ana shunday sharoitda ommaviy madaniyat ko`pchilikni o`z domiga tortib ketdi. Amerika vasvasasiga tushib qolganlar ham oz emasdi. Go`yoki Amerika ularga jannat bo`lib ko`rina boshladi.

Xalqimiz o`tish davrida bir qancha qiyinchiliklarga duch keldi. Ana shunday sharoitda besh qo`l barbar emasligi yana bir bor o`z tasdig`ini topdi. Irodali, qanoatli, vatanparvar kishilar o`z oldiga buyuk maqsadlar qo`ygan yurtida ham halol mehnat qilib yaxshi yashash mumkinligiga ishonch hosil qildilar. Bunga vatanimizda amalga oshirilayotga keng ko`lamli islohatlar natijasi sifatida qarash mumkin. Ba`zi qanoatsiz kishilar yaxshi yashash ilinjida o`zga yurtlarga, jumladan, Amerikaga ketishdi. Kuzatuvchan, xalq bilan hamnafas yozuvchi Erkin A`zam ana shu hayotiy manzaralarni o`zining “Jannat o`zi qaydadir” dramsida qayta ishlab, yana xalqqa qaytarib berdi. Ya`ni xalqdan olib xalqqa berdi. Atrofimizda yuz berayotgan, biz e`tibor berib-bermay yurgan voqealarni tasvirladi. Bu asar nafaqat “jannat izlovchilar” uchun, balki barchamizga taalluqli, e`tiborli hodisa. Asardan o`zimizga tegishli xulosa chiqarishimiz lozim.

Drama matniga e`tibor beradigan bo`lsak, boshlanishda asar g`oyasini ochib berishga xizmat qiladigan A.P.Chexovning “Olchazor” asaridagi quyidagi jumlar keltirilgan. “Lyubov Andrevna!.. Agar yana Parijga borgudek bo`lsangiz, meni ham olib keting, baraka topgur. Men also bu yerda qololmayman... O`zingiz ko`rib turibsizki, bu yurt g`irt qaloq, xalqi nodon, to`pori, buning ustiga – juda zerikib ketdi odam, ovqatlari ham jonga tekkan... Meni albatta birga olib keting, xudo xayringizni bersin!”¹³

Bu jumlar asardagi “oyoq chiqargan tijoratchi” Xonimning xarakterini yaqqol ochib beradi. U Amerikada yashovchi o`zbek Rahmatilla Jidaliyning

¹³ Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 147-б.

etagiga yopishib olib, qanday qilib bo'lmasin Amerikaga ketish ilinjida. Xonimning niyati "sehrli diyor" da yanada yaxshi yashash. Aslida xonimning birovdan kam joyi yo`q. Eri kimsan katta domla-professor, salkam akademik. Yozuvchining ta'biri bilan aytganda Jidalidan chiqqan Jo`raqul sobiq markischi olim, u endi akademik bo`lish arafasida edi. Ammo mamlakat mustaqillikka erishib, uning markischa g`oyada yozilgan ishi akademik unvonini olishga yaroqsiz matoxga aylanib qoldi. Lekin u e'tiqodini o`zgartirmadi va akademiklikdan voz kechdi. Boshqalar esa yangi siyosiy tuzumga hamohang ishlari bilan undan o`zib ketishdi. Vaqtida uy, dacha, mashina qilib qo`ygan domla tinchgina yashab yurgan edi. Ammo xotini Xonim bundan-da yaxshi yashash uchun uni ham Amerikaga ketishga ko`ndiradi va bor-budini sotishib Rahmatilla Jidaliyga berib yuboradi. U Xonim va uning oila a'zolari uchun yangi uy hozirlab turishni va'da qiladi.

Shu orada Xonim o`zi va oila a'zolari uchun ingliz tilini o`rgatadigan repititor yollaydi. Sardor – otasi deputat bo`lishiga qaramasdan repitetorlik qiladigan halol, samimiy yigit. Asarda Sardor timsolida mustaqil yurtning mustaqil farzandini ko`rishimiz mumkin. U domlaning nevarasi Klara (Komilaxon)ning qizi Luizaxonni yaxshi ko`rib qoladi va unga o`zbek tilini o`rgatadi. Sardor ta'sida Luiza Amerikaga ketishdan bosh tortadi. Chet ellarda yurib-yurib oxiri Klaraning eri Viktor xotini va qizi Luizaning yoniga, O`zbekistonga kelishga qaror qiladi.

"X o n i m. Alyo! Bo`sto-on!.. Voy, Viktorjon, vi? Izvinite, pojalusta. Da, ne uznala ya vas... Otkuda?.. Iz Peterburga? Pochemu?.. Xorosh, xorosh, seychass! Klara!.. Vot ona! Tez! Ering...

Turgan joyida qotib qolgan Klara bir-bir bosib telefonga yaqinlashadi-da, apparatni olib daxliz tarafga o`tadi.

K l a r a (daxlizda ovozi, uzuq-yuliq forsha so`zlar). Xudi shum... na, na... bovari na... pazmon, pazmon... ro`ziki du chashmi man nemigiryad... ho, ho... bale hudo hofiz...

Xonim ikki chakkasini changallab stulga o`tirib qoladi.

Xonim. Yarashmoqchi bular? Yarashsa, Klara ketadi-da Peterburgiga... Iya. Viktorniyam ko`ndirib, Amerikaga olib ketsa-chi? O`zi johongashta-ku u!

Klara ajib bir kayfiyatda xonaga qaytib kiradi.

X o n i m. Ha? Nima deydi? Tinchlikmi?

K l a r a (o`ychan).Kelmoqchi...

X o n i m (hovliqib). Voy, kelsin, kelsin, ayt! Keyin hammamiz birgalikda...

K l a r a. Butunlay kelmoqchiu! Dunyo kezib charchabdi. Qidirganini topolmaganmish. Bizziz yasholmasmish... Politolog-ku u kishi, o`nta tilni biladilar!

X o n i m. Voy-voy o`ris bo`laturib-a?.. Senchi?.. Amerika nima bo`ladi?

K l a r a (holdan toygudek). Bilmadim, oyi, bilmadim. Boshim qotib qoldi. Bunisini kutmagan edim o`zim ham... Viktor keladigan bo`lsa, qolsam kerak-da. Luiza bor o`rtada”¹⁴.

Dunyo kezib oiladek muqaddas Vatan hech qayerda yo`qligini tushunib yetgan Viktor O`zbekistondek jannatni, o`zi o`zbek bo`lmasa-da, boshqa joydan topolmadi. Shuning uchun hamma Amerika-yu Rossiyaga oshiqayotgan bir paytda U O`zbekistonda yashashni maqul topdi. Viktorda tanlash imkoniyati juda ko`p edi. Nima uchun ikki daryo oralig`idagi o`lkada yashashni tanladi? Bu savolga birgina javob bor. U juda ko`p yurtlarni, odamlarni ko`rdi, ular bilan muomalada bo`ldi. Ulardan topolmagan mehr-oqibat, samimiylilik, mardlik, bir-birining dardiga sheriklik kabi tuyg`ular bizning yurtda, bizning odamlarda bor. Viktorda qiyoslash imkoniyati bor edi va u dunyodagi ko`plab o`lkalarni, ularda yashovchi odamlarni bir-biriga taqqoslab ko`rdi. Oxir-oqibat O`zbekistonda oilasi bag`rida o`zini xotirjam, tinch his qildi. Oilasini Rossiyaga olib ketishi ham mumkin edi, ammo unday qilmadi.

Ayol zoti borki, oila u uchun hamma narsadan muqaddas. Ayniqsa, o`zbek ayoli uchun. Klara ham jidalilik Jo`raqul domlaning qizi. U ham o`zbek qizi, o`zbek ayoli. Asli ismi ham Komilaxon. Uning ruscha ism bilan chaqirilishini ommoviy madaniyatning bir ko`rinishi deyishimiz mumkin. Ana shu Komilaxon anchadan beri oilasining parokandaligidan, tashqarida bilintirmasa-da, ichida qiynalib yurgan edi. Chunki u oilaning muqaddasligini shu vaqt oralig`ida tushunib yetdi va jannat aslida o`z yurtida o`z oilasi bilan yashashda ekanligini, kech bo`lsa-da, angladi.

Jo`raqul domla esa Amerikaga ketish oldidan tug`ulib-o`sgan, bolalik xotiralari qolgan Jiydalini oxirgi marta ko`rib kelish uchun boradi va o`z Vatanida omnatini topshiradi. Domla markischa e`tiqodidan voz kechmadi, ammo Vatanidan ham voz kechgani yo`q. Chunki uni shu darajaga yetishishiga ota-onasi, qarindosh

¹⁴Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир.—Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007.199-200-б.

urug`ining ichonchi sabab bo`ldi. Uzoq bir qishloqdan chiqqan yigit shaharda o`z o`rnini topish uchun katta kuch-g`ayratga ega bo`lish kerak. Umid, ishonch, maqsad bo`lish lozim. Bularni unga kim berdi yoki nima berdi? Ota-onasi, qishloqdoshlari emasmi? O`zbek farzandiga xos g`ururi, matonati emasmi? Mana shunday tuyg`ular biz, o`zbeklarga xos xususitdir. O`zbeklarning Vatani esa O`zbekistondir.

Asar so`ngida muallif tomonidan shunday bir voqea tasvirlanganki, jannat o`zi qaydadir? savoliga kitobxonning o`zi javob topib oladi.

“Tashqaridan eshikning qulfi shirqillab, xonaga “Oq kaptar” otilib kiradi. Rangida rang yo`q...

“Oq kaptar” (jonholatda chinqirib). Mamul! Mamul! Mamu-ul!

Yotoq bo`lmadan ko`zlari qizargan Xonim chiqib keladi. Sardor bilan Luiza ham ko`rinadi.

X o n i m. Ha, jonim, tinchlikmi? Nima bo`ldi?

“O q k a p t a r” (vahima bilan). Eshitdinglarmi? Voy, dahshat, dahshat! Amerika portlabdi! Portillab ketibdi, mamul!

X o n i m. Bu nima deganingiz? Voy, nega portlaydi Amerika? Tushuntirib gapirsangiz-chi, jonim! O`zingizni bosib oling bunday...

“O q k a p t a r” (o`zini bosolmay). Shu, portlabdi! Teatrda hammaning og`zida shu gap! Televizordan ko`rsatganmish!..

X o n i m. Telivizor... yo`q. Sotilgan... Rostmi shu gap o`zi? Alahsiramayapsizmi ishqilib?

“O q k a p t a r”. Rost! Rost! O`lgur terrorchilar portlatibdi! (Yig`lamsirab.) Endi nima qilamiz-a, mamul? Qayoqqa ketamiz endi?!

K l a r a (chimchilagandek). Ketmaymiz. Qolamiz shu yerda.

X o n i m (shilq etib stulga o`tirib qoladi. Alam-iztirob bilan). Da! Shuncha chopa-chop, shuncha taraddud! Shu-uncha xarajat! Endi nima qildim-a?! Uy-joy sotilgan, pul yo`q...”

XXI asr bo`sag`asida Amerikadek qudratli davlat notinch, O`zbekistonda esa tikchlik hukm sumoqda edi. Bu bir Allohning in`omi bo`lsa, ikkinchi tomondan davlaztimizda olib borilayotgan odilona siyotning samarasi. Bejizga xalqimiz “O`zga yurtida shoh bo`lguncha, o`z yurtida gado bo`l” deb aytishmagan. Chunki, eng muhumi, inson o`z yurtida ko`ngil xotirjamligiga ega bo`ladi. Bizning o`lkadek jannatmonand yurtida esa ko`ngil xotirjamligi bilan birga halol mehnat

bilan yaxshi yashash mumkin. Mana shularning qadriga yetmaganlarning oxir-oqibat holi voy bo'lishi asarning bosh g'oyasini tashkil qiladi.

Demak, har inson uchun jannat o'z vatanidir. Asarda vatanparvarlik, milliy urf-odatlariga hurmat, oilaning muqaddasligi o'zlikni anglash, qanoatli, sabr-toqatli bo'lish, dunyoning hoy-u havaslariga uchmaslik kabi g'oyalar o'z ifodasini topgan.

“Guli guli” qissasida Inson deb atalmish maxluqotning insoniylikdan uzoqlashib ketga, jirkanch mavjudodga aylanib qolishi haqida hikoya qilinadi. Bu bilan odamlarni Inson degan nomga loyiq bo'lishga da'vat etadi. Insoniyat bilan maymuniyat o'rtasidagi masofa bir vaqtning o'zida bir qadam va ming qadam ekanligi ta'kidlanadi.

Xullas, Erkin A'zam asarlarida turli xil, ammo insonlarni yaxshilikka yetaklovchi g'oyalar yetakchilik qiladi. Har bir asaridagi g'oya odamlarni ezgulikka chorlash bilan birga dunyoqarashini ham kengaytiradi. Adib o'zi bilganlarini ko'rganlarini yozadi, haqiqatni kuylaydi. Haqiqat esa har doim achchiq bo'ladi. Yozuvchi asarlarini o'qir ekansiz ana shu achchiq haqitlar yuragimizni bosib yotgan g'uborlarni yuvib ketadi. Chunki bu haqiqatlar badiiy go'zallikka burkangan. Bu go'zallik bizga ma'naviy ozuqa, estetik zavq beradi. Shu sabablar bois Erkin A'zam asarlarini o'qiganimizdan so'ng uzoq vaqt asar voqaealarini, qahramonlar xarakterini mushoda qilib yuramiz. Ba'zi qahramonlarga achinamiz, ba'zilariga havas qilamiz.

Bu o'ziga xos ijodkor hayotiy kichik bir voqea bo'lsa-da, eng dolzarb mavzularni asar uchun asos qilib oladi. Ana shu kichik bir voqea zaminida anchayin mazmundor g'oya yashiringan bo'ladi. Misol uchun adibning “Yozuvchi” hikoyasida oddiy bir yozuvchi hayot yo'li misolida hamma narsani pul bilan hal qilib bo'lmasligi, insonning buyukligi oddiyligida ekanligi kabi g'oyalar “qaymoq” misol yuzaga chiqadi.

Qisqa qilib aytganda Erkin A'zam g'oyaviy-badiiy jihatdan ko'lami keng asarlar yaratdi. Uning ijodizamonaviy o'zbek adabiyotining baquvvat ustunlaridan biriga aylandi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz, chamamda.

II. BOB. ERKIN A'ZAM NASRIDA DAVR VA XARAKTER TALQINI

2.1. Xarakter va sharoit tasviri

Erkin A'zam zamonaviy nasrimizning peshqadam vakillaridan biri. Uning rang-barang janr va mavzudagi hikoya, qissa, kinoqissa, dramatik asarlar, romanlari bugungi nasrimizning badiiy salmog'ini belgilashda muhim o'rin tutadi. Bu asarlarning barchasini tutashtirib turadigan nuqta bor: yozuvchi qahramonlarini davr o'zgarishlari vositasida kuzatadi. Xarakter va u tushgan sharoit doimo yozuvchining diqqat markazida. Erkin A'zam qahramonlari bugungi kunning odamlari, biz ko'rib, bilib, tanib yurgan odamlar, atrofimizdagi kishilar. Adib qahramonlari qandaydir kitobiy, hayotiy yoxud romantik kayfiyatdagi havolarda yurgan xarakterda emas. Bu asarlarning sujetiga kirib borganingiz sari qahramonlar tanish va sinashta tuyulaveradi; go'yoki ko'cha-ko'yda, mahallada, ishxonada, yon atrofingizda ko'rgandek bo'laverasiz. Masalan, "Aralash qo'rg'on"da qartabozlik bahona fisq-u fujur qilib o'tiradigan bekorchixo'jalar, "Suv yoqalab" asaridagi hangomalari, "Zabarjad"dagi qari qiz qismati, "Jannat o'zi qaydadir" asaridagi zamon o'zgarishlaridan talvasaga tushub, o'zlarini har ko'yga giriftor qilayotgan katta-kichik xarakterlar, epizodlar... Bular bugungi kunimizning odamlari, hayotda nimanidir rad etib, nimagadir talpinayotgan, nimanidir xohlab, nimadandir yuz burayotgan va shu jarayonda o'z fe'l-atvorini, ko'rsatayotgan kishilar.

Inson xarakteri, olimlarning aniqlashicha, yigirma besh yoshlarda shakllanar ekan. Xarakter o'z mohiyati bilan turli-tuman bo'ladi: sobit xarakter, muloyim, xunik xarakter, tepsa tebrnmas, sharoit o'zgarishiga qarab turli tusga kirib, o'zgarib turadigan buqalamun xarakter va hakozi.

Erkin A'zamning ilk qissasi "Otoyining tug'ilgan yili" 1977-yil yozilgan. Shartakilik qissasi deb atalgan bu asarda turfa xarakterdagi kishilarning bir qator obrazlari yaratilgan. Sujeti qahramon nutqi asosiga qurilgan bu qissada Asqar, Raxmatilla, Axmadxonov, Akbarova, shuningdek, qator epizodik obrazlar mavjud. Ramatilla sharoitga qarab ish tutadi, Axmadxonov, ya'ni adabiyot tarixi fani

o`qituvchisi shoir-yozuvchilarning tug`ilgan yillari bo`yicha “mutaxassis”, Akbarova – mish-mishga, g`iybatga moyilroq “zamonaviy” qizlardan – uning faolligi va faoliyati shu doirada kechadi. Qissa Asqar tilidan hikoya qilinadi, u ham “farishta” emas. Shartaki, o`jar, yuzing, beting demay gapiradiganlar xilidan. Talabalar hayotidan olingan bu asarda Asqar ana shu shartang fe`li bois ko`p qaltis vaziyatlarga tushadi.

“Besh bolasini ham qo`shib xotinini uydan haydagan tog`asiga :

– Endi bir durbin toping, bo`yningizga osasiz-da, o`tgan ketgan qiz-juvonni tomosha qilib yurasiz,- deb betamizlik bilan aql o`rgatsa;

...Leksiyani nima uchun yozib olmayotganligini so`ragan domlasiga:

– Darslikda bor gaplarni ko`chirib olishga odatlanmaganman,- deb sarkashlik qilsa...

Kim bo`ldi bu?”¹⁵

Yozuvchi qahramonlariga silliq hayot yo`lini “ravo” ko`rmaydi. Hayot girdoblariga tushadigan holatlariga qarab xarakterlarning tub mohiyati ochiladi. Barqaror xarakter egalari bu hayot girdoblaridan osonlik bilan bo`lmasa-da chiqib ketadilar. O`tkinchi muhit ta`siriga tez beriladiganlar esa, o`z inon-ixtiyorlarini girdobga topshirib qo`yadilar.

Erkin A`zam qahramonlari juda katta ijtimoiy masalalar doirasida emas, kundalik turmush tashvishlari, ikir-chikirlari fonida tasvirlanadi. Mana “Javob” qissasi qahramoni Nuriddin Elchiyevga berilgan ta`rif :

“Elchiyevga o`xshagan odam hamma joydan, hamma idoradan topiladi. Ular majlis-u mashvaratlarda ha deb ko`zga chalinavermaydi, hal qiluvchi ovozga ham ega emas, lozim paytdagina el qatori qo`l ko`tarib yoki chapak chalib qo`yadi, xolos. Bayram kunlari-yu biror bir yorug`lik tegadigan taqsimot chog`larida ham bunaqalarni kamdan-kam tilga olamiz. Lekin, barchani shularsiz tasavvur etib bo`lmaydi: ommaviy sahnalarga odam kerak-ku! Mushkul vaziyatlarda, ayniqsa, birovning boshiga tashvish tushganda o`sha zahoti ularni qidirib qolamiz: beg`araz, beminnat, ishonchli. Ba`zilar haftalab ishxonada ko`rinmasligi mumkin, ammo u

¹⁵Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 7 -б.

bir soat bo`lmasa, darrov bilinadi-qo`yadi – o`rni bor, o`rni! Kamtarin, kampsand, lekin boshqa odam bosolmaydigan, boshqa odamga yarashmaydigan o`rni!”¹⁶

Hayot va turmush yumishlari bilan andarmon bo`lib, bir to`kisda yashayotgan Elchiyevga o`xshagan odamlar, yozuvchi ta`biri bilan aytganda “singan, portlagan, botinan portlagan” bir alfozda namoyon bo`ladi.

Nuriddin Elchiyev tabiatan keng fe`l, birovlarining dard-u quvonchini o`zinikidek birdek qabul qiladigan, katta-kichik demay hamma bilan kirishib ketadigan “hammabop” odam. Atrofdagilarga mehribon, do`st, oilada namunali ota, oila boshlig`i, mehribon inson. Shunday kishi dabduristdan o`z joniga qasd qiladi! Sujetning tuguni ana shunda.

Turmushdan nolishni bilmagani kabi undan biror bir mo`jiza ham kutmaydi, bor baxtiga shukrona aytib yashashga odatlangan odamning birdan o`z joniga qasd qilishi noodatiy hol. Nega? Elchiyev shifoxonada yotib ana shu nega? nimaga? nima uchun?larga javob izlaydi. Uning o`zi ham qilmishidan “yer yorilsa-yu kirib ketsa”. Nuriddin Elchiyev xotiralarga berilarkan, bosib o`tgan hayot yo`lini sarhisob qiladi: qanday yashadi, nima uchun yashadi, uning niyat, maqsad deb atayotgan narsalari hayot ummoni oldida biror chaqalik ahamiyat kasb etadimi?

Qahramon o`z-o`zini so`roqqa tutadi. Lekin qilmishiga jo`yali javob topolmaydi. Inson ruhiyatining so`z bilan, aql-u tafakkur bilan izohlash qiyin bo`lgan sirli jumboqlari bor. Yozuvchi qahramonini ana shu jumboqlarga ro`baro` qiladi.

Erkin A`zam asarlarining yana bir xususiyati haqida gapirib o`tish o`rinliki, yozuvchi biror bir asarida kitobxonni tayyor xulosalarga olib kelmaydi. “Javob” qissasida bo`lganidek muayyan yechimga kelish Nuriddin Elchiyevning, qoleversa kitobxonning inon-ixtiyorida. Boshqacha aytganda, yozuvchi qahramonini hayot yo`llaridan yetaklab yurmaydi, balki hayotning o`zi yo`lga solgan qahramonning yurish-turishini, ruhiyatini kuzatadi.

¹⁶Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002.70- б.

Odamzod sabr-u chidami bilan har qanday hayot zarbalarini ko'tara oladi, biroq arzimagan bahona-yu sabab uni muvozanatdan chiqarib yuborishi mumkin. Elchiyev tushgan vaziyat shunday. Balki hayot zarbalari Elchiyevni asta-sekinlik bilan esankiratib kelgan bo'lsa-yu, o'sha arzimasdek tuyulgan bahona-yu sabab oxirgi, hal qiluvchi zarba bo'lgan bo'lsa-chi?

Yozuvchi davr, muhit bilan bog'liq o'zgarishlar vositasida qahramon ruhiyatini taftish qiladi. Kecha bilan bugunni qiyoslaydi.

“Shoirning to'yi” qissasi hayotiy voqealar asosida tiklangan. Usmon Nosir hayoti va yubileyiga doir ayrim ma'lumotlar qissa sujetini tashkil qiladi, desak to'g'riroq bo'ladi. Yozuvchi qahramonlarining aniq ism-u shariflarini tilga olmay, balki ularning mansabiga, xarakteriga xos sifatlar bilan ataydi: Oqsoqol shoir, Mafkuraxonim, Ajoyib domla, Ma'shuqabegim, Jiyanbeka va hakoza. Ana shu imo-ishoralar qissa qahramonlarining kimligi to'g'risida yetarlicha ma'lumot bera oladi.

Qatag'on yillari shoirni tuxmat-u bo'xton bilan qamatib, Uzoq sharqqa surgun qilganlar davr o'zgarib, shoirning nomi oqlangach, uning 80 yillik tadbirlariga bosh-qosh bo'ladilar. Ertaklardagi yalmog'iz kampir bir yumalab, go'zal qizga aylanganidek kecha shoirga qarshi guvohlik berganlar zamon o'zgarishi bilan fikrlarini o'zgartirib, tamoman o'zga odamga aylanadilar. Go'yoki, kecha shoirni badnom qilganlar boshqa kishilar-u bugun uni ko'kka ko'tarayotganlar boshqa kishilar. Tabiiyki, bu kishilar o'zlarini “farishta” ko'rsatib, barcha aybni zamonga to'nkaydilar.

Adib davr o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlarni qahramonlarning orzu niyatlari, fe'l-atvori, ular ruhiyatidagi kechinmalar orqali kuzatar ekan, inson atalgan sir-sinoat va jumboqning mohiyatiga nazar soladi.

Yozuvchi oqsoqol shoirningpsixologiyasini atroflicha ochadi. Oqsoqol jabrdiyda shoirning do'sti bo'lgan, unga tuxmat toshini birinchilardan bo'lib otgan ham oqsoqol shoir bo'ladi. Har qanday nutq – yolg'onchilik quroli. U faqat o'y-xayollaridagi haqiqatni tan oladi, lekin uni tashqariga chiqara olmaydi.

“Chizma-yu loyihasi birovlar qo`lidagi, yolg`on asosga qurilgan bunday hayotga la`natlar bo`lsin! Endi bu imoratning biror g`ishtiga teginib bo`lmaydi – tekkaningiz zahoti bor bo`yi bilan to`kilib tushadi. Boya anjumanni ochayotib so`zlagan Oqsoqol gapida nima rost-u nima yolg`onligini bilmasmidi? Bilganda qandoq! Lekin yolg`on gapirdi – boshqacha gapirolmasdi, boshqacha gapirmoqqa haqqi yo`q edi. Hali aytilgan afsona mualliflari go`yo bir joyda yig`ilib o`zaro qasam bergan, uydirmalar zanjirini hech qachon uzmaslikka ont ichgan!

Qani eshitaylik-chi, anovi maddoh yana nimalar deb sayrayapti”.¹⁷

Oqsoqol majlis to`rida o`tirib, davrani boshqarar ekan, jabrdiyda otashqalb shoir bilan bog`liq xotiralariga beriladi, ich-ichidan bo`lsa-da, mansab-u martaba ilinjida vijdoninini boy berganligiga iqror bo`ladi. Biroq endi – umr poyonida yuzdan niqobni olishga jur`at topolmaydi, yopiqli qozon yopiqligicha qolishi kerak.

Janozaga borgan dardini aytib yig`laydi deganlaridek, anjumanga yig`ilgan, minbarga chiqqanlarning ko`pchiligi yuzlariga niqob tutib asl qiyofalarini xaspo`shlayotga kishilar: birov haliyam o`zining tirikligini kimlargadir ko`rsatishga kelgan, birovi anjuman bahona “kattalar”ning nazariga tushmoqchi, birov mansab ilinjida, boshqa birov bir paytlar qilgan bo`xtonlari pinhona qolishini istaydi... Har boshda har xayol... Nihoyat yozuvchining zaharhanda nutqi o`zining kulminatsion nuqtasiga yetadi. Mana o`sha tasvir:

“... Zahmatkash domla o`sha kecha yurak o`ynog`i bo`lib, mijja qoqmay chiqdi. Stolda ishi behisob, qo`lyozmalar qalashib yotibdi – yaqinlashmoqqa esa yuragi betlamaydi. Xuddi oldin bir tazarru aytib, istig`for keltirib – poklanib olmog`i zarurdek. Mana, xayriyatki, ko`p yillik orzusi amalga oshdi – Otashqalbning tavallud anjumani, yaxshimi, yomonmi, harqalay o`tdi. Biroq ko`ngil alag`da, boshqa ishning boshini tutay yoki yotib dam olay desa, ko`z o`ngida nuqil bir manzara jonlanaveradi: qalin qarag`ayzor chetidagi g`arib qabristonda g`aribona mung`aygan bir qabr. Bir to`da odam uni zo`r berib

¹⁷Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 329-330-б.

kavlarmish-u, lahimdan g`ishtdan bo`lak hech narsa chiqmasmish. Na bir dona suyak, na bir parcha chirigan matoh, na birtola soch – faqat g`ish, g`isht, g`isht...”¹⁸

Yozuvchi haq: shoirning go`riga nuqul g`isht qalagan ekan!

“Bayramdan boshqa kunlar” Erkin A`zamning navbatdagi qissalaridan biri.

Asar qahramoni Bakir oddiy, kamxarj oilada tug`ilib o`sgan, uning har kuni bayram qilishga tobi toqatiyam, imkoniyati ham yo`q, buning ustiga u tarbiya ko`rib o`sgan muhit bunaqa tarallobedodni ko`tarmaydi ham. Bakir kamtarin, kamgap, mehnatga o`rgangan, o`zbekona urf-odatlar ruhida tarbiya topgan. Biroq u sevib uylangan Bargidaning oila muhiti Bakirlar oilasining umuman teskarisi. Ularda axloq-odob, munosabatlar, yurish-turishlar, oilaviy mas`uliyat degan tushunchalar tamoman erkin. Bakir mana shu ikki oila mihitida yashashga mahkum. U muqaddas sanagan tuyg`ular ikkinchi muhitga kirib kelgandan so`ng shunchaki bir ermak qilinadigan almisoqdan qolgan odatlarga o`xshab boradi. Bakir Bargidalar va uning muhuti: ota-onasi, opasi, pochchasi, Safura va boshqalar to`qigan o`rgimchak to`ridan chiqishga harakat qiladi. Lekin kech bo`lgan, erk, inon-ixtiyor qo`ldan ketgan, buyog`iga chidamoq kerak, hayot deganlari sabr-u bardoshdan iborat. Ammo qachongacha?

“Bayramdan boshqa kunlar”dagi Bakir qanday xarakter kasb etadi? Uning xarakteri kuchlimi, zaifmi? Bakir tabiatan ko`ngilchan, andishali. Biroq u tushgan muhit (ishda, oilaviy sharoit)da ko`ngilchanlik va andishalilikka o`rin yo`q. Shu bois uning fe`l-atvoridagi qat`iyat uncha sezilmaydi. Yolg`on, soxta, til uchida bo`layotgan nosamimiy munosabatlar uni “o`z yog`iga qovurilishi”ga olib keladi, ruhan yolg`izlanib qoladi, muhitning ko`zga ko`rinmas iskanjalaridan chiqishga harakat qiladi. Uning tushib qolgan situatsiyasidan chiqib ketishiga irodasi yetmaydi, ammo shu holatda qolmoqchi ham emas. Bargida va uning oilasidagi yengil-yelpi hayot, Chinnibekning munofiqliklari, pochchasining ma`nan buzuqligi, Ukkiboyevning tovlamachiligi (ishda), yor-birodarlaridan uzoqlashishi

¹⁸Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 358-б.

(o`z oilasidan) uni ruhiy qiynoqlarga, javobi noayon so`roqlarga soladi. U shu jarayonda o`zligini izlaydi.

Yozuvchi finalni ochiq qoldiradi, buyog`i kitobxonga, qolaversa, Bakirga havola.

Takidlash zarurki, xulosani ochiq qoldirish yozuvchining boshqa asarlari uchun ham xos xususiyat. Yozuvchi biror bir asarida kitobxonni tayyor xulosaga olib kelmaydi.

Asar sujetining muayyan bir yechimga, ya`ni xulosaga kelmasligi XX asrning 70-yillari, yanada aniqrog`i Erkin A`zamning avlodiga mansub ko`pgina yozuvchilarga xos xususiyat. Murod Muhammad Do`stning “Galatepaga qaytish”, “Lolazor”, Tog`ay Murodning “Oydinda yurgan odamlar”, “Yulduzlar mangu yonadi”, “Otamdan qolgan dalalar”, Xayriddin Sultonning “Yozning yolg`iz yodgori” kabi asarlari shunday asarlar sirasiga mansub.

Bu xususiyat 70-yillar va undan so`ng o`zbek nasrida yangi ifoda hamda talqin tarzi paydo bo`lib, shakllanganligini anglatadi.

Sotsializm ruhida 70-yillargacha yaratilgan o`zbek nasrida qahramonga munosabat va uning talqini umuman boshqacha edi. Jumladan, qahramon ijobiy (yoki salbiy) bo`lishi mumkin, u muayyan ijtimoiy g`oyaning yalovbardori (yoki unga qarshi) bo`lmog`i zarur, muayyan guruhning manfaatini himoya qilishi lozim (ishchilar, dehqonlar va boshqa), sotsiolistik axloq aqidalariga mos kelishi (oilada tinch-totuv, ishda namuna), komunistik idealarga sodiq, jamiyatning tarixiy revolyutsion taraqqiyotiga xizmat qilishi kerak. Bir so`z bilan aytganda ma`lum bir g`oyaning quroli bo`lmog`i darkor. Ya`ni g`oya insongamas, inson g`oyaga xizmatga safarbar etiladi.

70-yillarda yaratilgan nasrdagi qahramonlar qiyofasida biz bunda “xizmatbardorlik”ni ko`rmaymiz. G`aybarov, Ziyodulla kal, Qoplon, Oymomo, Adash karvon, Nuriddin Elchiyev va boshqa xarakterlar nasrda kechayotgan o`zgarishlarning namunalari edi. Bu xarakterlarning har biri o`ziga xos individualligi, orginalligi, dunyoqarashining o`zgachaligi, yurish-turishi, intilishi, fe`l-atvori, didi va boshqa belgilari bilan bir-biridan keskin farq qiladi. Muhimi

shundaki, bu xarakterlar yozuvchi tomonidan o`ylab, to`qib chiqarilgan kitobiy qahramonlar emas, balki hayot haqiqatiga yuz burayotgan obrazlar edi. Inson turmushida, hayotda qanday bo`lsa, (o`zining kam-ko`sti, yutuq-kamchiligi, illatiyu fazilati, bor budicha) shunday tasvirlanishi kerakligi, inson o`zining faqat yaxshi yo yomon tomonlari bilan biryoqlama emas, nihoyatda murakkab individ ekanligi 70-yillar nasrida ifodasini topa bordiki, bu borada Erkin A`zamning rangbarang janrdagi asarlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu davrga kelib o`zbek nasrida muhit va xarakter masalasi yuqori zinalarga ko`tarildi, yangi pog`onalarni zabt etti. Endi muhit o`zgardi, yangi zamonga intilish kuchaydi. Odamlar dunyoqarashida ibtidoiylik yo`qola boshladi. Bu esa muhitga tasir qilmasdan qolmaydi, albatta. Muhit esa insonlar xarakteriga ta'sir o`tkazadi. Qanday muhitda yashash har bir kishining ixtiyoriy bo`lmagan va ixtiyoriy tanlovidir. Masalan, biz qaysi muhitda tug`ilishni tanlay olmaymiz. Ammo qanday muhitda yashash o`zimizga havola. Shunday bo`lsa-da avvalgi muhit tasirida shunga o`xshash muhitda faoliyat olib borishga harakat qilamiz.

Hayotda nimalar bo`lmaydi deysiz? Ba`zi hollarda insonlar istab-istamay, taqdirning izmiga yuribmi o`zlariga begona muhitga tushib qoladi. Shunday vaziyatlarda har kim o`zigagina xos xarakteridan kelib chiqib vaziyatga moslashadi yoki moslasha olmaydi.

Erkin A`zam asarlarida ana shunday turfa xarakterlar o`zining butun bo`ybasti, murakkabliklari bilan tasvirlanadi. Turli xarakterlar ichidan har bir kitobxon o`zini, do`stini, aka-ukasini, opa-singlisini, qo`ni-qo`shnisini topadi. Ular ba`zi hollarda tanish, boshqa vaziyatda begona muhitda harakatlanadilar.

2.2. Makon va zamon kategoriyasi

M.Baxtin adabiyotshunoslikka olib kirgan makon va zamon tushunchasi ilmiy tadqiqotlar va izlanishlar doirasini kengaytirib yubordi. Magistrlik ishimiz mavzuga shu jihatdan yondashish Erkin A'zam nasriga xos bo'lgan qator masalalar, jumladan, poetik uslub masalasini yoritishda muhim ro'l o'ynaydi.

Badiiy asarda yuz beradigan voqealar, ya'ni sujet aniq bir makon va zamonda ro'y beradi. Boshqacha aytganda, har qanday xayol qushining parvozi ham real zamondan-makondan boshlanadi. Dunyoning jo'g'rofiy, siyosiy xaritalari bo'lganidek san'at asarlarida uning badiiy xaritasi ham mavjud. Muayyan yozuvchuning ijodiga diqqat qaratadigan bo'lsak, ulardagi makon va zamon sujetlar rivoji zanjirida kechishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. G.G. Markesda "Makondo", Chingiz Aytmatovda "Shakar" qishlog'i, Murod Muhammad Do'stda "Galatepa", Shukur Xolmirzayevda "Boysun", O'tkir Hoshimovda eski Toshkent mahallalari, xususan, "Do'mbirobod" va boshqa adabiyot xaritasidagi ana shunday badiiy hududlar hisoblanadi.

Erkin A'zam ijodida ham shu holga guvoh bo'lishimiz mumkin. Adabiyot xaritasidagi Erkin A'zam kengliklari – bu adibning tug'ilib o'sgan yurti manzaralari – tog' qishloqlari, soy-u buloqlari, Surxondaryo shevasida so'zlashadigan odamlari, tabiati.

Shunisi e'tiborliki, yozuvchi turli asarlarida voqea kechadigan joyni turlicha manzaralarga ko'chirishi mumkin. Masalan, "Suv yoqalab" asaridagi makon – maskan aniq emas, biroq asardagi xarakterlar, ularning maishiy hayoti, xatti-harakatlari, yashash tarzi, shevasidan sujetning Boysun tog'i etaklaridagi qishloqlarda shakllanayotganligini ilg'ash mumkin. Voqea qay bir geografik muhitga ko'chsa, Erkin A'zam qahramonlari o'sha muhit kishilariga xos va mos nutqqa "o'tadi". Shu bilan birga yoshi, jinsi, kasb-kori, dunyoqarashi, didiga muvofiq qahramonlarning nutq tarzi, gap ohangi aniqlik va konkretlik kasb etadi. Epli bo'lmagan, katta shaharlarning "hadisini olmagan" sodda, to'pori kishilar nafaqat o'z makonlarida, boshqa manzillarda ham o'z shevalarida gaplasheverdilar. Erkin A'zam nasridagi xarakter-personajlar ham shunday. Unda

toshkentlik toshkentcha, surxondaryolik surxoncha, sirdaryolik sirdaryocha lahjada “gapirtiriladi”.

“Bayramdan boshqa kunlar” qissasida turlicha til qatlamlarini ko`ramiz. Bakirning qaynotasi Panjikent, tog`a bo`lmish Mufti Sirdaryo shevasida gaplashadi.

Masalan, “Challarining ertasiga u Bakirni ro`parasiga o` tqazib olib, har safar “Endi bunisini eshiting, kuyovbola!” deya, jinnilar turkimidan bir talay latifa aytib beradi. So`ngra, negadir eshikni qattiq yopib qo`yib, past tovushda, deyarli pichirlab forsha baytlar o`qiydi:

Man boshamu vay boshad,

Vay boshadu may boshad.

Vay az labi may no`shad,

Mana az labi vay no`shad¹⁹.

O`qiganini o`zbekcha izohlab, “Qalay, zo`r-a? Buning mag`zini chaqing, kuyovbola! – dedi qah-qah kulib. – Endi mana bunisiga quloq tuting”:

Daraxti makri zan chil resha dorad,

Falak ham az makri vay andesha dorad²⁰.

Baytni sharhlab, yana boyagidek: “Ana bunisining mag`zini chaqing, kuyovbola!” dedi. Ammo negadir bu gal qah-qahlab kulmadi²¹

Yoki bo`lmasa hamma uni tog`a deydigan Muftilla (Mufti)ning nutqiga e`tibor beraylik. U sirdaryolik bo`lib, Chinnibekning oshnasi. Mirzacho`lda besh bolasi va xotini bo`la turib, doimo Toshkentda Chnnibekning yonida yuradi. Aniqrog`i yozi bilan Mirzacho`lda paxta punkitida ishlaydi, qish kezlari kuni Chinnibekning uyida o`tadi.

Mufti Toshkentdek shahri azimda juda ko`p vaqtini o`tkazsa-da, ammo uning nutqida na adabiy til me`yorlariga rioya qilishni, na Toshkent shevasiga xos

¹⁹Mazmuni: Men bo`lsam-u u (mashuqa) bo`lsa, U bo`lsa-yu may bo`lsa.

U may labidan simirsa, men uning labidan so`rsam.

²⁰ Mazmuni: Ayol kishi makr daraxtining qirq ildizi bor,

Ul makr qarshisida falak ham nochor.

²¹АъзамЭ. Кечикаётганодам. – Т.: “Шарк”нашриёти-матбааакциядорликжамияти, 2002. 205-206-б.

soʻzlarni uchratamiz. U Toshkentda, kazo-kazolar orasida ham, oqbilak tannoz xonimlar yonida ham sirdaryocha shevada gapiraveradi:

“... – Jiyanboyding oʻzi koʻrinmaydi? Biz unga manovlarni olib kelib edik. Koʻpam ul boshqa oʻyinlarni oʻynay bermay, buniyam oʻrgansin. Pichoqbozlik – ota-bobomizda qogʻan oʻyin.

... – Xotin maxluq, har qancha chiroyli boʻlmasin, baribir tez qariydi. Amaldorning qizi boʻlsa qarimaydi. Boyning qizi chirayli boʻladi. Azaldan shunday, ha!

... – E, jiyanboy-ku! – deya irgʻib oʻrnidan turdi Muftilla. Borib uni bagʻriga tortmoqchi edi, bola koʻkragidan itarib tashlab, yana “mama”lay boshladi. – Obbo, begonasirayapti-ku! Meni tanimayapsanmi, jiyan? Men Mufti bovong boʻlaman. Hoʻ-oʻv, choʻlda otga mindirib edim-ku seni? Buncha ozib ketibsan? Rang-poʻying ham bir ahvol! He, seni jiroqlarga jubargan otangding julinigʻa!.. Nima, u yoqda non bermaydimi, senlarga? Oʻzbekding noni gʻozli de! Obbo, sherimard-ey, shuytib juribsan? Ke, beri ke, qulinboy! Mana, Mufti bovong senga pichoq olib keldi. Qara, qanday zoʻr pichoqlar! Qani, shuning bilan bir oʻyin koʻrsatib ber-chi bizga! Magnitoponni qoʻyaymi, a, ota ogʻil?

... – Siz eshikka bir qarab jubaring, Chinni soʻrayotuvdi, - deb qoldi”²².

Koʻrinib turibdiki, mahalliy yoki professional til qatlami notiqning kishiligini, qiyofasini, qalbini koʻrasatib turishi bilan birga uning oʻz-oʻziga bergan tavsifnomasi, xarakteristikasi hamdir.

Yoxud “Jannat oʻzi qaydadir” asaridagi mana bu dialogga eʼtibor qaratamiz.

“Dahlizdan yugirib kirgan Luiza bir zum hayratta qotib qoladi-yu oʻzini chapdagi echikka uradi.

L u i z a (*ichkaridan ovozi*). Mam! Smotri, dedul kak nastoyashiy kloun!

Oʻsha eshikdan chiqqan Klara ham dong qotadi.

K l a r a (*gʻijinib*). Dada! Yarashmabdi sizga!

D o m l a (*yerga kirgudek*). Ana, mamangdan soʻra!

²²АзамЭ. Кечикаётганодам. Т.: “Шарк” нашриёти-матбааакциядорликжамияти, 2002. 175, 176, 179, 180-б

Klara boya Domla chiqqan xonadan tezgina bir chopon keltirib, otasining elkasiga tashlaydi.

K l a r a. Oyi, ko`rgan odam nima deydi!

X o n i m. E, bor, bor, aralshma! Amerikani ko`ribsanmi sen?!

K l a r a (*qaytib xonasiga kirarkan*). Yak chizro donem – az xudro ronem. (Bilganimiz bir narsagina-yu, o`zimizni xudo chog`laymiz).

X o n i m. Nima deyapti bu? (*Domlaga yuzlanib*). Boshqa tilda o`qitsak bo`larkan shuni. Forschani bilaman deb, chuldiraganlari chuldiragan!”²³

“Jannat o`zi qaydadir” – mustaqilligimizning dastlabki yillarida yurtdoshlarimiz psixologiyasida, turmush tarzida kechgan o`zgarishlar to`g`risida.

Sho`ro siyosati o`z umrini yashab bo`lgach, keng dunyoga yo`l ochildi. Siyosatda, mafkurada, fikrlashda, e`tiqodda, ijtimoiy hayotda yangilanish, o`zgarishlar yuz berdi. “Butun dunyo proletarlarini birlashtirish”ga qilingan da`vatlar o`rniga xususiy mulkchilik, tadbirkorlik qaror topa boshladi. Shu bilan birga xarakteri, fe`l-atvorlari “shamolning esishi”ga qarab o`zgarib turadigan kishilar hayotida sarosima boshlandi. Sho`ro zamonida bo`ynidan tavqi la`natdan bo`lak nishoni bo`lmagan Amerika salkam yer yuzining jannatiga aylanayozdi. Bu yaqin o`tmishimizda bo`lib o`tga tarixiy voqealik. Yozuvchi tili bilan aytganda “bu manzaralar yangi asr boshidagi tahlikali kunlarda Toshkent va shahar atrofidagi soya-salqin chorbog`lardan birida kechadi”.

Asarda ishtirok etuvchilar sanoqli – markist olim Jo`raqul domla, uning oila a`zolari, ba`zi tanish-bilishlari. Yozuvchi asar boshida ta`kidlaganidek, makon va zamon aniq.

Adib kechayotgan davr voqealigini shunday teran va psixologik tadqiq qiladiki, asar ishtirokchilarining kiyinishi ham ularning qay makon va zamonda harakat qilayotganlaridan ogoh etib turadi. Mana birgina misol: “Qiya ochiq eshikdan Domlaning ovozi eshitiladi.

²³Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 191-б.

D o m l a. Hozir, hozir xonim... O`zingiz qo`ymadingiz-ku! Bu o`lgur shimi torroqmi, belni siqvordi-ya!..

Nihoyat, Domlaning o`zi ko`rinadi. Ammo bu kishi biz bilgan Domla emas, go`yoki ajabtovur bir kekxa janob! Aji-buji rasm solingan olabayroq mayka, jun bosgan egri oyoqlarga “rosa yarashgan” kalta shim – shorti, boshda – tumshug`i bir qarichli beysbolka!

D o m l a (*qipyalong`ochdek qimtinib*). Odamni iste`foga chiqqan Santa-Klausga aylantirdingiz-qo`ydingiz-a, xonim!

Xonim o`rnidan turib, qo`llari belida, boshini bir yonga solintirib sinovchan tikiladiunga.

X o n i m. O`xshadingiz! Xuddi o`zi! Veri gud!

D o m l a. (*xavotirda*). Kimga o`xshadim? Kimga?

X o n i m. Amerikalik janoblarga-da!

D o m l a. Shu ro`dapolarsiz qo`ymas ekanmi Amerikasiga?

Xo n i m. Siz, domlaginam, anovi sovetcha kostyum-shim-u bo`yinbog`larga o`rganib qolgansiz-da! Hozir butun dunyo mana shunday yuradi. Erkin dunyoning libosi bu!”²⁴

Chindan ham yangi asrning arafasida va ilk yillaridan xabardor har bir kishiga ma`lumki, o`sha paytlarda amerikacha kiyinish tarzi “moda”ga aylangan edi.

Erkin A`zam tasviriga xos usullardan biri shunda ko`rinadiki, yozuvchi asar boshlanishida bir-biriga aloqasi yo`qdek ko`rinadigan, epizod, holat, dialog, voqea-hodisalarni tasvirlayveradi. Sujet voqealarining rivojiga kelgach esa bir-biriga bog`lanmagan, pala-partishdek tuyulgan tasvirlar yagona oqimga qo`shiladi, arziyas, ortiqchadek ko`ringan oddiy bir detal ham poetik asar umumkompozitsiyasidagi muhim bir halqaga aylanadi.

“Suv yoqalab” asari ekspozitsiyasida tush ko`rish bilan bog`liq epizod bor.

²⁴ Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 190-б.

“Er ana shu suvga tikilib allanimalarni pichirlaydi – kecha ko`rgan tushuni so`zlamogda.

U pichirlayotir, lekin biz eshitamiz:

– Tavba... Ajab tush! Yigitlik davrim emish. Mana shu supada xuddi mana shu taxlit cho`nqayib o`tirgan emishman. Tepamda otam, norozi, tanbeh berayotganmish: “Tutni nimaga kesding, besoroq? Sen-u meni to`ydirib, kiydirib turgan shu edi-ku! Bolaligingda o`zing shoxma-shox tirmashib tut terib yurarding... He, noinsof!” Rahmatli nimadan norozi ekan, qiziq... Kampir, – deydi u keyin boshini ko`tarib xotiniga, – shu supani o`rtasida tut-mutimiz bormidi, eslaysanmi?

– Tut? – deydi Musallam opa anqovsirab, bo`shagan obdastani beixtiyor ko`kragiga bosarkan. – Tutimiz huv ana – bog`ning etagida.

Er ensasi qotgandek unga bir nazar tashlab, o`rnidan qo`zg`aldi”²⁵.

Tush epizodi shu bilan unitiladi. Sujetning tuguni, rivoji boshlanadi. Ariq bo`ylab cho`zilgan manzaralar, muloqatlar, hodisalar tasviri beriladi. Asarning kulminatsion nuqtasiga kelib tush epizodiga qaytiladi. Agar asar boshlarida tush epizodi keltirilmaganda, Bolta Mardonning xarakter qiyofasi yarq etib ochilmagan, uning ko`ngil armonlari bunchalik chuqur namoyon bo`lmagan bo`lardi.

“Bir mahal nafas rostlash uchun qaddini ko`tarib, beixtiyor uy tarafga nazar tashlaydi. Qaraydi-yu turgan joyida qotib qoladi: ajab manzara!

– Yo tavba-a!.. – deydi yoqasini ochib tuflab qo`yarkan. – Bu ne sinoat bo`ldi ekan? Xuddi kecha tushiga kirganining o`zginasi-ya!..

Pastak kulbadan beriroqdagi loy supa o`rtasida bahaybat bir tut bo`y cho`zgan edi!

– Tanasining ayriligi ham o`sha-o`sha, kavagi g`orning og`ziga o`xshashligi ham... Yo qudratingdan!

Talay zamon shu taxlit xushi og`ib turgan Bolta Mardon nihoyat:

– Sharofa-at, – deya, nima qilarini bilmay shu atrofda shoh-shabba terib yurgan ayolni chaqiradi. – Birpasgina shu supangda o`tirsam maylimi?

²⁵Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 57-58-б.

– Ibi, bu nima deganingiz, aka? Yuring, uyga kiring.

– Yo`q, Sharofat, menga shu yer ma`qul, – deydi Bolta Mardon. Keyin o`zi ham kutmagan bir so`z og`zidan chiqib ketdi: - Endi uyinga kirdim nima, kirmadim nima!..”²⁶

Tushida kesilgan tut – Bolta Mardonning yoshligi, orzu-umidlari, ilk sevgisining ramzi.

ErkinA`zam nasri poetikasidagi makon va zamonkategoriyasining o`zagida mustaqillik arafasi va undankeyingi yurtimiz hayotida kechgan tarxiiy voqealik yotadi. “Shoirning to`yi” qisasiga Usmon Nosirning hayoti va ijod yo`li asos bo`ladi. Garchi yozuvchi qissaning biror bir epizodida Usmon Nosir nomini tilga olmagan bo`lsa-da, biroq sujet voqealari uning biografiyasi, vafotidan keyin nomini oqlash bilan bog`liq ijtimoiy hayot manzaralariga oid faktlar, ma`lumotlar, hodisotlar tasviridan tarkib topgan.

Usmon Nosirga o`xshagan qatag`on qurbonlari 1956-yilda, ya`ni shaxsga sig`inish illatlari ochib tashlangan kezlarda garchi rasman oqlangan bo`lishsa-da, biroq ularning tom ma`nodagi oqlanishi, asarlarining nashr etilishi mustaqillik arafasida amalga osha boshladi. Arxivlarning temir sandiqlari ochildi, qurbonlarning surgin, qatl qilingan joylari aniqlandi, xotiralari abadiylashtirildi, ilmiy jamoatchilik tomonidan asarlari tadqiqiga kirishildi.

Yozuvchining mahorati shundaki, ana shu tarixiy voqealardan davr fojiasini aks ettira oladigan sujet yaratadi.

Qatog`on qurboni bo`lgan shoirning xotira kechasi o`tkaziladi. Azaga borgan dardini aytib yig`laydi deganlaridek, kechaga yig`ilganlarning ko`pchiligi o`z xayoli bilan band: Oqsoqol shoir Olovqalb shoir qamalganida yolg`on va soxta guvohlik berganligi ochilishidan qo`rqadi, Ajoyib domal uning asarlaridan izlagan “siyosiy xatolar”i oshkor bo`lishidan xadikda, Jiyanbeka mansab ilinjida, Mafkuraxonim esa amaldan foydalanib amrini o`kazsa, katta rahbarning tahsiniga sazovor bo`lsa, Ma`shuqabegim esa tushini ko`ziga surtib, o`zini jabirdiyda qilib

²⁶ Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 85-86 б.

ko`rsatsa. Kimdir o`zini ko`z-ko`z qilishga kelgan, kimdir haliyam tirikligini ta`kidlashga. Bu xarakter va personajlarning har biri o`zlarining hayotiy protitiplariga ega.

Mafkuraxonim – o`tgani asrning 80-yillarida markazqo`mning ideologiya sohasini boshqargan, salla, choponni eskilik sarqiti, Navro`zni diniy bayram deb e`lon qilgan real hayotiy shaxs. Jasur shoir – Usmon Azim obrazi.

Asarda yozuvchining badiiy fantaziyasi mahsuli bo`lgan obraz bu – nogironlar aravachasida o`tirgan “pachmurda tana” – qo`l, oyoq, til kesib tashlangan Olovqalb shoirning bezovta ruhi, sargardon arvohi. Shoirni tiriklayin o`ldirganlar uning bezovta arvohidan ham hayiqmaydilar – riyokorliklarini ko`rsataveradilar.

Erkin A`zam asarlarida makon va zamon tushunchasi kengqamrovli. “Shoirning to`yi” sujetida yarim asrlik davr qamrab olinadi. Makon tushunchasi miqyosida katta o`zgarish kuzatilmaydi, ammo zamon kategoriyasi bir qutbdan ikkinchi bir qutbga, musbatdan manfiyga o`zgaradi. Zamon, davr, vaqt, “charxi kajraftor”, undagi hukmron tuzum o`zini bir qator yangilab olishga kirishadi – oshkorolik tushunchasi paydo bo`ladi, haq va haqiqatni gapirish istagi kuchayadi.

Zamon o`zgarishlarini kuzatish, undagi jarayonlar qonuniyatiga nazar solish yozuvchi uchun qahramonlar xarakterini mukammalroq ochishga yo`naltirilgan vositadir. Zamon o`zgaradi, qahramonlarning nutqi, yurish-turishi ham shunga muvofiqlashadi, ammo bu qahramonlarning asl qiyofasi, ruhiy-botiniy olami, xarakterining tub mohiyati o`zgarishsiz qolaveradi. Yolg`on va riyokorlikka qurilgan hayotiy taqdirilar yana shu zaylda umrguzaronligini davom ettiraveradi.

Erkin A`zam asarlarida makon va zamon tushunchasi ana shu tarzda hayotiy haqiqat asosida badiiy haqiqatga aylanadi. Biz ko`p uchratadigan fantastik va falsafiy asarlarda muallif tomonidan o`ylab topilgan makon va zamonlar asarga kiritiladi va voqealar noreal vaqtda, noreal joyda bo`lib o`tadi. Erkin A`zam o`z asarlarida esa kecha, bugun mavjud bo`lgan, siz-u bizga tanish hududlarda o`z faoliyati bilan mashg`ul, turli xarakterdagi, turli xil ijtimoiy sharoitda yashaydigan, turli shevalarda so`zlashadigan insonlar taqdirini tasvirlagan.

III. BOB. ERKIN A'ZAM ASARLARINING QURILISHI

3.1. Sujet va uning tarkibi

Epik asar mohiyati, badiiy mazmuni va mundarijasi, g'oyaviy-estetik konsepiyasini yuzaga keltiruvchi asosiy vositalardan biri sujet hisoblanadi.

Adabiyot nazariyasiga bag'ishlangan darslik, qo'llanma, tadqiqotlarda, shuningdek, ensklopediyalarda sujet atamasi aniqlanib, izohlab berilgan. Ularning barchasida badiiy asar voqealarining yig'indisi ekanligi ta'kidlangan. Shu bilan birga voqea tizimi o'z-o'zicha emas, muayyan qahramon, personajlarning xatti-harakatlari, sarguzashtlari orqali yuzaga kelishi eslatib o'tiladi. Sujet atama sifatida ilk bor Fitratning "Adabiyot qoidalar"da tilga olinadi.

Sujetning yuzaga chiqishida badiiy xronotopning o'rni va ahamiyati katta. Xronotop yunoncha so'z bo'lib, badiiy asardagi muayyan zamon va makon tasviridir.

Badiiy asar sujetining asosiy unsurlaridan bo'lgan ekspozitsiya o'quvchiga qahramon va uning sarguzashti qay sharoitda kechayotganligi, makon va zamon haqida ilk ma'lumot beradi. Biroq ekspozitsiya xronotopga sinonimlik darajasiga yetmaydi. Xronotop – bu badiiy asr unsurlarining barchasini yagona bir nuqtaga jamlanishi desak, to'g'riroq bo'lar. Ekspozitsiyaning vazifasi (kechiktirilgan ekspozitsiya ham bo'lishi mumkin) ilk ma'lumot berish bilan cheklanadi.

M.Baxtin "Romanda vaqt shakllari va xronotop" tadqiqotida shunday deb yozadi: "Xronotop romanning asosiy sujet voqealarini yuzaga keltiradi. Xronotopda asosiy sujet tugunlari yuzaga keladi va yechiladi. Aytish lozimki, u sujetni yuzaga keltiruvchi asosiy vosita hisoblanadi".²⁷

Muallif tomonidan muayyan bir sana, vaqt bo'lagining badiiy matn tarkibiga kiritilishi, masalan, tong, shom, tun singari vaqt birliklari badiiy sujet rivojini, qahramon, peronajlar hayoti, sarguzashtini, ruhiy olamini aniqroq ko'rsatib berishga xizmat qiladi. Har qanday voqea tizimi badiiy zamondan, uning muayyan bir qismidan tashqarida sodir bo'lmasligi ma'lum. Binobarin, mazkur vaqt

²⁷Бактин М. Литературно-критические статьи: – М.: Художественная литература, 1986. Стр. 282.

unsurlari asar badiiy hududida o`zaro tutashib, aniq bir tarixiy davrning qiyofasini belgilash hamda qahramon ruhiyatini yorqinroq ochishga yo`naltiriladi.

“Vaqt (zamon) o`z-o`zidan makon (mikromakon) tasvirini taqozo etadi. Zero ular abadulabad bir-biri bilan uzviy, jips bog`langan. Vaqt alomatlari makonda namoyon bo`lganidek, makon zamon orqali tushuniladi”²⁸.

Erkin A`zam nasrida yozuvchining badiiy konsepsiyasiga muvofiq turlicha makon va zamon qarichlariga duch kelamiz. Yozuvchi asosan sujetni cheklangan makon (mikromakon) doirasida rivojlantiradi. Chunonchi, “Shoirning to`yi” asari sujeti yozuvchining ta`biri bilan aytganda “nemis harbiy asirlari”, “Uzoq sharqda qo`lga tushgan yapon samuraylari” tomonidan qurilgan muhtasham madaniyat saroyida kechadi. Zamon nuqtai nazaridan “Shoirning to`yi” yarim asrlik voqealarni qamrab oladi, ammo yozuvchi ana shu ellik yillik voqealarni birgina mikramakon – “madaniyat saroyi”ga jamlaydi.

“Jannat o`zi qaydadir asari”dagi voqealar ham birgina mikromakon – “Toshkent atrofidagi soya-salqin chorbog`”da aks ettiriladi.

Yozuvchining boshqa nasriy asrlari xronotopida ham biz shunday holga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Ma`lumki, klassizm oqimi vakillari uch birlik qoidasiga qat`iy amal qilganlar va boshqa ijodkorlardan ham shuni talab qilganlar. Bular – vaqt, joy, harakat birliklaridir. Garchi zamonaviy modern dramaturgiyasida bu birliklar unchalik ahamiyat kasb etmasa-da, biroqsahnaga mo`ljallangan asarlarda bugun ham shu birliklarga e`tibor qaratilayotganligiga guvoh bo`lish mumkin.

Erkin A`zamning qator dramatik asarlari, kinoqissalari chop etildi. Ayrim asarlarini avval hikoya, qissanomlari ostida e`lon qilib, keyinchalik kino san`ti mezonlari asosida qayta ishlab, kinoqissa deya taqdim etti. Bular – “Piyoda”, “Pakananing oshiq ko`ngli” asarlaridir.

Bu holyozuvchi nasrida teatr, kino san`tiga xos belgilarning qaror topib borayotganligidandalolat beradi.

²⁸Бахтин М. Литературно-критические статьи: – М.: Художественная литература, 1986. Стр. 122.

Yozuvchi nasridagi makon kategoriyasining siriqligini, ko'p hollarda birgina mikromakonda kechishini – bu sahnaviylikning “joy birligi” aqidasidan kelib chiqqan hosila, desak xato bo'lmas.

Erkin A'zam kinoqissalari va dramatik asrlarida ekspozitsiya, portret, peyzaj, bir-biriga qo'shilib, yagona sujet bo'lagiga aylanadi. Kinoqissalar va dramatik asarlarning muqaddima qismlari remarka vazifasini o'taydi. Dramatik asar hisoblangan “Jannat o'zi qaydadir”da remarka beriladi, bu voqea kechayotgan joy, qahramonlar to'g'risida ma'lumotnoma. Biroq kinoqissalarda janr talabiga muvofiq bu ma'lumotlar sochilgan holda taqdim etiladi. Shuningdek, yuqorida ta'kidlanganidek, portret, peyzaj ekspozitsiyaga singdiriladi. “Qarzdor” kinoqissasini ko'rib o'tish shu jihatdan xarakterlidir.

Asar sujeti asosida yotgan voqealar qismlarga bo'linadi. Har bir bo'lim alohida bir epizodik voqea va obrazlar tizimidan iborat. Sujetning ma'lum nuqtasiga yetgach, ular orasida bilinmayotgan, ko'rinmayotgan aloqadorlik kuchayib, yagona sujet o'zaniga quyiladi. Hozir har bir qismning muqaddimalarini ko'zdan kechiramiz. “Qarzdor” kinoqissasi birinchi faslining muqaddimasi:

“Tuman etagidagi adirliklarga tutashgan sayxonlikda betma-bet qad rostlagan uch –to'rtta qo'sh qavat bino – jaydari “dom”lar. Negadir tevarak atrofda dov-daraxt siyrak. Imoratlar orasidagi maydonchalar ham allanechuk tashlandiq, fayssiz. Bor “qulaylik-u noqulaylik” tashqarida – hovlida: beton ariqchada jildirab turgan yoysimon suv quviri – girdi namhush; betartib qo'nqayib turgan to'rt-besh tandir; o'rtadagi u er-bu yeri “kal” chimzorlar ikkitami uchta echki timirskilanib yuribdi; bir chetda bostirmasimon hojatxona – “M”, “J”.

Shimoltarafda xo'mrayib tog' tizmalari ko'rinadi. Yaqin, juda yaqin. Kunchiqar osmoni oqarib-yorishib kelayotir.

Tong pallasi. Hovli hali durist jonlanmagan. Omonat bir jimlik”²⁹.

Ikkinchi faslining muqaddimasi buyumlar tasviridan iborat. Buyumlar tasvirini san'at va adabiyotshunoslik tilida natyurmort deymiz.

²⁹Аъзам Э. Гули гули. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. 117-б.

“Adirlar bag`ridan o`rgan katta yo`l bo`yidagi chorraha. Nazorat posti: ola-bula shlagbaum, ola-bula butka, rezina g`ildirakka o`rnatilgan vagon va hakoza.

Beriroqda, yosh-yosh tollar tagida omonat oshxona: yengil stol-stul, yo`lovchi xo`randalar. Atrofda, oftobning tig`ida boshiga gazetadan soyabon qalpoq yasab olgan “tadbirkor” xotin-xalaj har turli yegulik sotib o`tiribdi: quyug osh, ayron, qatiq-suzma, tog` giyohlari, olma-yu nashvati”³⁰.

Keltirilgan misollardan ham ko`rinib turibdiki, nasriy asar bilan kinoga mo`ljallangan nasr kompozitsiyasida tafovut katta. Nasriy asar tahliliga yo`naltirilgan nazariy qarashlar bilan kinoqissalarga yondashish o`zini oqlamaydi.

Bir paytlar dramatik asarlar faqatgina sahnaga qo`yishga mo`ljallangan edi. Dramatik asarlar Shekspirdan so`ng ham qiziqish uyg`otadigan bo`ldi.

Erkin A`zam kinoqissalarida ham shunday bir holni kuzatish mumkin. ErkinA`zam kinoqissalarida faqat ekrandagina emas, o`qiganda ham kitobxonga estetik zavq-shavq bag`ishlaydi, badiiy barkamolligi bilan kitobxonni hayajonlantiradi.

Shunisi e`tiborliki, Erkin A`zam nasri teatr, kino san`ati xususiyatlariga to`yinib, orginallik, o`ziga xoslik kasb etyapti. Bu uning nasrdagi uslubiy izlanishlarida, sujet va kompozitsiya qurilishlarida yaqqol namoyon bo`lmoqda.

Atoqli adabiyotshunos Izzat Sulton dramatik asarlar haqida quyidagilarni qayd etadi:

“Ayni chog`da drama turi boshqa adabiy turlarga mansub asarlardan o`zining bir imtiyozi bilan ajralib turadi: dramatik turga mansub asar o`zining adabiyotga mansubligini yo`qotmagan holda, sahna va ekranda ikkinchi marotaba tug`iladi.

Hayot va estetik o`zlashtirishning murakkabligi shunda ko`rinadiki, dramatik asarning sahna va ekranda ikkinchi marotaba tug`ilib, ikkinchi hayot kasb etishi ma`lum darajada uning kam o`qilishiga sabab bo`ladi: dramatik asarni sahna yo

³⁰Аъзам Э. Гули гули. – Т.: Фафур Фулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. 119-б.

ekranda ko`rgan oddiy tomoshabin uni o`qishga yana zaruriyat sezmaydi. Faqat yuqori madaniyatli tomoshabingina teatr, sahnada yo ekranda ko`rgan asarining adabiy asosi bilan yana tanishuv katta estetik va ma`rifiy ahamiyatga ega ekanligini tushunadi. Bu proza va poeziya asarlarining qayta-qayta o`qilishidek tabiiy bir hodisadir”³¹.

Ta`kidlash joizki, teatr san`ti va kino san`ati bir-biridan keskin farqlanadigan san`at turlari hisoblanadi. Erkin A`zam bir-biriga uncha ham yaqin bo`lmagan san`at turlarini o`z ijodida sintezlashtirayotgan ekan, o`ziga xos va rang-barang asarlar yaratayotgan ekan, demak, bu zamonaviy nasrimiz uchun yangi, istiqbolli yo`nalish ekanligini ochib berishi shubhasizdir.

Rus adabiyoti uchun Vasiliy Shukshin ana shunday noan`anaviy bo`lib tuyulgan yo`lni boshlab bergan edi. Uning kino, teatr san`ti bilan bog`liqligi o`zining yorqin ifodasini topgandi. Shuningdek, Shukshin o`z iqtidorini rejissyorlik, aktyorlik sohasida ham sinab ko`rgan ediki, bu uning ijodida beiz ketmadi.

Erkin A`zam ham o`zbek adabiyotida shunday bir yo`nalishni joriy etdi. Bu uning turli janrdagi asarlarida namayon bo`ladi.

Badiiy asarlarda, ekspozitsiya, portret, peyzaj, asosan, uch yo`l orqali ifodalanadi:

1) badiiy matnning muayyan bir bo`laklarida mazkur sujet bo`lagi qismini mukammal, har tamonlama keng tasvirlash. Bu usulni, ayniqsa, “O`tgan kunlar” romanida ko`rish mumkin. Bu romanda ekspozitsiyaning bir nechta mukammal namunasini uchratish mumkin. Marg`ilondagi karvonsaroy, Mirzakarim Qutidor, Usta Olim, Sodiq hovlilari, Xo`ja Ma`oz qabristoni tasviri badiiy jihatdan barkamol chizilgan;

2) ma`lum bir joyning tasvirini qismlarga ajratib, badiiy tasvir talabi, muallif ijodiy-falsafiy konsepsiyasiga muvofiq ularni badiiy matnning turli o`rinlariga joylashtirish;

³¹Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. 268-б.

3) Ekspozitsiya (shu jumladan, peyzaj, portret)ni qisqa satrlarda, siqiq holda berish, qisqa tasvir orqali joy, tabiat, badiiy suvratni ifodalash.

Erkin A'zam nasri sujet qurilishida ana shu uchinchi yo'l ko'p istifoda etiladi. Uning "sof" nasrida kinoqissalari va dramalarida ham ana shunday o'ziga xos ekspozitsion usulni uchramiz.

Erkin A'zam nasrining kompozitsion qurilishi o'ziga xos. Unda sujetning tarkibiy qismlari an'anaviy emas. Tarkibiy qismlar o'rin almashtirib kelaveradi. "Otoyining tug'ilgan yili", "Javob", "Bayramdan boshqa kunlar" qissalarida ekspozitsiya kechiktirib beriladi.

"Otoyining tug'ilgan yili" tugundan boshlanadi, so'ng voqea rivojiga o'tiladi. "Mashrabning oti nega mashrab? Ona qornida yig'lagani uchunmi? Ajabo, u nimaga yig'lagan ekan?" (Kechikayotgan odam. 6-bet) Sujet tugunini hosil qiluvchi ana shunday jumboq-so'roqlar yarim sahifani tashkil etadi.

"Javob" qissasining muqaddimasini o'qiymiz:

"Bu odam birdan o'zgarib qoldi. Hammaning ko'z o'ngida o'zgardi, butunlay o'zgardi. Yurish-turishi ham, atrofdagilarga munosabati ham oldingidek emas. Go'yo avvalgi Nuriddin Elchiyev qayoqqadir g'oyib bo'lgan-u, uning qiyofasida boshqa kishi yuribdi: rangi-yu raftori o'sha-o'sha, lekin ichiga o'zga birodam kirib olgan"³².

Har ikkala asar muqaddimasi jumboq – muammoli bir masala bilan boshlanadi. Muqaddimadagi sir, tugun o'quvchining e'tiborini darhol qaratadi.

Har ikkala qissada ham ekspozitsiya sujet bo'laklari aro sochilib ketgan. Ekspozitsiyani sahifalar osha izlashga to'g'ri keladi.

Tugundan so'ng keladigan voqealar rivoji ham ko'nikib qolganimiz voqealar rivojiga o'xshamaydi. Voqea rivoji odatdagidek shiddat bilan emas, sekinlik bilan rivojlana boshlaydi. Undagi bu "sekinlik" muallif va qahramon hamda qahramon nutqidagi psixologik mushohadakorlikka keng yo'l ochganligi tufayli yuzaga

³²Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: "Шарк" нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 70-б.

chiqadi. Muallifning psixologik xarakteristikasi va qahramon ichki monologi birbutun holda voqealar rivojini sustroq amalga oshiradiki, bu bugungi zamonaviy nasrimizga xos belgi, desak to'g'riroq bo'lar.

Yozuvchining aksariyat asarlarida sujet voqealaridan oldin prolog keltiriladi. Ma'lumki, prolog o'ziga xos kompozitsion usullardan bo'lib, xuddi sarlavha singari sujet mohiyatiga kirish uchun kalit vazifasini bajaradi.

“Otoyining tug'ilgan yili” qissasida “Oshiq G'arib va Shohsanam” dostonidan “Aytsam o'ldururlar, aytnasam o'lam” misrasi prolog tarzida keltiriladiki, bu shartaki deb nom olgan qissa qahramoni ruhiyatini ochishga xizmat qilgan.

“Bayramdan boshqa kunlar” qissasi ham muallif nutqidan berilgan prolog bilan boshlanadi:

“Qadim o'tgan zamonda emas, uzoq olis tomonda ham emas, mana shu kecha kunduzda, mana shu shahri shovqinda bir yigit yashar edi. U bolaligidan boshlab uchmoqni, uchuvchi bo'lishni orzu qilar edi. Ammo sharoit taqazosi bilan niyatiga yetolmay qoldi. Yerdan qolib ketdi. O'zi yerdan yursa ham hali hanuz orzusi – osmon! Bu orzuning etagida yashab, u bir holat sarguzashtlariga duch kelibdi.

Hikoyamiz shu haqda”³³.

Nazarimizda, ushbu prolog asarning umumkompozitsion yaxlitligiga unchalik ham o'rnashmagan. Chunki unda badiiy qimmatga ega biror bir xarakterli xususiyat aksini topmagan. Yozuvchining bu izohi shunchaki information xarakterdagi ma'lumot, xolos. Asarning keyingi nashrlarida bu izohdan butunlay voz kechilsa, ma'qul bo'ladi. Kitobxon asarni o'qish jarayonida yozuvchi izohsiz ham zamon haqida, qahramon to'g'risida shu ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Erkin A'zam nasrining kompozitsion o'ziga xosliklaridan biri sifatida unda yechimning yo'qligi, finalning ochiq qolishidir.

Yuqorida ko'rib o'tilgan qissalarning xulosa qismlarini, ya'ni sujetlarning yechim qismlarini ko'rib chiqamiz.

“Otoyining tug'ilgan yili”:

³³Аъзам Э. Кечикаётган одам. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002. 70-б.

“Biroq valinematim aytishi mumkin boʻlgan boshqa bir gap meni qiynaydi: “Uloqqa kirgan chavondoz boshini ham oʻylagani maʼqul – uloq mingta, bosh esa bitta!”

Bitta, bit-tagina!

“Darvoqe, Mashrabning oti nega Mashrab?”³⁴

“Javob” qissasining xotimasi:

“Bizani kechiring, oka. Yoshlik qilibmiza. Ollo shipo berinla”³⁵

“Bayramdan boshqa kunlar” xotimasi:

“Shunda boʻm-boʻsh ketib borayotgan avtobusning ikki yonida qanot paydo boʻldi – uchoqqa aylandi. Ichkari yoʻlovchilarning gʻovur-gʻvuriga toʻlib ketdi. Hammasi uchuvchining oʻzi tanlab olgan odamlar. Begonasi yoʻq.

Uchoq parvoz maydoniga yetib bormoqda. Mana, hozir yerdan koʻtariladi, hozir...

– Osmon safariga yoʻl olgan aziz doʻstlar! Havo kemamiz erkin parvoz boʻyiga uchishga shaylanmoqda”³⁶.

Har uchala qissa soʻngida ham xotima ochiq qolmoqda. Voqealar oqimi ham, muallif nutqi ham aniq va ochiq-oydin bir xulosalarga olib kelmaydi. Muayyan yechimga kelish yo kelmaslik kitobxon eʼtiboriga havola qilinadi.

Yuqoridagi boblarda eslatib oʻtganimizdek, sujetning oʻzagi konflikt asosan qahramon ruhiyatida kechadi.

Erkin Aʼzam nasrida konfliktning tashqi koʻrinishlari ham uchraydi, biroq bu ziddiyatlar qahramon yo personaj ruhiyatida kechadigan konfliktning yordamchi xalqalari, yaʼni ichki konfliktga yetaklab keluvchi yordamchi unsurlari. “Javob” qissasida koʻrinib turgan tashqi konflikt Nuriddin Elchiyev va sotuvchi yigitlar bilan boʻlgan majoralari epizodi. Biroq bu ziddiyat qahramon tabiatida yetilib, pishib kelayotgan konfliktni yuzaga chiqaradi. Xarakterlararoboshqa toʻqnashuv uchramaydi. “Otoyining tugʻilgan yili”, “Bayramdan boshqa kunlar”, “Shoirning toʻyi” kabi qissalarining birortasida ham qahramonlararo ochiq

³⁴Oʻsha manba 69-bet

³⁵Oʻsha manba 155-bet

³⁶Oʻsha manba 310-bet

to'qnashuvga duch kelmaymiz. Erkin A'zam nasridagi konflikt psixologik, xarakter ruhiyatida kechadigan konflikt turi hisoblanadi, bu konfliktning bu ko'rinishi esa o'z-o'zidan tasvirda psixologik o'y-kechinmalarning salmog'ini oshiradi.

Ma'lumki, peyzaj tasviri bilan ekspozitsiya o'rtasida ichki yaqinlik bor. Har ikkalasi ham muallif nutqidan joy oladi. Ekspozitsiya voqea bo'layotgan joy - uy, ko'cha, shahar, karvonsaroy, qabriston, bozor, shunga o'xshash joy tasvirini chizsa, peyzaj o'sha joyning tabiati manzaralarini chizadi.

Peyzajning ikki turini ajratib ko'ratish mumkin:

- 1) badiiy asar qahramoni ruhiy holati bilan bog'liq tabiat tasviri;
- 2) ob'ektiv tabiat tasviri – bunda tabiat tasviri qahramon ruhiyati bilan bog'liq bo'lmaydi.

Erkin A'zam asarlarida peyzajning birinchi turi ko'proq uchraydi. Misol uchun, "Bayramdan boshqa kunlar" qissasining muqaddimasida tugundan so'ng peyzaj tasviri keladi. Peyzaj asar qahramoni Bakirning ruhiy holatiga, ko'tarinki kayfiyatiga mos ravishta aks ettiriladi.

Muallif xarakteristikasi ham yozuvchi nasri kompozitsiyasida muhim o'rin egallaydi, ko'pincha asar tugunidan so'ng peyzaj yoki xarakteristika beriladi.

"Javob" qissasining muqaddimasida tugundan so'ng muallif xarakteristikasi keltirilgan. Muqaddimaning bir yarim sahifasi Nuriddin Elchiyev yurush-turishi, turmush, fe'l-atvorga berilgan xarakteristikadan iboratdir.

"Elchiyev hamma qatori ertalab ishga borar, hamma qatori kechqurun ishdan qaytar, bir xususiyati – shaxmatbozlik-u gazetxonlikka suyagi yo'q edi: qo'li bo'sh qoldimi, o'tirib olib yo shaxmat suradi, yo gazeta o'qimoqqa tushadi. Uning yana bir jihati – ulfatchilikni xush ko'radi, bir zum ham yolg'iz turolmaydi. Ishdan keyin goho o'ziga o'xshagan xizmatdoshlari bilan ko'chani nargi betidagi tutun-u turfa olomonga to'la, g'ala-g'ovur qahvaxonaga o'tib andak shakarguftorlik qiladi. Kosagullik mudom uning zimmasida; askiya aytishadi, kuladi, kuldiradi, davrada o'zini ham ayamaydi, boshqani ham – sho'x-shalayim, odamning joni. So'ng ana

shu xushvaqtlikni uyiga ham olib qaytadi, xazillashaverib xotin-bolachaqaqasining ichagini uzadi.

Choyxonapolovlarda oshning sabzisini albatta Elchiyev to`g`raydi, yoshlar qolib, o`tni ham o`zi yoradi, o`zi olov qalaydi. Bu yumushlarni u birovning gapi bilan emas, o`zidan bilib qiladi – go`yo faqat uning ishi, uning burchi. Boshqa mavrid-marosimlarda ham ko`pchilik ep ko`rmagan yoki bo`yni yor bermagan dahmazalarga Elchiyev balogardon. Goho chunon hokisor bo`lib ketadi, lekin o`sha vazifani bajaradi. Boshqalar esa bunga o`rganib qolishgan, biror sababga ko`ra Elchiyev o`z o`rnida bo`lmasa – ajablanishadi, hatto ta`na qilishadi: “Iya, Elchiyevich?!” “Nega endi Elchiyev? Nega boshqa odam emas-u, aynan Elchiyev?”, deydigan mardum yo`q. Ularning nazarida Elchiyev shunday, shunday bo`lishi kerak, Elchiyev qilishi kerak, chunki u – Elchiyev! O`zi ham bunga ko`nikib ketgan, ba`zida dili og`riydi-yu, ammo kimsaga sezdirmaydi: mayli, xafa bo`lishmasin, men qilsam nima bo`pti, biror joyim kamayib qoladimi?

Elchiyev turmushidan nolishni bilmagani kabi, undan biror bir mo`jiza kutmas, bor baxtiga shukrona aytib yashashga odatlangan edi. Kamsuqumlighi tufaylimi, u talay yillardan buyon qimirlamay bir kursida o`tirar, kechagina kelganlar to`rga o`tib buyruq berganida hayratlangan misol bir qarab qo`yib, ichida “e, shunday bo`pti-da”, deya, aytilgan ishni bajarib ketaverar edi. Shundanmi, o`zi o`ylamaganidek, uning lavozimini oshirish boshqalarning ham hayoliga kelmasdi. Ularga shu Elchiyev – Elchiyevning shundayligi yoqar, o`zlarining unga yoqish-yoqmasligi haqida bosh qotirishmas, zotan bunga hojat ham yo`q edi”³⁷.

Erkin A`zamning hikoya, qissa, romanlari sujeti va kompozitsiyasi tuzilishidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin.

1) aksariyat asarlarida prolog voqea va qahramon ruhiyatiga kirish uchun ochqich vazifasini o`taydi;

2) ekspozitsiya – yoyiq, sochilgan holda, sujetning boshqa tartib qismlari bilan birga aralash tarzda keladi;

³⁷ Аъзам Э. Кечикаётганодам. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбааакциядорлик жамияти, 2002. 71-б.

3) sujet ko`pincha tugundan boshlanadi hamda peyzaj va xarakteristika tasviridan so`ng voqealar rivojiga o`tiladi;

4) sujetning o`zagi konflikt, ya'ni kulminatsion nuqta, asosan, qahramon ruhiyatida kechadi;

5) sujet tarkibiy qismlarining an'anaviy o`rni o`zgargan. Ekspozitsiya, tugun, voqealar rivoji, kulminatsion nuqta, xotima qismlari ba'zan ochiq oydin namoyon bo`lmaydi;

6) tayyor xotima, xulosa, yechimga kelinmaydi. Sujetning bu bo`lagi kitobxon e'tiboriga havola qilinadi;

7) voqeabandlikdan ko`ra o`y-mushohadaning roli baland, bu esa matnning modernistik tafakkur tarzi bilan uyg'unlik kasb etganligini ko`rsatadi.

Sujet va kompozitsiyaning Erkin A'zam ijodida bunday tartiblarda uchrashi ijodkorning qahramon xarakteri va ruhiyatini ochishga alohida e'tibor qaratishidan dalolat beradi. Adib o`z asarlarida bugungi kun insonlarini tasvirlaydi. Ma'lumki, bugun hayot juda tez, o`zaniga tushgan har qanday inson salgina izdan chiqsa, g`arq bo`lishi mumkin. Insonlar ruhiyati ham shunga mos tarzda murakkablashib bormoqda. Inson ruhiyatidagi o`zgarishlarni tasvirlash esa yozuvchidan mahorat, tajriba talab qiladi.

Demak, Erkin A'zam sujet va kompozitsiya yaratish va o`ziga xos tasvir usuli bilan o`zbek adabiyotida yangi yo`nalish ochib berdi.

Adib nasrida kompozitsiyasining yana bir muhim jihati shundaki, qisirma hikoyalar asar mazmunidagi estetik ta'sirni oshiradi. Kitobxonga ma'naviy ozuqa berish bilan birga muallif aytmoqchi bo`lgan go`yani tezroq yetkazadi. Atoqli qirg`iz adibi, jahon adabiyotining buyuk vakillaridan biri Chingiz Aytmatovning "Qiyomat" romanida mashhur "Oltovlon va yettinchi" hikoyasi keltiriladi. Bu hikoyada Vatan ozodligi uchun kurashayotgan Go`ram Jo`xadze boshliq to`da ichidagi yettinchi (xiyonatkor do'st) ularning halokatiga sababchi bo`ladi. Ya'ni hammasini paytdan foydalanib otib tashlaydi. Bu hikoya asar g`oyasini tashuvchi ulkan ko`prik vazifasini o`tagan. Butun bir insoniyat fojiasi haqidagi bu asarda odamlarning bir-biri bilan urush qilib, o`zlarining boshiga o`zlari kulfat keltirishi,

do`stingman deb, ishonchingga kirganlar aslida xiyonatkor, tubanlik iskanjasidagi maxluq ekanligi ayon bo`ladi. Aynan xiyonatkor yettinchi ham tubanlashgan inson vakili. U insoniylikni unutib yuborganiga ancha bo`lgan. Dunyoda insondek beozor jonzod yo`q, dunyoda insondek vaxshiy jonzod ham yo`q.

Xuddi shunday Erkin A`zamning “Shovqin” romanida keltirilgan “Shayx San`on” hikoyasi ham romanning tub mohiyatini ochishda o`ta muhim detal sanaladi. Chunki asar qahramoni Farhod Ramozon Vikani o`zgacha bir sof tuyg`ularga o`rab sevadi. Shayx San`on ham Tarso qizini o`zligini unutib sevgani kabi. Shu o`rinda Shayx San`on obraziga ta`rif berib o`tsak. Bu shaxs tasavvuf adabiyotida ko`p tilga olingan. Alisher Navoiy o`zining “Lison ut-tayr” asarida “Shayx San`on” qissasini keltiradi va bu asar orqali quyidagilarni bilib olamiz.

Shayx San`on ismli avliyo Ka`badagi barcha shayxlarga murshid – ustoz darajasida edi. Uning 400ga yaqin muridi bo`lib, ularning har biri Junayd va Boyazidlarga teng edi. Shayx San`on biror narsani tushida ko`rsa, bu narsa o`ngida ham yuz berardi. Bir kuni tushuda Rum elida butxona ichida mast holda sayr qilib yurganligini ko`radi. Uyg`onib, bu holiga tavba qiladi. Lekin bu tush bir necha marta takrorlangach, uning ta`biri taqdiri bilan bog`liqligini anglab, o`z shogirdlari bilan Rum sari yo`l oladi. U yerda ko`plab qiyinchiliklardan so`ng Shayx Tarso qizning muhabbatiga erishadi.

Umuman bu qissa tasavvufiy ruhdagi asar bo`lib, sof ilohiy ishq kuylanadi. Ammo Erkin A`zam bu hikoyani romanga bejizga kiritmagan. Farhod ham xristian diniga mansub, e`tiqodi, qarashlari yod bo`lgan qizni yoqtirib qoladi. Shunchaki emas, butun borlig`i bilan yoqtirib qoladi. Bundan tashqari Vika Farhoddan ancha kichik edi, Xuddi mo`ysafid Shayx va Tarso qizi singari. Farhod esa Vikaning onasi Gulyadan bir necha yoshga kichik bo`ladi. Roman mazmuni bilan hikoya mazmuni o`rtasidagi bog`liqlik shu qadar bir-biriga mos tushganki, asarning umumiy mazmuniga putr yetkazmaydi. Balki hikoya asarning umumiy mazmunini boyitishga xizmat qilgan. Shu o`rinda Farhod ruhiyatiga mos bir tasvir mavjud.

“...Poyonsiz sahro. Ikki qo`lida chalajon tarsoni ko`tarib olgan Shayx motamsaro odimlab ufq sari ketayotir. Ortidan muridlari, xalfalari...

Shayx sevikli yorini baland bir barxan uzra avaylabgina yotqizadi-da, qoqshol qo'llarini ko'kka kerib nola qiladi:

– Shuncha sinov-u sinoqlar evaziga bandangga ravo ko'rganing shu bo'ldimi, yo Oллоh?!

Daf'atan ko'kdan gumburlab sado keladi:

– Bu olamda hech zotga buyurilmagani senga nasib etdi, ey bandam, shukr qil!

Tizzalari dir-dir bukilib, mo'ysafid oshiq navqiron, ammoendi tiriklikni tark etgan ma'shuqasi ustiga qulaydi”³⁸.

Shayx sevgilisiga yetganida undan ayriladi. Farhodning ham qismatida shu bitik bor edi. U Vikani qanchalik sevmasin oilasi, ajoyib turmush o'rtog'i bor, ulardan voz kecholmaydi. Buning iloji yo'q. Boshqa birov bo'lganida voz kechishi mumkin edi, ammo Farhod unday qilolmaydi. Ishqini yuragining tup-tubiga ko'mib yuboradi. Shunday ishqqa oshno bo'lganining o'zini Shayx San'on singari Allohning oliy tuhfasini deb qabul qiladi. Boriga ko'nikib yashayveradi.

Bu hikoya asarga Farhod ruhiyatini ochib berish uchun kiritilgan bo'lib, kitobxonda Farhod ruhiyati bilan Shayx San'on ruhiyatini qiyoslash imkoni tug'iladi. Ya'ni muallif o'sha vaziyatdagi qahramon ruhiy istiroblarini chuqur tasvirlashdan ko'ra tayyor ruhiy holat ifodasini asarga olib kiradi. Bu bilan adib Farhodning ruhida majoziy ishq bilan birga ilohiy ishq ham borligini e'tirof etmoqchi.

Erkin A'zam ijodida ana shunday qisirma hikoyalarning asar mazmuniga hamohang jo bo'lishini kuzatishimiz mumkin. Bu adibning kompozitsiyagi yaratishdagi o'ziga xos xususiyati hisoblanadi.

³⁸Аъзам Э. Шовкин. – Т.:О'zbekiton, 2011. 181-б.

3.2.Sujet va kompozitsiya birligi

Erkin A'zam asarlarida sujet va kompozitsiya jihati bilan o'zбек adabiyotida yangi birqir irahosil qilindi. Buning sababi shundaki, adib asarlaridagi voqealar har bir kitobxonning diqqat markazida turadi. Ya'ni u oddiy o'quvchi, xoh yuqori saviyali kitobxon yoki adabiyotshunos bo'lsin baribir adib asarlarini o'zgacha bir mulohaza, mantiq bilan o'qishga majbur. Chunki yozuvchi asarlarini o'z uslubiga xos sujet va kompozitsiya asosida yaratgan.

Sujet va kompozitsiya asarni shakllantiruvchi vosita bo'lib, ular bir-birisiz qo'lsiz, oyoqsiz odam kabi. Agar asarda ikkisidan biri bo'lmasa, bu mantiqizlik hisoblanadi. Xuddi "Guliverning sayohatlari" asarida Laputa mamlakatida yashaydigan bir "alloma"ning uyni poydevoridan emas, tomidan boshlab qurish kashfiyotiga o'xshaydi.

Sujetning badiiy asardagi funktsiyasi haqida gap ketganda, avvalo, uning asar problemasini badiiy tadqiq etishga imkon beradigan hayot materialini uyushtirib berishini aytish kerak. Demak, sujet asarda mavzuni shakllantirgani holda, uning qanday bo'lishi mazmunga, muallifning ijodiy niyatiga bog'liq bo'lib qoladi.³⁹ Haqiqatdan ham, asar sujetiga asos qilib olinadigan voqealar muallif xohishiga binoan tanlanadi va qanday g'oyani ilgari surishiga ko'ra, yozuvchi o'zining tasvir usulidan kelib chiqib sujet elementlaridan kerakli foydalanadi. Kompozitsiya esa asrning libosi hisoblanadi. Kiyimsiz odamni bir tasavvur qiling, qanday xunlik manzara. Kompozitsiyasiz har qanday asar kiyimsiz ko'chada daydib yurgan odamga o'xshaydi. Har bir ona o'z farzandini chiroyli va bejirim kiyintirishga uringanidek, har bir yozuvchi ham o'z asarini xuddi shunday qoliplashga harakat qiladi. Bundan ko'rinadiki, sujet va kompozitsiya birligi bilan bir qatorda yozuvchi mahorati asarning muvaffaqiyatini belgilab beradi.

Erkin A'zam tasvir usuliga e'tibor beradigan bo'lsak, u voqealarni shunchaki tasvirlab ketayotganga o'xshaydi. Ammo voqealar rivojida ular bir oqimda birlashadi va asar g'oyasining yuzaga chiqishida muhim ahamiyat kasb etadi.

³⁹Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – T.: Fan, 2002. 108-b.

Misol uchun, “Zabarjad” kinoqissasi boshlanishi shunday tasvirlar bilan boshlanadi:

“... Qizaloq suv yuziga bir qalqib chiqadi-yu, jon holatda tipirchilay-tipirchilay cho`ka boshlaydi.

Nargi qirg`oqdan o`zini suvga tashlagan ota uch-to`rt hamlada qizga yetib oladi-da, uni boshi uzra otib yuboradi. Keyin ikki-uch marta talpinib yuzaga chiqadi-yu, birdan ko`rinmay ketadi...”⁴⁰

Shundan so`ng “Zabarjab degan bir... qiz deymizmi endi, juvonmi...” xullas, uning xoli bir xonadon (kvartira)da biz uchun notanish kimsa bilan suhbat va boshqa tasvirlar beriladi. Keyin zinalardan tushib ishga ketayotgan Zabarjad ismli qizning yo`l-yo`lakay qo`shnilari bilan qilgan quvnoq suhbat tasvirlanadi. Shu zailda voqealar rivoji davom etib ketaveradi, hattoki asar boshidagi qizaloq bilan bog`liq tasvir esdan ham chiqib ketadi. Asar o`rtalariga kelganimizda Zabarjabga qarab onasi, Vazira opa dabduristdan shunday deydi:

“ – ... Billsang, o`sha tashlandiq mozoristoninga qadam ham bosgim yo`q! Bordim deguncha, eski dardim yangilanib, yana motamga botaman! Sen bor, sen bor! Sen qotil bor! Dadang seni deb, sening o`rninga!...”

Shu joyda birdan o`sha voqea yodimizga tushdi va soyga cho`kib ketayotganida dadasi qutqarib qolgan qiz Zabarjad ekanligini anglab qolamiz.

Anashundaynoan`anaviyasvirjarayonidayozuvchiasarningmazmun-mohiyatidankelibchiqib, sujetelementlariniturlichaqo`llaydi. Ba`zi asarlarida muallif sujet unsurlaridan faqat tugun, voqealar rivoji va kulminatiyadan to`liq foydalanadi. Ekpozitsiya esa sujetning ana shu uch elementi mavjud asarlarda sochma tarzda uchraydi. Bu hol asarning kitobxon tomonidan turli mulohazalarga tortilishiga sabab bo`ladi. Misol uchun, Erkin A`zamning “Shovqin” romani sujetiga e`tibor beraylik. Asarda kinochilar hayotini tavirlash bilan birga “Qayta qurish” davrida yuz bergan xalq orasidagi alg`ov-dalg`ovli kunlar, davlat miqyosida avj olib borayotgan siyosiy jarayonlar hikoya qilinadi.

⁴⁰Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. – Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 96- б.

Darhaqiqat, “Qayta qurish” siyosati ko`plab xalqlar qatori o`zbek xalqining ham hayotida salbiy ro`l o`ynadi. Chunki bu davrda odamlar ertaga o`zlarini nima kutayotganligini bilishmas, ertangi kundan umidlari so`nib borayotgan edi. Ularning ongida nima kechayotganligini anglash qiyin, ko`zlaridagi quvonchini kimdir tortib olgandek edi, go`yo. Bu jarayonlarning tasvirlanishi asarning asosiy voqealariga aloqasi yo`qdek tuyulsa-da, aslida asarni g`oyaviy jihatdan mukammallikka yetaklagan. Chunki bu voqealarning guvohi bo`lmagan yosh kitobxonlar xalqimiz Mustaqillik arafasida o`z boshidan ko`plab qiyinchiliklarni o`tkazganligini bilishi kerak. Ozodlik o`z-o`zidan qo`lga kiritilmaganligini anglab yetishlari lozim. Quriq tarixiy faktlardan ko`ra, badiiy tasvirlar vositasida tarixiy haqiqatni jonli tasavvur qilish osonroqdir. Tarixiy haqiqatni ishonchli va tabiiy qilib badiiy haqiqatga aylantirish esa yozuvchi mahoratiga bog`liq.

“Shovqin” romanida Erkin A`zam tarixiy jarayonlarni xuddi ko`z oldimizda yoki kino ekranda bo`layotgandek tasvirlaydi. Ana shunday tasvirlardan biriga e`tibor beraylik:

“Sochlari to`zg`ib ketgan qandaydir qarimsiq ayol jazavaga tushib, qo`lidagi to`rvasini tankning biqiniga ura boshladi:

– Ket! Ket! Yo`qol!

Tepadagi askar bola beparvo yelka qisib, muzqaymog`ini yalayveradi.

Ziyolisifat kiyingan yana bir ayol bo`ynini cho`zib undan so`radi:

– Hoy yigit, qachon boshlaysizlar endi ?

Askar tag`in yelka uchirib, yeb bo`lgan muzqaymog`ining qog`ozini g`ijimlay-g`ijimlay pastga otadi.

Ikki xotin to`rvalarini ishga solib o`zaro bo`g`isha ketdi”⁴¹.

Romanda sujetning, asosan, uch elementi (tugun, voqealar rivoji, kulminatsiya)ni ko`rishimiz mumkinligini e`tirof etdik. Ammo ekspozitsiya ham mavjud bo`lib, faqat u sochma tarzda uchraydi. Ya`ni asar boshlanishida hech qanday zamon va makon tasvirlanmaydi, qahramonning tashqi ko`rinishi-yu ichki dunyosi haqida ham ma`lumot berilmaydi. Asar shunday boshlanadi:

⁴¹Аъзам Э. Шовқин. – Т.:О`zbekiton, 2011. 168-б.

“Olis bir shahardan ketma-ket kelgan bu qo`shaloq xabar Farhod Ramazonni shoshirib qo`ygan edi. Shoshirib emish, ko`p yillar burun boshidan kechgan eski savdolari qayta tig`lab, nari-berini aytmaganda, bir ma`romda borayotgan” bugungi turmushini alg`ov-dalg`ov qilib yubordi desa bo`ladi”⁴².

Erkin A`zamning ko`plab asarlarida ekspozitsiya sochma tarzda uchraydi. Ekspozitsiyaning asar boshida berilmasdan, sochma tarzda berilishi natijasida o`quvchi voqealar yuz berayotgan makon va zamon, asar qahramonlarining xarakteri haqida mutoala jarayonida tasavvur hosil qilib boraveradi. Yozuvchi o`zi tasvirlayotgan voqea va voqea joyi bilan tanishtirmaydi, qahramonlar haqida batafsil ma`lumot bermaydi. Bu kitobxonni yanada ziyraklikka undaydi. Chunki kitobxon asar voqealari qayerda sodir bo`layotganligini, qahramonlar qanday insonlar ekanligini bilib olish uchun asarga yanayam chuqurroq kirib borishlariga to`g`ri keladi.

Adib o`zining “Shovqin” romanida ekspozitsiyaning asar ichiga sochib yuboradi. Erkin A`zam romanda ko`proq makon va zamon tasviridan ko`ra qahramonlar bilan tanishtirish, ularning xarakterini ochish, voqealar yuz berayotgan jamiyat haqida ma`lumot berishga harakat qiladi. Makon va zamon haqida ma`lumot berilmasa-da, ammo voqealar rivoji davomida ular haqida ma`lumotga ega bo`lib olamiz. Shu tariqa o`quvchi mutoala jarayonida qahramonlar xarakteri haqida ham, asardagi makon va zamon haqida ham tasvur hosil qilib oladi. Bu ma`lumotlar asarda ba`zan muallif tilidan, ba`zan qahramon tilidan bayon qilingan.

“Atay sheriklaridan qochib orqadagi bo`sh o`rindiqqa o`tib olgan safar, gurihining rahbari – san`at arbobi Farhod Ramazon daf`atan bezovtalandi.

... Mirzo Ramazon, komsomoldan yetishib chiqqan jaydari bir romantik emasmi, ayni o`sha kezlarda tug`ilgan to`ng`ichiga, davr bilan hamqadam bo`lmoq ilinjida, hovliqib ana o`sha sersoqolning otini qo`ygan (muallif nutqi).

... – Hali aytdimku-ku, chalaroq bo`lsayam o`zbek qiziman. Pasportimni ko`rsataymi? Ota-buvamiz g`irt toshkentlik. O`zim Toshkentda tug`ilib o`sganman,

⁴²Аъзам Э. Шовқин. – Т.: O`zbekiton, 2011. 5-б

maktabniyam Toshkentda bitirdim. Oyimning palagi esa – polyak, ota-onasi urish yillari Ukrainadan kelib qolgan ekan”⁴³(Gulya Lagutina).

“Pakananing oshiq ko`ngli” qissasi, muallif ta`biri bilan aytgan “Bo`y va mo`y o`stirish tajribasi yoxud ruh tarbiyasi”da asar boshidayoq Pakana haqida ma`lumot beriladi. Bu esa Erkin A`zam kompozitsiyadan faqat sochma tarzda emas, balkim tugundan oldin, tartib bilan, bir butun holda foydalangan o`rinlar borligidan ham dalolat beradi.

“Pakana yurgan yo`lida shart-muqarrar kimnidir suyib qolaveradi. Buni qarangki, yo yoshi o`zidan katta, yo bo`yi o`zidan uzun sarvqomat qiz-juvonlarga xushtor bo`ladi. Uyga keliboq o`shaning aslidan chandanroq ko`rkam xayoliy siymosini yaratadi – u rassom – shu bahona nazariga ilinib, izhori dil etmoq payida, ilojini topib uni egasiga tortiq qiladi. Ko`ngil bog`laganlari kutilmagan tuhfadan hayrat-hayajonga tushishadi, rahmatlar aytishadi, lekin... yana uchratganda yo tanimagandek indamay o`tib ketishadi, yo Pakana ularni ittifoqo boshqa birov bilan ko`rib qoladi. Doim shunday bo`lgan”⁴⁴.

Erkin A`zamning tasvir usulida ekspozitsiyada makon va zamon haqida batafsil ma`lumot berilmasligiga guvoh bo`ldik, ammo adib kinoqissalarida bu tasvir usulidan qochadi. Chunki kinoqissa tele ekranga mo`ljallangan material bo`lganligi uchun unda tabiat tasvir, voqea yuz beryotgan payt, voqea manzilining qiyofasi zaruriy xusuiyatdir. Agarda voqea joyi bilan davr bir-biriga mos tushmasa mazmunga ham putur yetadi. Shunday ekan, yozuvchi kinoqissalarida voqea manzili va vaqtini aniq qilib tasvirlaydi.

“Suv yoqalab” kinoqissasi ko`plab kitobxonlar va adabiyotshunoslar e`tiboriga tushgan, o`quvchilarning hurmat va ehtiromaniga sazovor bo`lgan asardir. Bu asar asosida kinofilm ham suratga olingan bo`lib, o`zbek kinochiligida o`z mavqeiga ega filmlardan biriga aylangan. Unda el-yurtga boshchilik qilib, ularning g`am-tashvishi bilan yashagan fidoyi inson – Bolta Mardon haqida hikoya qilinadi. Asar boshlanishi shunday tasvirlanadi:

⁴³Аъзам Э. Шовкин. – Т.: О`zbekiton, 2011. 5-б

⁴⁴ Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. 4-5-б.

“Keng –mo`lgina hovli. Uch tomon imoratning o`rtasi baland ishkomb. Ishkomdan naryog`i quyi daraxtzor bog`.

Saratonning oxirlari. Sahar chog`i.

O`ng qanotda saf tortgan oldi ochiq oshxona, ombor, somonxona-yu sayisxonalar tarafdin tosh terilgan yo`lka bo`ylab oltmish besh yoshlardagi devqomat, vajohatli bir odam kelmoqda. Yelkasida uzun oq yaktak, qo`lida mis obdasta – xilvatda tahorat olib qaytmoqda”⁴⁵.

“Tugun asar voqealarining boshlanishiga turtki bo`lgan voqea, asar konflekti qo`yilgan joydir. Ekspozitsiyadan farqli o`laroq, tugun sujetning zaruriy elementi sanaladi, ya`ni u sujetda, shuningdek, “ichki harakat” dinamikasi asosidagi sujetlarda u yetarlicha bo`rtib ko`rinmasligi mumkin. Tugun, odatda, asarning boshlanishida, ekspozitsiyadan keyinroq beriladi. Ba`zan muayyan badiiy-estetik maqsadni ko`zda tutgan holda, uning o`rni o`zgarishi ham mumkin. Shunisi ham borki, ba`zi katta hajmli asarlar sujetida bir emas, bir necha tugunga duch kelish mumkin”⁴⁶.

Erkin A`zam asarlarida, asosan, asar voqealari tugundan boshlanadi. Misol uchun, “Shovqin” romanida asar bosh qahramoni Farhod Ramazon uzoq bir shahardan ketma-ket qo`shaloq xabar oladi. Bu elektron xabarlarining birinchisi Ravshan Akobirovdan, ikkinchisi Vikadan. Qiziq, shu o`rinda o`quvchida savol tug`iladi. Nima uchun bu xabarlar Farhod Ramazonning bir maromda ketayotgan turmushini alg`ov-dalg`ov qilib yubordi? Keyin o`ylab qarasa Farhod u shaharni ko`rmaganiga o`n yetti yil bo`libdi. Muallif uning u shaharga borishdan qo`rqishini aytadi. Xo`sh nima uchun qo`rqadi? Albatta, bunday qarama-qarshiliklarning kelib chiqishiga olib kelgan biror-bir sabab bo`lishi kerak. Sabab bor. Sababni voqealar rivojidan topamiz. Farhod Ramazon tugundan kulminatsiya sari “parvoz” vaqtida ana shu sababni xotirlaydi va hayollar og`ushida o`n yetti yil ortga qaytadi hamda voqealar rivoji o`tgan zomonda yuz beradi. Bu asar retrospektiv sujet asosida qurliganligidan dalolatdir. Samolyot yerga qo`nganida uni qachonlardir chin

⁴⁵ Аъзам Э. Жаннат ўзи кайдадир. – Т.: “Шарк” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007. 57- б.

⁴⁶ Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.: Fan, 2007. 16-b.

dilidan sevgan Vikasi, undan ayrilishiga sabab bo'lgan qadrdon “do'st”i Ravshan Akobirov va o'n yetti yil oldingi sevgisining mevasi – o'g'li Farhod Farhodovich kutib oladi. Aynan shu kulminatsion nuqtada asar o'z nihoyaiga yetadi.

Muallif asarni kulminatsoin nuqtada tugatib yechimni, ya'ni xulosani o'quvchining hukmiga havola qiladi.

Adibning sujet va kompozitsiya yaratish mahoratiga qoyil qolsmadan ilojimiz yo'q. Chunki sujet va kompozitsiya, ularning elementlarini asarning g'oyasi va mazmuniga xizmat qildirgan olgan. Hattoki asarning ta'sir kuchini kuchaytirish uchun ulardan ikki marotabalab foydalangan desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, “Shovqin” romanida retrospektiv sujet turi qo'llanganligiga guvoh bo'ldik. Lekin bu hol yana qayta takrorlangan. Ya'ni retrospeksiya orqaga qaytish bo'lib, romanda Farhod Ramazon o'n yetti yil oldingi voqealarni xotirlaydi va voqealar rivoji aynan o'sha zamonda sodir bo'ladi. Ammo shu zamondan turib yana orqaga qaytish holati kuzatiladi. Buni nima deyish mumkin? Takror qo'llangan retrospeksiyami? Ikki karra ishlatilgan retrospeksiyami? Harqalay, asarda shunga guvoh bo'lamiz. Demak, bu holat “Shovqin” romanida uchta zamon voqealari aks etganligidan guvohlik bermoqda. Asarda hozirgi zamon (tugun va kulminatsiya, bu voqealardan yuqorida xabar topdik), o'tgan zamon (Farhodning Ravshan Akobirov, Gulya Lagutina, uning qizi Vika va bohqa qahramonlar bilan bog'liq xotiralari) va shartli ravishta uzoq o'tgan zamon (Sobirjon Mansurovich, Parizod opa, Barfina kabilar bilan bog'liq xotiralar)da yuz bergan voqealar hikoya qilingan.

Yozuvchi Farhod Ramazon obrazi orqali bu uchala zamondagi voqealarni bir nuqtada birlashtiradi va ularni bir-biri bilan chambarchas bog'laydi. Farhod yuqorida sanab o'tilgan qahramonlar bilan yaxshi va yomon kunda birga bo'lgan, dardlashgan, xafalashgan, Shu bilan birga ular bir-birlariga aloqador insonlar hamdir. Bu asar oxirlagan sari kitobxonga ayon bo'lib boradi. Buni romandagi “kichik yechimlar” yoki “ko'zga ko'rinmas yechimlar” ham deyish mumkin. Baynalminalchi chol Sobirjon Manurovich Gulya Lagutinaning otasi, Vikaning bobosi, Parizoda opa Ravshan Akobirovning opasi, Barfina Akobirova esa

Parizoda opa bilan Ravshan Akobirovning ammasi edi. Bundan tashqari Sobirjon Mansurovich Farhodning otasi Mirzo Ramazon bilan ham tanish chiqib qoladi.

Asar sujetini harakatga keltiruvchi kuch – bu konflikt. Badiiy konflikt asardagi voqealar rivojiga quvvat berib turuvchi komponent bo`lib, har bir davr, har birsan`at turi va janr imkoniyatiga qarab turli darajada namoyon bo`ladi. Konflikt gormonik holatning buzilishi natijasida paydo bo`ladi va ana shu buzulishni bartaraf etish talab qilinadi. Konflikt hal etilishi natijasida yana avvalgi muvozanatning tiklanishiga yo`l ochiladi yoki taqdirlar bir holatdan ikkinchi holatga o`tadi. Konflikt vositasida siljishlar tug`dirgan inson dramasiining ildizlari ochiladi, hayotiy jarayonlar ichiga kirib boriladi. Konflikt haqida akademik Izzat Sulton shunday deydi: “Sujetida konflikti bo`lmagan asar ta`sirchan emas, chunki unda hayotiy haqiqat to`la va izchil ifodalanmaydi. Faqat hodisalar to`qnashuvi natijasidagina ularning ichki dunyosi eng to`la ravishta ochiladi”⁴⁷.

Adabiyot aynan bo`lmasa-da, hayotni tasvirlaydi. Jamiyat va inson hayoti konfliktlardan, ya`ni ziddiyatlardan iborat ekan, tabiiyki, badiiy asarlar ham bundan musstasno bo`lolmaydi. Shunday ekan, badiiy asarlarda konflikt asarning mazmun-mohiyati, g`oyaviy xususiyatidan kelib chiqib turlicha qo`llanadi. Bizga ma`lumki, konfliktning bir necha turi mavjud bo`lib, hozirgi zamon adabiyotida ularning barchasini bir vaqtda uchratish mumkin. Xoh u qarama-qarshi kuchlar o`rtasidagi ziddiyat, xoh xarakterlar o`rtasidagi konflikt, xoh his-tuyg`ular aro qarama-qarshilik yoki inson va jamiyat, muhit va xarakter aro konflikt bo`ladimi, hammasini Erkin A`zam asarlarida uchratamiz.

“Chapaklar yoki chalpaklar mamlakati” qissasi va “Shovqin” romanida ikki qarama-qarshi kuch – demokratiya va sotsiolizm, ikkita qarama-qarshi xarakterlar - Farhod Ramazon va Ravshan Akobirov, Farhod va Sur`at, Erkin aka va Yak o`rtasidagi ziddiyatlarni ko`rishimiz mumkin. Erkin A`zam yaratgan qahramonlar orasida Farhod, Zabarjad, Bolta Mardon Nuriddin Elchiyev kabi obrazlar borki, ular o`z his-tuyg`ulari bilan ziddiyatga borib, xarakterida o`zgarish kuzatiladi. Masalan, Nuriddin Elchiyev o`z joniga qasd qilib kasalxonada yotgan paytida o`zi

⁴⁷Султон И. Адабиёт назарияси. – Т.:Ўқитувчи, 1980. 174-б.

bilan o'zi turli xil masalalarda ziddiyatga boradi va o'z joniga qasd qilishiga jiddiy sababni topolmaydi. Shu vaqt oralig'ida u yashash uchun o'zida qayta kuch topadi, hayotga, oilasiga bo'lgan mehri yanada oshadi.

Muhit va xarakter o'rtasidagi konfliktga “Bayramdan boshqa kunlar” qissasi qahramoni Bakir va uning rafiqasi Bargidaning oilasi o'rtasidagi ziddiyatni misol qilishimiz mumkin. To'g'ri, u yerda ochiqdan-ochiq kurash ko'zga tashlanmaydi. Ammo Bakir o'zi tushub qolgan muhitga ko'nikolmaydi. Ya'ni, Bakir to'ydan keyin Bargidalarining uyida vaqtinchalik bir necha kun yashashiga to'g'ri keladi. Sharqona urf-odatlariga qat'iy rioya qilinadigan oilada tarbiya ko'rgan Bakir sho'rti kiyib divanda yotib olib oyog'ini chalishtirgan ko'yi otasining yonida televizor ko'rayotgan Basira (Bargidaning singlisi)ni ko'rib g'ashi keladi. Xullas, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi munosabatlarning ancha erkinligi, har kuni uylarida ziyofat qiladigan yoki o'zlari ziyofatga boradigan bu oiladagi udumlar Bakirning dunyoqarashi, xarakteriga yod edi.

Erkin A'zam konflikt yaratishda yana shunday o'ziga xos bir usulni qo'llaganki, bir-biriga qarshi ikki xarakter bir vaqtning o'zida qadrdon ham. Bunisi qandoq bo'ldidersiz? Bu endi Erkin A'zamgagina xos xuusiyat. Shunday qahramonlarni “Shovqin” romanida uchratamiz, ular Farhod va Sur'at. Bu ikki qahramon kino sohasida ishlashadi. Farhod Toshkentda, Sur'at Moskvada yashaydi. Sur'at Farhodning oyog'idan chalgani-chalgan. Ikkalasi uchrashganida har doim nimadandir gap qochadi va, ayniqsa, Farhodning asabi buziladi. Chunki Sur'at bunga sababchi. Shuning uchun Farhod uni ko'rganida kayfiyati buziladi va iloji boricha u bilan ko'rishmaslikka harakat qiladi. Ammo qandaydir rishta ularni bir-biriga chorlayveradi. Bu kursdoshlik rishtasi ham bo'lishi mumkin, ular birga o'qishgan, kino olamiga birga kirib kelishgan. Talabalikning ham, kino sohasining ham qiyinchiliklarini birga bosib o'tishgan. Shundanmi Farhod Moskvaga borganida, albatta, Sur'atni ko'rmasa qaytmaydi. Sur'at ham xuddi shunday.

Erkin A'zamning ba'zi asarlarida xarakterlararo yoki muhit va xarakter o'rtasidagi, ikki katta kuchlar o'rtasidagi qarama-qarshiliklarni ko'rmaymiz. Shunda kitobxon o'ylab qolishi mumkin, nahotki konfliktsiz asar bo'lsa.

Konfliktsiz asar bo'lishi mumkin emas. Agar shunday bo'lganida asarning sariqchaqalik qizig'i qolmagan bo'lardi. Adibning bunday xarakterdagi asarlariga "Javob", "Pakananing oshiq ko'ngli", "Shoirning to'yi" qissalarini, "Navoiyni o'qigan bolalar", "Stupka" hikoyalari singgari bir qancha asarlari kiradi. Bu asarlarda kolleziya konflikt asosiy o'rinni egallaydi. Kolleziya konflikt inson ichki dunyosidagi qarama-qarshi kurashdan iborat. Bunday konflikt qadimda lirikaga xos bo'lib, hozirda yirik asarlar uchun ham xarakterlidir. Bizga ma'umki lirikada inson ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari birinchi o'ringa chiqadi va lirik qahramonning ko'tarinki yoki tushkin kayfiyati tasvirlanadi. Zamonaviy adabiyotda bunday konflikt turi nasriy asrlarga ham ko'chdi. Bu esa nasrda ham inson ichki olamini ochish uchun muhim qadam bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Erkin A'zam nasrida xuddi shu konflikt turidan keng foydalanganligiga guvoh bo'lamiz. Masalan "Pakananing oshiq ko'ngli" qissasi voqealariga yana bir bor e'tibor qarataylik. Asar bosh qahramoni biz bilgan o'sha Pakana asar boshidan oxirigacha o'z o'y-fikrlari, his-tuyg'ulari bilan sujet liniyasida harakatlanadi va shu icki qarama-qarshilik natijasida uning xarakteri ochilib boraveradi. U aslida binoyidek hamma qatori inson, ammo pakanaligi sabab ko'p narsaga o'zini loyiq sanamasligi uning fojiasi edi. Oxir-oqibat omadsiz, baxtsiz, alamzada insonga aylanib qoladi. Aynan shu holatni u ko'zguda o'zini ko'rganida anglab yetadi. Aynan shu holatda unda hayotga yangitdan umid uyg'onadi.

"Chakkasini ishqab vannaxonaga kirgan Pakana devordagi ko'zguga ro'bararo keladi. Ko'zgudan yonog'i qon, soqol-mo'ylovi qo'qqi, ko'zlari qizargan, afti irkit, badbashara allaqanday bir ta'viya boqib turardi.

Pakana. Tepakal. Xunik. Istedodsiz. Omadsiz. Baxtsiz. Alamzada... Eh, mana senga!..

Ko'zgu chil-chil dars ketdi, mo'ysafidning ajinlari misoli. Pakana qonagan mushtimini kuh-kuhlagancha, Hilola kelib qolmasin deb, shosha pisha eshikka yelkasini tirab oldi. Shunda qaytib ko'zguga ko'zi tushdi-yu nogohon vujudi

bo`ylab yugurgan ilohiy qon miyasiga urilib, go`yo mudrabyotgan xujayralarni uyg`otib yubordi.”⁴⁸

“Stupka” hikoyasida dini, e`tiqodi boshqa Marina yanga urush paytida O`zbekistonga kelib qolgan va shu yerning odamiga aylanib ketgan edi. Bunga Arslon aka ham sababchi. Chunki ikkalasi haqiqiy o`zbekona oila qonun qoidalari asosida yashashdi. Marina yanga haqiqiy o`zbek ayoliga aylandi. Ammo o`rtada farzand bo`lmaydi. Arslon aka dunyodan o`tgach yanada yolg`izlanib qoladi. Uzoq qishloqda yashaydigan yana bir o`zbek ayoliga aylanga dugonasi Lenanikiga borib turadi. U bilan suhbatlashib ham ko`ngli yorishmaydi. Asarda Marina yanganing o`zi bilan o`zi ziddiyatga borgan o`rinlar ham uchraydi. Bu kolleziya konfliktga misol bo`ladi. Ya`ni Marina yanga o`zi tug`lib o`sgan yurtini sog`inadi ammo u yerda uni kutadigan hech kimi yo`q. Bu yerda garchi Arslon akasi endi bo`lmasa-da, nimadir uni bog`lab turadi. Ana shunday hayollar og`ushida kunlar o`taveradi. Marina yanga qandaydir rishtaga bog`langan ko`yi qo`ni-qo`shni, tanish-bilashlar bilan suhbatga chiqadi-yu, ammao yana uyiga shoshiladi. Nima uchun chunki o`sha uyda Arslon aka bilan bog`liq sof xotiralar kezib yuradi.

“–Men endi tursam, Lenaxon, javob bersangiz? Uyimda bir dunyo yumish!”

Qip-qizil bahona bu! Mana, hozir yangamiz huvillab yotgan o`sha yolg`izxonasiga kirib boradi-yu, barmoq tishlab qoladi: qiladigan ishning tayini yo`q. Siqilganidan chiqib qo`ni-qo`shnisining ul-buliga qarashgan bo`ladi. Bir mahal yuragi toshib yana iziga chopadi: “Uyumda bir dunyo yumish!”⁴⁹

Erkin A`zam ijodini kuzatar ekanmiz, u prologdan ham mahorat bilan foydalanganligiga guvoh bo`lamiz. Prologning ekspozitsiya rolini o`ynashi va tugunning ham prolog tarkibida keltirilishini inobatga oladigan bo`lsak, u asrning estetik ta`sir kuchini yanada oshiradi.

Shu o`rinda yozuvchining “Guli guli” qissasiga diqqat qilamiz. Asarning nomlanishi ham o`zgacha, tasvir usuli ham, g`oyaviy-mazmuniiy tomoni ham betakror. Qissada prolog quyidagicha keltiriladi:

⁴⁸Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. 55-56-б.

⁴⁹Аъзам Э. Шовқин. – Т.: О`zbekiton, 2011. 268-б.

“... U dara ichkarisidagi ovloq makonidan yakkam-dukkam oyoq qo`yib lo`killay-lo`killay suv bo`yiga tushub keladi.

Tog` buloqlaridan to`plangan suv mo`jiza yo`llar bilan koriz orqali dara og`zida chog`roq ko`l hosil qilgan. Ko`l sathidan vijir-vijir doira yasab , ikki harsangtosh orasidan bir tegirmon suv pastga oqadi.

Qirg`oqda qo`qqayib u bir nafas ko`lga tikiladi, so`ngra shoshilmay ishtonbog`ini yechadi-da suvga qarab choptirib yuboradi. Shu asno etakka – qishloq tarafga tantanavor nazar tashlab qo`yadi.

Ishni bitirib bo`lgach, ko`l labiga cho`nqayib hovuchlay-hovuchlay suv ichadi...”⁵⁰.

Ko`rib turganimizdek, bu prolog asarga bo`lgan qiziqishimizni yanada oshiradi. “U” kim ekan yoki biror bir maxluqmikan? degan fikrlar xoyolimizdan o`tadi. Demak, asarga kirish jarayonida tugun yuzaga kelyapti. Asar oxirida esa mana shu tugun yechiladi va “U”ning kimligini bilib olamiz. U “Maymun” ya`ni, maymunga aylangan Mo`min.

Erkin A`zam ijodida kinoya turli ko`rinishlarda namoyon bo`lgan, ba`zida muallifning o`z tilidan keltirilgan so`z ibora hamda maqol va matallarda, boshqa paytlarda esa persanajlarning o`zaro muomila-munosabatlarida zohir bo`ladi. Shuni ham alohida ta`kidlash joizki, adib o`zini azobl原因 bugungi kun muammolariga munosabatini achchiq kinoya, piching, qochirimlarga o`rab ifodalaydi. Bu esa yozuvchining hayotimizdagi voqea-hodisalarga befarq emasligidan dalolatdir.

“Shoirning to`yi” qissasida aynan shunday achchiq kinoya, piching, qochirimlarga duch kelamiz:

“Bilarsiz, kuzatganingiz bordir, bu kabi marosimlarda asosoan bir xil jamoa to`planadi. Bugun, deylik, Otashqalb shoirni xotirlamoqqa yig`ilgan ayni shu sira izdihom ertaga uning qon raqibi, raqibi ne, jon kushandasi – Shoiri zamonning

⁵⁰ Аъзам Э. Шовқин. – Т.:O`zbekiton, 2011. 191-б

zamon ustidan qozongan g'alabasini nishonlamoqqa ham hozir-u nozir. Xuddi o'sha janoblar, xuddi o'sha xonimlar"⁵¹.

“Dunyo adabiyoti mezonlari, qarichi bilan o'lchanganda yuksak badiiy talablarga javob bera oladigan, ko'p jummalarni, fikrlarni tagiga chizib qo'yishga majbur qiladigan noyob asarlar o'zbek adabiyotida ham ko'p. Yozuvchi Erkin A'zamning «Otoyining tug'ilgan yili» deb nomlangan talabalar hayotidan hikoya qiluvchi ajoyib asaridagi ajib fikrlar ko'pchilikning e'tiborini tortishiga ishonchimiz komil. Asar bir qaraganda, sarkash, shartaki yigitning («Aytsam – o'ldirurlar, aytnasam — o'lam» naqli uning hayotiy pozitsiyasini belgilaydi) ijtimoiy muammolar, ziddiyatlar bilan kelisholmasligini ifoda ettirgan kabi tasavvur uyg'otishi mumkin, ammo haqiqiy asarlar global yoki umumjahon miqyosidagi dolzarb muammolarni ko'tarib chiqqani bilan emas, yuqori saviyada, iste'dod bilan yozilganiga ko'ra baholanadi"⁵².

Ko'pchilikning diqqatini jalb qila oladigan fikrlarni o'z asarlariga singdira olgan adibning so'z qo'llash mahoratiga tan bermay ilojimiz yo'q. Ana shunday fikrlarga diqqat qilamiz. Bu fikrlar asar qahramoni Asqar tilidan keltiriladi:

“Dastlabki tanishuvdayoq suhbatdoshimning yuziga «ko'zgu» tutaman – marhamat qilib, asl basharasini ko'rsin! Shu odatim tufayli necha bor kallam g'urra bo'ldi, necha-necha martalab pand-u pushaymon yedim. «Bugundan boshlab – tamom, endi aslo bunday qilmayman!» deya ont ichaverib, qasam men uchun suvga aylandi”.

“Tashqarida – gurkiragan hayot, ichkarida – yosh-yosh, tepakal, bir yuz nechanchi moddanimi, bir ming nechanchi yulduznimi, xudo bergan bedavo dardga shifomi topish ilinjida umrini goh basamar, goh basamar o'tkazayotgan aksar fidoyilar, aksari unvonparastu chalamullalar davrasi...”

“Uylanish... Onam doimo tog'lik oshnamizning qizini tildan qo'ymay maqtaydi; «Ikki yuzi qip-qizil, olmadek. O'zi oyoq-qo'lligina. Gursillatib xizmatimni qilsa», deya orzuga beriladi. Men esa ikki yuzi qip-qizil olmadek

⁵¹Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. – Т.: Маънавият, 2001. 59-б.

⁵²О'ktam В. Erkin A'zamning «Otoyining tug'ilgan yili» asaridan tagiga chizilgan fikrlar. www.kh-davron.uz. 1-b.

qizlarni yoqtirmayman. Nazarimda, ular faqat «gursillatib xizmat qilish» uchun tug`ilganga, boshqa narsaga yaramaydiganga o`xshab tuyuladi”.

“Demak, sabr qilish lozim, baxt o`zi kulib boqmasa, uni jilmaytirish ham mushkul”.

“Ha, Matluba esli qiz ekan. Biroq, o`ylab ko`rsam, men ham uncha ahmoq emas ekanman – unga uylanmay to`g`ri qilibman. Uylanganimda, bari bir kimdir tashlab ketardi: yo men uni, yo u meni...”

“Ajablanadigan joyi yo`q, o`zi olov edi – o`t bilan o`ynashadi-da. Bunaqalar kerak, oh, ko`p kerak! Lekin har qalay, uloqqa kirgan chavandoz boshini ham o`ylagani ma`qul – uloq mitngta, bosh esa bitta!”

Erkin A`zamning Asqarga o`xshagan qahramonlarni o`zi to`qib chiqmaydi, balki hayotdan oladi. Hayotda turli xarakterdagi insonlarni uchratishimiz mumkin. Ana shu xarakterlarni adib badiiy adabiyotga olib kiradi va so`z qo`llash mahorati evaziga qayta jonlantiradi. Bu esa Erkin A`zamning o`z so`ziga ega ijodkor ekanligidan dalolat beradi. Yaxshi so`z orqali ko`ngilga yo`l topish oson.

“Ko`ngil – eng noyob tuyg`ularning muqaddas qo`rg`oni, jismi jonimizga hadya etilgan eng ardoqli xazina. Nurday shaffof, gulday nozik, billurdek nafis. Odamzotni jamiki mavjudodlardan ulug` sifatlarining Vatani ko`ngil. U cheksiz osmonga o`xshaydi. Olamni yorqin ranglarda ko`rmoqlik imkonini beruvchi hayot ishqini bilan limmo-lim. Bu makonda faqat uning o`zigagina tanish va ma`lum haqiqat timsoli yashaydi. Ko`ngil uyimiz adolat va ezgulik istagi, komillik va o`zlikni anglash orzusi bilan munavvardir”⁵³.

Erkin A`zam o`z asarlari bilan ko`ngilimizning tup-tubida mudrab yotgan tuyg`ularni uyg`otib, qalb torlarimizni harakatga keltiradi. Bunga yozuvchi asarlarida umuminsoniy g`oyalarning mavjudligi, qahramonlarning o`zimizga tanish insonlar ekanligi, mavzuning dolzarbligi, muhimi sujet va kompozitsiyaning yaxlitligi, bir-birini to`ldirishi asosiy sababdir.

Adibning epigraf keltirish usuli ham asar g`oyasini ochish uchun xizmat qiladi. Epigraflar uchun xalq qo`shiqlari yoki muallif mulohazalari tanlangan.

⁵³ Ashurova N. Ko`ngil tasviri. www.kh-davron.uz. 1-b.

“Zabarjad” kinoqissasiga “*Otim oriq, manzilimga yetolmayman-o...*” qo`shig`i epigraf qilib olingan. Asarda butun oilaning tashvishi Zabarjadning bo`ynida, yana ko`chada, ishda har xil g`iybatlarga giriftor. Hattoki, otasi tengi boshlig`i uni yo`ldan ozdirmoqchi bo`ladi. Ana shunday qiyinchiliklar iskanjasida chimildiq ko`rmay nomusini boy beradi. Ammo bunga pushaymon qilmaydi, chunki o`sha insonni butun borlig`i bilan sevadi. Guvoh bo`lganimizdek Zabarjad bir zaifa sifatida chorasiz qolgan obraz. Qancha harakat qilmasin o`z orzulariga erisha olmaydi. Har bir qizda bo`lgani kabi unda ham olam-olam orzular bor edi. Armonga aylandi. Oriq otni minib olgan chavondoz harchand urinmasin uloqni ololmagani singari Zabar ham manziliga yetolmadi. Bu epigraf asarning mazmun-mohiyatini o`zida to`la aks ettira olgan.

“Guli guli” qissasida epigraf sifatida muallifning quyidagi mulohazalari keltirilgan. “Yaqin-yaqingacha qaysi davraga kirmayin, orada eng yoshi menbo`lib chiqardim. Bugun qarasam – ko`pchiligi mendan yosh... Ajabo, qachon, nega bunday bo`ldi?”

Bir joyda turib chuqur o`yga cho`mgan kishi aksariyat holatda shu savolga javob izlayotgan bo`ladi. Ayniqsa, ko`pni ko`rgan, umri o`tib borayotganini tushunib yetgan insonlar. Bugun Erkin A`zam ham tajribali adib, ko`pni ko`rgan bashar farzandi. Shunday mulohaza qilishga haqli. Uning asarlarida bu o`z ifodasini topgan. Erkin A`zam yaratgan “Guli guli” qissasida umrni besamar o`tkazmaslik g`oyasi ilgari suriladi. Sujet va kompozitsiya esa shu g`oyani ochib berishga xizmat qilgan. Asar bosh qahramoni Maymun (Mo`min) umrini chunchaki bir jonzod sifatida yashab o`tkazgan inson. Inson deyishga ham til bormaydigan Allohning yaratig`i. Allohning yaratig`ligini o`zi anglab yetmay, Uning dargohiga yo`l oladi. Adib ana shunday tajribalarini kitobxonlar bilan o`rtoqlashishganidan mamnun.

Xullas, Erkin A`zam sujet va kompozitsiya elementlarini bir-biri bilan chambarchas bog`lagan holda asar mazmun-mohiyati va g`oyasiga xizmat qildirgan. Sujet elementlarining tartibi adib asarlaridagi voqealarning ishonchliligini, dialog, manalog va muallif nutqining o`rni bilan almashib

qo'llanilishi nutqiy, qistirma hikoyalarning asar mazmuniga mosligi, portret, peyzaj va muhit tasvirlari esa estetik ta'sirni yanada kuchaytiradi.

Erkin A'zam janr jihatidan ham turli xil asrlar yaratganligiga yuqorida guvoh bo'ldik. Yozuvchi hikoya, qissa, romanlarida sujet va kompozitsiya elementlarini shu janr xususiyatlariga moslab tanlagan bo'lsa, kinoqissa va dramalarida esa ulardan aynan o'sha janrlarga mos tarzda foydalangan. Bu jihatlarning barchasi adib ijodining kitobxonlar, adabiyotshunoslar va kinochilar tomanidan diqqat bilan kuzatilishiga sabab bo'lgan va bu qiziqish bugungi kunga kelib yanada oshmoqda.

Yozuvchi ijodi hali tom ma'noda to'liq o'rganilmagan. Uning ijodini o'rganish asnosida sujet va kompozitsiyadan o'z uslubigagina xos tarzda foydalanib, mazmun va g'oya jihatidan aynan bugungi kun kitobxoni ehtiyojlarini qondira oladigan asarlar yaratganligiga guvoh bo'lamiz. Adib yaratgan obrazlar siz-u bizga o'xshagan insonlar, ular hammamizga tanish jamiyatda, muhitda harakatlanadi. Demak, Erkin A'zam bizni, bugunning odamlarini badiiy obrazlarga aylantirgan.

Adibning sujet va kompozitsiya yaratish mahorati evaziga asarlaridagi mazmun-mohiyat yanada aniqlashgan, g'oyaviy saviya oshgan, estetik tasir kuchaygan. Yozuvchi asarlarining ichki va tashqi tomoni mukammal ko'rinish kasb etgan.

XULOSA

Erkin A'zam XX asrning 70-yillarida adabiyot maydoniga yangi ruh, o'zgacha kayfiyat bilan kirib keldi. Ko'plab adabiyotshunoslarning diqqatini o'ziga jalb qila oldi. Bu hol uning ijodida boshqalarnikiga o'xshamagan nimadir borligidan nishona edi. O'ziga xos tasvir usuli, qahramonlar manerasining o'zgarganligi, til xususiyatlarining haqiqatni yuzaga chiqarish uchun ishlatilishi, piching va kinoyalarning o'zni bilan qo'llanilishi, sujet va kompozitsiya yaratishda an'anaviy yo'ldan bormasdan yangi bir yo'nalish ochganligi, mavzu va g'oyaning bugunning odamlarini uyg'otish, sergaglantirishga xizmat qildirilishi – bularning barchasi adib ijodiga bo'lgan qiziqishga sabab bo'ldi.

Bizni ham Erkin A'zam ijodidagi o'ziga xoslik befarq qoldirmadi. Agar yozuvchi ijodini kuzatar ekansiz vaqt o'tishi bilan ijodiy barkamollikni sezish mumkin. Yozuvchi tajribasi oshgan sari asarlarining ham saviyasi ko'tarilib borganligiga guvoh bo'lamiz. Erkin A'zam qissachilikda katta muvaffaqiyatga erishdi, ammo bu uning haqiqiy muvaffaqiyati emasdi. Ijodkor o'zbek adabiyotida yangi yo'nalish ochdi. O'zbek kinoqissachiligiga asos soldi. Endilikda kinoqissalardagi tasvir usuli, sujet va kompozitsiyaning o'zni, ahamiyati tom ma'noda o'zbek adabiyotida yangilik bo'ldi. Ushbu ilmiy tadqiqot ishimiz bilan adib ijodining o'ziga xosligi nimda ekanligini ilmiy jihatdan isbotlab, tadqiq qilishga harakat qildik.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. XX asrning so'ngi choragida yozilgan nasriy asarlar istiqlool davri adabiyotining rivojini har tomonlama belgilab berdi. Tog'ay Murodning "Ot kishnagan oqshom", Murod Muhammad Do'stning "Iste'fo", Xayriddin Sultonovning "Yozning yolg'iz yodgori", Erkin A'zamning "Otoyining tig'ilgan yili" kabi asarlarning inson ichki olamini ifodalashdagi yangicha usullari, asosan, emotsionallik, irratsionallik, xudojo'ylik, andishalilik, neagentivlik kabi o'zbek xarakterining o'ziga xos noyob xususiyatlarini ochishga qaratilganligi bilan ahamiyat kasb etadi. O'tgan asrning oxiriga kelib o'zbek qissachiligida analitik yo'sindan sintetik prinsip foydasiga siljish, to'g'ridan-to'g'ri, bevosita tasvir

usullaridan bilvosita tomonga yuz burish, ong osti sohasiga yanada sinchkovlik bilan nazar tashlash holatlari kuzatildi.

2. XX asrning 80-yillarida o'zbek adiblarining ijodiy izlanishlaridan real hayotiy ziddiyatlarni, ijodiy niyatni konfliktning botiniy ko'rinishi – qalb dramtizmi vositasida ifodalash ko'zga tashlandi. Erkin A'zam ijodida ham xuddi shu xususiyatlarni ilg'ash qiyin emas. Adibning shu davrda yaratgan asarlari markaziga qo'yilgan ziddiyatlar odam va insoniyat tabiatidagi, haq va haqiqat zamiridagi, tarix va davr qatidagi qarama-qarshilikifodasi sifatida yuzaga chiqadi. Azaldan to abadiyatga qadar muhim sanaladigan umuminsoniy g'oyalar, qalb va iymon butunligini belgilovchi omillar adib asarlari konflikti uchun asos vazifasini o'tagan deyish mumkin.

3. Jo'shqin ijodiy izlanishlari bilan keng omma e'tiboriga tushgan Erkin A'zam asarlari tabiatiga va tarkibiga e'tibor beradigan bo'lsak, muammo va mavzularning mazmuni yangilanganligiga guvoh bo'lamiz. Ularda inson ijtimoiy va ruhiy hayotini aks ettirishning yangi badiiy imkoniyatlarini qidirish tendensiyasi ko'zga tashlanadi. Erkin A'zam bilan bir avlodga mansub Tog'ay Murod, Murod Muhammad Do'st, Xayriddin Sultonov, Asad Dilmurod, Xojakbar Shayxov, Zohir A'lam kabi bir qancha adiblar ijodini zamonaviy hayotga mos keladigan yangi qahramonni qidirish muammosi o'zaro birlashtiradi. Qahramonning yangicha konsepsiyasi o'z-o'zini faol taftish va tahlil qila oladigan, o'tmishning xato va kamchiliklarini yengib o'tishga qodir, ma'naviy-ruhiy dunyosi pok xarakterlarni taqazo qilar edi. Erkin A'zam aynan shunday qahramonlarni yaratayotganligi bilan adabiyot, kitobxonlar oldidagi vazifasini to'laqonli bajarib kelmoqda. Nuriddin Elchiyev, Asqar, Bakir, Zabarjad, Pakanalar – Dadilbek va Shamshodbek, Bolta Mardon, Farhod Ramazon kabi ko'plab obrazlar ana shunday qahramonlar sirasiga kiradi.

Erkin A'zam alohida shaxs hayotini turli rakurslardan turib ko'p qirrali tasvirlash usulidan boradi, zamon va jamiyat bilan aloqasini chuqurroq tahlil qiladi. Qahramon statik holatidan chiqib, xarakterning rivojlanish tutimi, hayot qarama-qarshiliklari qarshisidagi qiyofasi yaqqol ko'rina boshlaydi. Adib

asarlarining aksariyatida jamiyat qonuniyatlari alohida odamlar taqdiri orqali anglashiladigan, badiiy tadqiq markaziga bor fazilat-u qusurlari bilan INSON qo'yiladi.

4. Erkin A'zam ijodida ko'zga tashlanadigan yana bir muhim xususiyatlardan biri – bu xarakter va sharoit muammosidir. Yozuvchi asarlarini o'qir ekanmiz, turfa xarakterli obrazlarga duch kelamiz. Ularning har biri o'zgacha, bir-birini takrorlamaydi. Bizga ma'lumki, hayotda ham aynan bir xil fe'l-atvorga ega ikkita shaxsni uchratmaymiz. Tashqi ko'rinishi bir-biriga juda o'xshaydigan Hasan-Husanlarning xarakteri ham bir xil bo'lmaydi. Ana shunday tabiiy holat adib ijodida o'z ifodasini topgan.

Bir jamiyatda, bir muhitda yashayotgan insonlarning o'z shaxsiy xarakteri evaziga turli vaziyatlarga tushub qolganligini Erkin A'zam asarlarida kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga ba'zi qahramonlarning turmush tarzi sharoit ta'siri natijasida o'zgarib ketadi. Masalan, "Qarzdor" qissasida Bahrom hammaga qo'lidan kelganicha yaxshilik qilib yuradi. Ammo akasining oilasini tashlab Rossiyada uzoq vaqtdan beri yurganligi va uni qaytarib olib kelish uchun ketayotganida telefon qilib aytgan bemani gaplaridan so'ng Bahrom xarakterida katta o'garish sodir bo'ldi. Bu o'zgarish ma'lum vaqtdan so'ng yana o'z holiga qaytishi shubhasiz. Chunki Bahromning tup xarakteri shundan dalolat beradi. Adib shu joyda asarni tugatadi va xulosa chiqarishni o'quvchining o'ziga qoldiradi.

Erkin A'zam qahramonlari nohaqlik, adolatsizlik, ko'zbo'yamachilik, munofiqlik kabi illatlarga qarshi tomonda turadigan xarakter egalari. "Shoirning to'yi"dagi yosh shoir epizodik obraz bo'lsa-da bir guruh haqiqat kushandalari yaratgan muhitning jirkanchliligini ko'zgu kabi o'zlarining yuziga tutadi.

5. Makon va zamon Erkin A'zam ijodida ko'z ilg'amas jihatlarini namoyon qiladi. Sujet uncha katta bo'lmagan, hattoki ma'lum bir mikramakonda yuz beradi. Ammo zamon anchayin keng ko'lamda ko'zga tashlanadi. Bu hol adibning kitobxonga ko'proq ma'naviy ozuqa berishni maqsad qilganligidan dalolatdir. Yozuvchi makon tasvirlari bilan o'quvchi vaqtini olishdan ko'ra unga tez fursat ichida muddaoni yetkazishni afzal ko'radi.

6. Erkin A'zam tasvir usuli ham zamonaviy adabiyotimizda o'zining o'zgachaligi bilan ajralib turadi. U kinoqissalarida kinodagi kabi montaj usulidan foydalanadi. Ya'ni voqealarni dastlab shunchaki tasvirlab ketayotgandek tuyuladi va kitobxon ular o'rtasidagi bog'liqlik nimada ekanligini tushunmay oxiri nima bo'lishi bilan qizib asar ichiga kirib boraveradi va shu jarayonda bir-biriga aloqasi yo'qdek tuyulgan tasvirlar o'zaro bog'lanib boradi.

Adibning tasvir usulida yana bir e'tiborga molik tomoni shundaki, maydachuyda voqealar tasvirlanmaydi, qahramonlarning tashqi ko'rinishi, xarakteri, tabiat tasvirlari, umuman makon bilan bo'g'liq tasvirlarlar batafsil hikoya qilinmaydi. Vaholangki, agar yuqoridagilarning barchasi ikir-chikirigacha yoritilganida Erkin A'zam asarlari "Urush va tinchlik", "Telba" kabi yirik hajmli ijod namunalariga aylangan bo'lar edi.

Erkin A'zam tasvir uslubi ixchamligining asosiy sababini zamonaviy kitobxonlar intellektual salohiyatining yuqoriligi va axborotlar oqimining cheksizligi bilan baholash mumkin. Bugungi kitobxon har qanday axborotni tezlik bilab hazm qilib, boshqasiga o'tib ketishga odatlangan. Shu bois adib asar ixchamligini taminlash maqsadida sujet va kompozitsiyadan noan'anaviy tarzda foydalanadi. Ekspozitsiya asar ichiga sohib yuborilsa, yechim ochiq qoldiriladi. Muallif nutqi bilan qahramon nutqi uyg'unlashib asar mazmunini ochib beradi. Xullas, Erkin A'zam kitobxonga voqealarning qaymog'ini taqdim etadi. Pastdagi cho'kmalarni esa o'quvchi o'zi anglab olaveradi.

7. Erkin A'zam kitobxonni yuqori notada ushlab turish uchun retrospektiv sujet turidan deyarli barcha asarlarida foydalanadi. "Shovqin" romanida sujet tugundan boshlanadi va ana shu tugunning yechimi esa o'tgan zamondagi voqealar rivojida oydinlashadi hamda kulminatsion nuqtada asar voqealari o'z nihoyasiga yetadi.

Yozuvchining sujet yaratishdagi o'ziga xos uslubi shundaki, sujetni harakatga keltiruvchi konflikt qahramonlar ruhiyatida sodir bo'ladi. Qahramonlar katta-katta ko'ngilsizliklarni yengib o'tadi-yu, ammo arzimmas noxushlik oldida gandraklab qoladilar. Misol uchun "Javob" qissasi qahramoni Nuriddin Elchiyev

ko'plab qiyinchiliklarga duch kelishiga qaramay bosiqlik va xushchaqchaqlik bilan kamtarona umrguzaronlik qilib yurgan bir paytda oqshom sotuvchi yigitlar bilan bo'lgan janjaldan so'ng sabr kosasi to'ladi va yuragining tup-tubida bosilib yotgan vulqon oxir-oqibat portlaydi, portlaganda ham dahshatli tarzda portlaydi, o'z joniga qasd qiladi. Ammo tirik qolib kaslxonada yotgan chog'ida joniga qasd qilishiga sabab nimadaligiga javob izlaydi va oxir-oqibat hech narsa Olloh tomonidan berilgan aziz ne'matga arzimasligiga ishonch hosil qiladi. Asar sujetining bu tarzda qurilganligi kitobxonga hayotning bebaho ne'mat ekanligini his qilishga imkon beradi. Asarda asosiy g'oyalardan biri dunyoning biri kam ekanligi, uni to'ldirib, go'zal hayot kechirish o'zimizga bog'liqligidir.

Xullas, Erkin A'zam o'zbek adabiyotining taraqqiyot yo'lida turli janrlardagi asarlari, ulardagi sujet va kompozitsiya yaratish uslubi, yangicha dunyoqarashi, intellektual salohiyati bilan samarali izlanishlar olib bordi va bu ishni bugungi kunda ham davom ettirmoqda. Adib o'zbek adabiyotining kuchini jahon adabiyoti sahnasiga olib chiqmoqda. Badiiy adabiyotimiz namunalaridan dunyo xalqlari endilikda bahramand bo'lish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

2015-yil 12-mart kuni Erkin A'zam asarlari «Farevell to Fairy Tales» nomi bilan ingliz tilida nashr etildi. Kitobni "Ertaklar bilan xayrlashuv" yoki "Alvido ertaklar" deb o'zbek tiliga o'girish mumkin. O'zbekistonning Vashingtondagi elchixonasida o'tkazilgan madaniy kechada kitobning taqdimoti bo'lib o'tdi.

Bir so'z bilan aytganda, Erkin A'zam o'zbek adabiyotida yangi ulub yaratdi. Badiiy adabiyotimiz qiyofasini zamonaviy talqinda dunyoga olib chiqmoqda. Adabiyoshunoslik uchun o'rganilish kerak bo'lgan yangi mavzu paydo bo'ldi.

Adib ijodining mana shunday o'ziga xos uslubini, sujet va kompozitsiya yaratishdagi hech kimga o'xshamagan jihatlarini o'rganib tahlil qilish va keng jamoatchilikka taqdim etish o'zbek adabiy jarayoni va adabiyotshunosligi uchun foydadan xoli bo'lmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. IJTIMOIIY-SIYOSIIY ADABIYOTLAR

1. Миллий истиқлол ғояси: Асосий тушунча ва тамойиллар. – Т.: Ўзбекистон, 2000.– Б. 56.
2. Каримов И. А. Адабиётга эътибор - маънавиятга, келажакка эътибор. – Т.: Ўзбекистон, 2009.– Б. 40.
3. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. – Т.: Шарқ, 1998.– Б. 32
4. Каримов. И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиз. – Т.: Ўзбекистон, 2000. – Б. 528.
5. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: ҳавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тароққиёт кафолатлари. . – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 326.
6. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. . – Т.: Ўзбекистон, 2008.– Б. 176.
7. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари– Т.: Ўзбекистон, 1998. – Б. 688.
8. Каримов И.А. Баркамол авлод орзуси, – Т.: Шарқ, 1999.– Б. 184.

II. ILMIY ADABIYOTLAR

9. Адабиёт назарияси. Икки томлик. I-т. Адабий асарда конфликт. – Т.: Фан, 1978. – Б. 342.
10. Адабий тур ва жанрлар. Уч томлик. I-т. – Т.: Фан, 1991.– Б. 384.
11. Аристотель. Поэтика.–Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1980.–Б. 152.
12. Ashurova M. Ko`ngil tasviri. www.kh-davron.uz. – Б. 13.
13. Бахтин М. Вопросы литературы и эстетики. –М.: Художественная литература, 1975.– С. 412.
14. Белинский В.Г. Танланган асарлар. – Т.: Ўздавнашр, 1955.– Б.510.
15. Бобоев Т. “Адабиётшуносликка кириш” курсидан ўқув методик қўлланма.– Т.: Ўқитувчи, 1979.– Б. 288.

- 16.Веселовский А.Н. Поэтика сюжетов // Веселовский А.Н. Историческая поэтика. – М.: Высшая школа, 1989. – С. 307.
- 17.Грифцов Б.А. Психология писателя. –М.: Художественная литература, 1988. – Б. 468
- 18.Горький М. Адабиёт ҳақида. Адабий-танкидий қарашлар.– Т.: Ўзадабнашр, 1962. – Б. 358.
- 19.Добин Е.С. Сюжет и действительность. Искусство детали. – Л.: Сов.писател (Ленинград. отд), 1981.ор – С. 301
- 20.Ibrohimov A. 80-90-yillar o`zbek romanlarida konsentrik sujet qurilishi. FDU. Ilmiy xabarlar, 1996yil, №4.– В. 46-48.
- 21.Кожин В.В. Сюжет. Фабула. Композиция // Теория литературе. (1920-е годы) – М.: Наука, 1964. – С. 485.
- 22.Лотман Ю.М. Проблема сюжета. // Лотман Ю.М. Структура художественного текста. – М.: Искусство, 1970.– С. 182.
- 23.Мирзаев Т. Миллий истиқлол мафқураси ва ўзбек адабиётшунослиги // Ўзбек тили ва адабиёти, 1994 йил, №3.– Б. 32.
- 24.Мирзалиева Н. У.Норматовнинг адабий портрет яратиш маҳорати //Ўзбек тили ва адабиёти, 2014йил, №5. – Б. 136.
- 25.Назаров Б. Даврва қаҳрамон // Ўзбек адабий танқидчилиги. – Т.: Фан, 1979. – Б. 96.
- 26.Норматов У., Ҳамдам У. Дунёни янгича кўриш эҳтиёжи // ЖА, 2002, декабрь.ро – Б. 142-166.
- 27.Норматов У. Ижод сеҳри. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 352.
- 28.Отаев Р. Дилрабо қўшиқлар айтилаверсин // Шарқ юлдузи,1984, №2. – Б. 152.
- 29.Потебня А.А. Эстетика и поэтика.– М.: Искусство, 1976. – С. 614.
- 30.Поспелов Г.Н. Сюжет и ситуация // Вопросы методологии и поэтики. – М.: МГУ, 1983. – С. 172.
- 31.Расулов А. Бадиийлик – безавол янгилик. – Т.: Шарқ, 2007. – Б. 336.

- 32.Расулов А. Эркин Аъзам ижодига назар // Шарқ юлдизи, 2010, №5. – Б. 155.
- 33.Rahimov A. Badiisujetiplarivaromanboprivoyatlarningtakomillashuvi. FDU. Ilmiy xabarlar, 1996 yil, №4. – Б. 40-45.
- 34.Rahimov A. Badiiy konfliktning nazariy va metodologik masalalari. FDU. Ilmiy xabarlar, 2001, № 1-4. – Б. 60-63.
- 35.Rahimov A. O`zbek romanlarida konflikt ko`rinishi. FDU. Ilmiy xabarlar, 1997 yil, №3-4. – Б. 137.
- 36.Рикёр П. Конфликт интерпретации: Очерки о герменевтике. – М.: 1995.– С. 339.
- 37.Султонов И. Адабиёт назарияси. – Т.: Ўқитувчи, 1980. – Б. 408.
- 38.Турдиева К. Асар сюжети ва композицияси ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 2001 yil, №3. – Б. 23-27.
- 39.Умуров Ҳ. Ўзбек романчилигида бадий психологизм. – Т.: Ўқитувчи, 1980.– Б. 96.
- 40.Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. – Т.: Шарқ, 2002. –Б. 252.
- 41.Холмуродов А. Қиссада бадий образ яратиш маҳорати. – Т.: Фан, 2006. – Б. 140.
- 42.Шарафиддинов О. Ижодни англаш бахти. – Т.: Шарқ, 2004. – Б. 640.
- 43.Шарафиддинов О. Довондаги ўйлар. – Т.: Маънавият, 2004. – Б. 528.
- 44.Шералиева М. Насрда лиризм ва киноя // www.kh-davron.uz. – Б. 17.
- 45.Шералиева М. Қаҳрамон поэзияси эстетик аналогия сифатида // www.kh-davron.uz. – Б. 14.
- 46.Quronov D. Adabiyotshunoslikka kirish. – Т.:Fan, 2007. – Б. 228.
- 47.Қурбонов Т. Портрет яратиш услуби ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти, 1996yil, №5. – Б. 47.
- 48.Қўшжонов М. Ҳаёт ва қаҳрамон.–Т.: Адабиёт ва санъат, 1979.–Б. 336
- 49.Ғафуров И. Ўттиз йил изҳори. – Т.: Фан, 1987.– Б. 398.
- 50.Ҳасанов И. Икки қисса – бир ҳисса // Шарқ юлдузи, 1991 йил, №9. – Б. 86.

51. Ҳотамов Н., Саримсоқов Б. Адабиётшунослик терминларининг русча-ўзбекча луғати. – Т.: Фан, 1983. – Б. 256.

III. BADIY ADABIYOTLAR

52. Аъзам Э. Пакананинг ошиқ кўнгли. –Т.: Маънавият, 2001.–Б. 208.
53. Аъзам Э. Жаннат ўзи қайдадир. –Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2007.– Б. 270.
54. Аъзам Э. Кечикаётган одам. –Т.: “Шарқ” нашриёти-матбаа акциядорлик жамияти, 2002.– Б. 446.
55. Аъзам Э. Гули гули. –Т.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2009. – Б. 232.
56. Аъзам Э. Шовқин. –Т.: O`zbekiton, 2011. – Б. 287.
57. Мурод Т. Танланган асарлар. – Т.: Шарқ, 2008, Ж.І: Қиссалар. – Б. 448.
58. Ҳасанов И. Бири кам дунё. Сайланма. – Б.: Бухоро нашриёти, 2004. – Б. 254.

IV. DISSERTATSIYA VA AVTOREFERATLAR

59. Назаров Б. Ўзбек адабиёти танқидчилиги методологик асосларининг таркиб топиши ва тараққий этиши: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Т.: 1983. – 348 б.
60. Каримов Н. XX аср ўзбек адабиёти тарақиётининг ўзига хос хусусиятлари ва миллий истиқлол мафкураси: Филол. фанлари доктори диссертацияси автореферати. – Т.: 1993. – 44 б.
61. Йўлдошев Б. Ўзбек адабиётшунослиги ва адабий танқидчилигида услуб ва маҳорат муаммолари: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Т.: 2000. – 340 б.
62. Болтабоев Ҳ. XXаср бошлари ўзбек адабиётшунослиги ва Фитратнинг илмий мероси: Филол. фанлари доктори диссертацияси. – Т. 1996. – 368 б.

- 63.Содиқов С. Абдулла Қаҳҳор ижоди ва адабий танқид: Филол. фанлари доктори диссертацияси. – Т.: 1997.– 312 б.
- 64.Бобохонов М. Ўзбек қиссаларида бадиий психологизм. Фил. фанлари номзоди дисс. – Т.: 2014. – 168 б.
- 65.Дўстмуҳамедов Х. Ҳозирги ўзбек ҳикоячилигида бадиий тафаккурнинг янгиланиши. Фил. фанлари номзоди дисс. – Т.: ЎзФА ТАИ, 1995. – Б. 175 б.
- 66.Мирзаев И. Янгича тафаккур ва ҳозирги ўзбек насрининг тараққиёт йўллари: Фил. фанлари номзоди дисс. –Т.: ЎзФА ТАИ, 1991.–Б. 144.
- 67.Имомова Г. Типик миллий характерлар яратишда бадиий нутқнинг роли: Фил. фанлари номзоди дисс. – Т.: ЎзФА ТАИ, 1994. – 134 б.